Bu tarzda soddalashtirilgan sxemalarni qabul qilish bilan jismlarning tegishib turgan yuzachalaridan uzoqdagi nuqtalarida hosil bo'ladigan deformatsiyalarni etarli darajada anik, topishimiz mumkin.

Inshoat qismining ma'lum yuzasi yoki uzunligi buyicha qo'yilgan kuch uzluksiz ravishda ta'sir ko'rsatsa, bunday kuch yoyilgan kuch deyiladi.

9-ilova

Tashqi kuchlar va ularning klassifikatsiyasi






10-илова

Ichki kuchlar va ularni aniqlash metodi

Tashqi kuch ta'sirida sterjen kesim yuzasida hosil bo'lgan kuchlarga ichki kuch deyiladi. Ichki kuch tashqi kuch ta'siridan jismning deformatsiyalanishida, zarrachalarning bir-biridai qochishiga yoki yaqinlashishiga qarshilik ko'rsatuvchi, zarrachalar muvozanatini saqlovchi kuchlardir. Deformatsiyalanayotgan jism teng bo'lgan tashqi va ichki kuch ta'sirida muvozanatda bo'ladi. Jismning parchalanishi ichki kuchni tashqi kuchdan ortib ketishi tufayli ro'y beradi. Demak, sterjenning xavfsizligini ta'minlash uchun ichki kuchni topish va tashqi kuch bilan bog'lanish qonuni o'rganish talab etiladi.

Sterjen kesimlarida hosil bo'ladigan zo'riqish kuchlarining teng ta'sir etuvchisini topish uchun kesish usulidan foydalaniladi.

Sterjenga qo'yilgan P_1 , R_2 , R_3 , R_4 kuchlar sistemasi ta'siridan uning tayanchlarida R_S , R_B reaksiya kuchlari hosil bo'ladi (tayanchlar chizmada ko'rsatilmagan).



Bursning biror kesimidagi ichki kuchlarni aniklash uchun quyidagi to'rtta ish ketma-ket bajarilishi lozim:

1) Sterjenning biror nuqtasidagi zo'riqish kuchini aniklash uchun, sterjen shu nuqtadan o'tuvchi tekislik bilan fikran kesilib, ikkita — A va B kislarga ajraladi;

2) ajratilgan qismlarning biri, masalan, o'ng tomoni tashlab yuborilib, chap tomoni qoldiriladi. Bunda krlgan kislarning muvozanati buziladi;

3) Tashlangan qismning qolgan qismiga ilgari ko'rsatgan ta'siri $G_1, F_2 \dots$ kuchlar bilan almashtiriladi, bu kuchlar kesim yuzi bo'yicha taqsimlanadi ya'ni ular kesimning har bir nuqtasiga qo'yilgan bo'lishi kerak;

4) Koldirilgan chap kismining muvozanat sharti yoziladi.

Sterjenga tekis kuchlar sisteasi ta'sir qilayotgan bo'lsa, quydagi muvozanat tenglamalaridan foydalaniladi.

$$\sum \delta = 0 \quad \sum \phi = 0 \quad \sum z = 0$$

Agar ta'sir qilayotgan kuchlar bir tekislikda yotmasa, fazoviy sistema uchun berilgan oltita muvozanat tenglamalaridan fo'yddalaniladi.

$$\sum \delta = 0 \quad \sum \phi = 0 \quad \sum z = 0$$

$$\sum i_{\delta} \cong 0 \quad \sum i_{\phi} \cong 0 \quad \sum i_z \cong 0$$

Umumiy holda bursning ko'ndalang kesim yuzasida oltita ichki kuch faktori hosil

bo'ladi. Ichki bo'ylama kuch N_x , ko'ndalang kuchlar Q_y va Q_z lar, hamda buralish momenti M_x , vertikal va gorizontal tekisliklarda ichki eguvchi momentlar M_y M_z , Bu ichki kuch faktorlarini yuqoridagi statikaning muvozanat tenglamalari erdamida topiladi.

11-ilova

Kuchlanishlar. Normal va urinma kuchlanish

Kuchlanish ham ichki kuch singari vektorli qiymat bo'lib, ichki kuch yo'nalashida bo'ladi. Demak, ichki kuch va kuchlanishlarning yo'nalishi tashqi kuchga bog'liq bo'ladi.

Agar ichki kuch Q ni ikkita tuzuvchilarga bo'lsak, tekislikka tik N - (normal) va tekislik bo'lib yo'nalgan T (urinma) ichki kuchlarni va shularga o'xshash kuchlarni olviz. (σ -sigma, τ -tau)

$$\sigma = \frac{N}{F} \text{ -normal kuchlanish}$$

$$\tau = \frac{T}{F} \text{ -urinma kuchlanish}$$

12-ilova

Uygʻa vazifa: Mavzu bo'yicha "Tushunchalar tahlili" metodi tuzib kelish

№	Tushunchalar	Tahlillar
1	Tashqi kuchlar	
2	Ichki kuchlar	
3	Kesish metodi	
4	Kuchlanish	
5	Normal kuchlanish	
6	Urunma kuchlanish	
7	Deformatsiya	
8	Elastik deformatsiya	
9	Plastik deformatsiya	

Deformatsiya turlari cho'zilish va siqilish deformatsiyasi.

O'quv mashg'ulotining ta'lim texnologiyasini modeli

2-mashg'ulot	Deformatsiya turlari cho'zilish va siqilish deformatsiyasi..
---------------------	--

<i>O'quv soati: 2 soat</i>	<i>Tinglovchilar soni: 48 nafar</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli:</i>	<i>Axborotli ma'ruza</i>
<i>Mashg'ulot tuzilishi:</i>	1.Deformatsiya va ularning turlari 2.CHo'zilish va siqilishdagi sterjenning ko'ndalang kesimlardagi ichki bo'ylama kuch va normal kuchlanishlar hamda ularning epyuralarini qurish.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Deformatsiyalar to'g'risida ma'lumot berish. CHo'zilish va siqilishda ishlayotgan bruslarnig zo'riqishlarini aniqlash to'g'risida ma'lumot berish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> 1. Deformatsiya va ularning turlari haqida ma'lumot berish 2. CHo'zilish va siqilishdagi sterjenning ko'ndalang kesimlarida ichki bo'ylama kuch va normal kuchlanishlar hamda ularning epyuralarini qurish haqida ma'lumot berish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> 1. Deformatsiya turlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar 2. CHo'zilish va siqilishda sterjenning ko'ndalang kesimlarida ichki bo'ylama kuch va narmol kuchlanishlar hamda ularning epyuralarini qurish haqida ma'lumotga ega bo'ladilar
<i>Ta'lim usullari:</i>	Ma'ruza, tezkor so'rov, suxbat, namoyish etish, "Tushunchalar tahlili" metodi.
<i>Ta'lim vositalari:</i>	O'quv qo'llanma, slaydlar
<i>O'qitish shakllari:</i>	Jamoviy, guruhlarda ishlash
<i>O'qitish shart-sharoiti:</i>	Guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya va texnik vositalardan foydalanish

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ishning bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchining	Talabalarning
1.Ma`ruzaga kirish (15daqiq)	1.1 Maqsad va rejalashtirilgan o'quv natijalari bilan tanishtirish. (1-ilova)	Diqqat qiladi. (1-ilova)
	1.2 Ma`ruza rejasi bilan tanishtiradi (2-ilova)	Tirnglab yozib oldilar (2-ilova)
	1.3 Talabalarga tezkor savollar berib bilimlari faollashtiriladi. (3-ilova)	Savollarga javob berdilar. (3-ilova)
2.Asosiy qism (55 daqiqa)	2.1 Deformatsiya turlari haqida ma`lumot berish. (4-ilova)	Tirnglab yozib oldilar (4-ilova)
	2.2 CHo`zilish va siqilishda sterjenning ko`ndalang kesimlarida hosil bo`lgan ichki bo`ylama kuch va normal kuchlanishlarni aniqlash hamda ularning epyuralarini qurish haqida ma`lumot berish. (5-ilova)	Tinglab yozib oladilar. (5-ilova)
3.YAkunlovchi qism (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo'yicha yakuniy xulosa qilinadi. Muhim jihatlarga talabalar diqqatini jalb qiladi.	Tinglaydilar
	3.2 Mavzu yuzasidan berilidigan savollvrga javob beradi.	Tinglaydilar
	3.3 Uyga vazifa beradi. "Tushunchalar tahlili" metodini tuzib kelish. (6-ilova)	Tinglab yozib oladilar. (6-ilova)

Mavzu: Deformatsiya turlari cho`zilish va siqilish deformatsiyasi

1-ilova


O'quv mashg'ulotining maqsadi: Deformatsiyalar to'g'risida ma`lumot berish. CHo`zilish va siqilishda ishlayotgan bruslarnig zo'riqishlarini aniqlash to'g'risida ma`lumot berish.

2-ilova

Ma`ruza rejasi

- 1.Deformatsiya va ularning turlari
- 2.CHo`zilish va siqilishdagi sterjenning ko`ndalang kesimlardagi ichki bo`ylama kuch va normal kuchlanishlar.
3. Ichki bo`ylama kuch va narmal kuchlanishlarning epyuralarini qurish.

3-ilova



Tezkor savollar:

1. Materiallar qarshiligi fanining vazifasi?
2. Tashqi kuchlar deb nimaga aytiladi?
3. Ichki kuchlarni qanday metod bilan aniqlaniladi?

4. Kuchlanishlarning tashkil etuvchilarini ayting?


4-ilova

Deformatsiya turlari

Brusning ko'ndalang kesimlarida hosil bo'lgan ichki kuchlar (zo'riqishlar) uning deformatsiyasini to'liq haraktirlaydi. Bizga ma'lum umumiy holda brusning ko'ndalang kesimida bir vaqning o'zida oltita ichki kuchlar hosil bo'ladi. Xo'susiy holda brusning ko'ndalang kesimida faqat bitta ichki kuch xosil bo'ladi, qolgan ichki kuchlar nolga teng bo'ladi. Bunday deformatsiyani oddiy deformatsiya deyiladi.

Oddiy deformatsiyalar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. CHO'zilish yoki siqilish – Brusning ko'ndalang kesimida faqat bitta ichki bo'ylama kuch (N) xosil bshladi. Brusning markaziy shyi bo'ylab modullari teng qarama – qarshi yo'nalgan ikkita kuch ta'sir ettirsak cho'zilish yoki siqilish deformatsiyasi sodir bo'ladi. (1 – shakl, a).
2. Siljish (qirqilish, ezilish) – konstruktsiya elementinig ko'ndalang kesimida (Q_x yoki Q_y) ko'ndalang kuch xosil bo'ladi. Bunday deformatsiya payvand choklari, parchin mixlar va rezballi birikmalarda xosil bo'ladi. (1 – shakl, b)
3. Egilish – balkaning ko'ndalang kesimlarida ichki eguvchi moment i_{ϕ} yoki i_{ϕ} xosil bo'ladi. Ko'pincha eguvchi moment bilan bar vaqtda ko'ndalang kuch ham xosil bo'ladi (1 – shakl, v).
4. Buralish – brusning ko'ndalang kesimida buralish momenti (i_z) xosil bo'ladi. Buralishga ishlaydigan konstruktsiya elementlaridan misol qilib mashinaning vallari va ko'pgina qurilish konstruktsiya materiallari bo'lishi mumkin. (1 – shakl, g).
5. Murakkab deformatsiya (Murakkab qarshilik) – Brusning ko'ndalang kesimida bir vaqtda bir nechta ichki kuchlar xosil bo'ladi. Masalan egilish bilan buralishni bargalikdagi ta'siri, bo'ylama egilish (1- shakl, d va e).



1 – shakl

Cho'zilish va siqilishdagi sterjenning ko'ndalang kesimlardagi ichki bo'ylama kuch va normal kuchlanishlar hamda ularning epyuralarini qurish.


Agar sterjen faqat o'q bo'ylab yo'nalgan tashqi kuchlar ta'sirida bo'lsa, uning kesim yuzasida yuzaga tik yo'nalgan ichki kuchlar hosil bo'ladi va sterjen o'q bo'ylab cho'ziladi yoki siqiladi. Bunda boshka yo'nalishdagi ichki kuchlar — ko'ndalang yo'nalishdagi kuchlar, eguvchi va burovchi momentlar nolga teng deb olinadi (2-shakl).

Cho'zilishga ishlayotgan sterjen bilan siqilishga ishlayotgan sterjen bir xilda hisoblanadi. Sterjenning cho'zilishga yoki siqilishga ishlayotganini aniqlash uchun kuchlarni quyidagicha belgilaymiz. Deformatsiya cho'zuvchi kuchlar ta'sirida hosil bo'lsa, musbat, siquvchi kuchlar ta'sirida hosil bo'lsa, manfiy ishorada olinadi.


Sterjen kesim yuzasida hosil bo'ladigan ichki kuchni topish uchun kesish metodidan foydalanamiz. Masalan, yuqori uchi bilan tik biriktirilgan sterjen R_1 , R_2 , R_3 kuchlar ta'sirida bo'lsin va ichki kuchni topish talab etilsin (3-shakl, a). Ichki N kuch yo'nalishini koordinata sistemasining x o'qi bo'ylab yo'nalgan deb olamiz va kuchlar oralipshi belgilab, uchastkalarga bo'lib chikamiz. Har bir uchastka yuqorida bayon etilgan uslubda qir qiladi. So'ngra uchastka uchun statikaning munozanat tenglamasini alohida yozamiz. Ikkinchi uchastka uchun statikaning muvozanat tenglamasini yozib, N_2 ni topamiz:

$$\sum x_2 = R_1 - R_2 - N_2 = 0; \text{ bundan } N_2 = R_1 - R_2.$$

SHu tartibda birinchi va uchinchi uchastkalar uchun statikaning muvozanat tenglamalarini yozib, N_1 va N_3 larni topish mumkin (3-shakl, s, d):



2 - shakl



3 – shakl.

$$\sum X = N_1 - P_1 = 0; \quad N_1 = P_1$$

$$\sum X_3 = P_2 - P_1 - 2P_3 + N_3 = 0; \quad N_3 = P_1 + 2P_3 - P_2$$

Topilgan N_1 , N_2 va N_3 — qiymatlarni grafik ravishda tasvirlasak, eng katta kuch to'g'ri kelgan kesimni topish kiyin bo'lmaydi.

Sterjenning uzunligi bo'yicha ichki kuch o'zgarishini ko'rsatadigan grafik **ichki kuch epyurasi** yoki **bo'ylama kuch epyurasi** deyiladi. Ichki kuch epyurasini qurish uchun sterjen yonidan sterjen o'qiga parallel AV to'g'ri chizig'i o'tkaziladi. So'ngra sterjenning uchastka belgilaridan gorizontaal chiziqlar o'tkaziladi. Ichki kuchning kiymati musbat bo'lsa, AV chizig'ining o'ng tomoniga, manfiy bo'lsa, chap tomoniga uchsatkalarni ajratuvchi gorizontaal chiziq bo'ylab ma'lum masshtabda qo'yiladi (3-shakl, e).

Ichki kuch kiymatining kuch masshtabi K_r quyidagicha topiladi:

$$K_p = \frac{N_2}{m}$$

bunda N — II uchastkadagi ichki kuchning miqdori; m — shu kuchni epyuraga qo'yilgan kesmasi, [mm].

Ichki kuch epyurasi orqali maksimal kuch to'g'ri kelgan uchastka va kesim aniklanadi. O'zgarimas kesim yuzali sterjenning maksimal ichki kuch to'g'ri kelgan kesimida maksimal kuchlanish hosil bo'ladi.

N ichki kuchni kesim yuzasi bo'ylab tarqalgan ichki kuchlarning teng ta'sir etuvchisi deb qarash mumkin. U vaqtda ichki kuch N kesim yuzasi bo'ylab tarqalgan kuchlanish bilan quyidagicha bog'lanishda bo'ladi (4-shakl, a, b, v):

$$N = \int_F \sigma \cdot dF \quad (1)$$


(1) formuladan kuchlanishni topish uchun kuchlanishiing kesim yuza bo'ylab taqsimlanish qonuni berilgan bo'lishi kerak. Agar kuchlanish ko'ndalang kesim yuza bo'ylab tekis taqsimlangan deb karash mumkin bo'lsa (4-shakl, v), kuchlanish integral ostidan o'zgarimas qiymat singarn chikariladi, ya'ni:

$$N = \int_F \sigma \cdot dF = \sigma F.$$

Bundan:

$$\sigma = \frac{N}{F} = \pm \frac{N}{F}. \quad (2)$$

Bunda (+) ishora sterjenning cho'zilishga ishlashini ko'rsatsa, (—) ishora siqilishga ishlashini ko'rsatadi. Demak, kuchlanishning o'zgarishi kesim yuza o'zgarmas bo'lganda, ichki kuch singari bo'lar ekan. Uning epyurasi xam ichki kuch epyurasi singari quriladi, ya'ni ichki kuch epyurasi yonida sterjen o'kiga parallel AV to'g'ri chiziq olinadi



4-shakl

va kuchlanishning har bir uchastkaga tegishli qiymati o'z qarshisiga ma'lum masshtabda qo'yiladi (3-shakl, j). Kuchlanish masshtabi kuyidagicha topiladi:

$$K_{\sigma} = \frac{\sigma_2}{m}$$

bunda $\sigma_2 = N_2/F$ — II uchastkaga to'rg'i kelgan kuchlanish; m — kuchlanishning epyuraga ko'yiladigan vektor qiymati.

Maksimal kuchlanish to'g'ri kelgan kesimga **xavfli kesim** deyiladi. Kuchlanish tekis taqsimlanmagan (4-shakl, g,d) bo'lsa, kuchlanish bilan ichki kuch orasidagi bog'lanish murakkablashadi. Bu hol murakkab qarshilik deformatsiyasn temasida ko'rib chikiladi.

Uyga vazifa : “Tushunchalar tahlili” metodi tuzib kelish

6-ilova

№	Tushinchalar	Tahlillar
---	--------------	-----------

1	Deformatsiya	
2	Elastik deformatsiya	
3	Plastik deformatsiya	
4	CHO'zilish va siqilish	
5	Siljish	
6	Buralish	
7	Egilish	
8	Murakkab qarshilik	

Bo'ylama va ko'ndalang deformatsiya.

O'quv mashg'ulotining ta'lim texnologiyasini modeli


<i>3-mashg'ulot</i>	<i>Bo'ylama va ko'ndalang deformatsiya.</i>
<i>O'quv soati: 2soat</i>	<i>Tinglovchilar soni:</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli:</i>	<i>Axbarotli ma'ruza ma'ruza</i>
<i>Mashg'ulot rejasi:</i>	1) CHo'zilish va siqilishdagi sterjinning ko'ndalang kesimlaridagi ichki bo'ylama kuch va normal kuchlanishlar 2) CHo'zilish va siqilish deformatsiyasi, Guk qonuni. 3) Ko'ndalang deformatsiya. Puasson koefitsenti.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Bo'ylama va ko'ndalang deformatsiya xakida ma'lumot berish va talabalarda texnik tassavvurlarni shakllantirish.
<i>Pedagog vazifalari:</i> 1) CHo'zilish va siqilishdagi sterjinning ko'ndalang kesimlaridagi ichki bo'ylama kuch va normal kuchlanishlar tugrisida ma'lumot berish. 2) CHo'zilish va siqilish deformatsiyasi , Guk qonuni to'g'risida ma'lumot berish 3) Ko'ndalang deformatsiya. Puasson koefitsenti bilan tanishtirish	<i>O'quv faliyatining natijalari:</i> 1) CHo'zilish va siqilishdagi sterjinning ko'ndalang kesimlaridagi ichki bo'ylama kuch va normal kuchlanishlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar. 2) CHo'zilish va siqilish deformatsiyasi , Guk qonuni to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar 3) Ko'ndalang deformatsiya. Puasson koefitsenti to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar.
<i>Ta'lim usullari:</i>	Ma'ruza, tezkor so'rov, suxbat
<i>Ta'lim vositalari:</i>	O'quv qo'llanma, slaydlar
<i>O'qitish shakllari:</i>	Zamonaviy guruhlarda ishlash
<i>O'qitish shart-sharoiti:</i>	Guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya vatexnik vositalardan foydalanish
<i>Manitoring va baholash</i>	Nazorat sovellari

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

<i>Ishning bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchining</i>	Talabalarning
<i>1.Ma`ruzaga kirish (15daqiqqa)</i>	1.1 Maqsad va rejalashtirilgan o'quv natijalari bilan tanishtirish. (1-ilova)	Diqqat qiladi. (1-ilova)
	1.2 Ma`ruza rejasi bilan tanishtiradi (2-ilova)	Tirnglab yozib oldilar (2-ilova)
	1.3 Talabalarga tezkor savollar berib bilimlari faollashtiriladi. (3-ilova)	Savollarga javob berdilar. (3-ilova)
<i>2.Asosiy qism (55 daqiqqa)</i>	2.1 CHo'zilish va siqilishdagi sterjinning ko'ndalang kesimlaridagi ichki bo'ylama kuch va normal kuchlanishlar (4-ilova)	Tirnglab yozib oldilar (4-ilova)
	2.2 CHo'zilish va siqilish deformatsiyasi, Guk qonuni. (5-ilova)	Tinglab yozib oladilar. (5-ilova)
	2.3 Ko'ndalang deformatsiya. Puasson koefitsenti (6-ilova)	Tinglab yozib oladilar. (6-ilova)
<i>3.YAkunlovchi qism (10 daqiqqa)</i>	3.1 Mavzu bo'yicha yakuniy xulosa qilinadi. Muhim jihatlariga talabalar diqqatini jalb qiladi.	Tinglaydilar
	3.2 Mavzu yuzasidan berilidigan savollvrga javob beradi.	Tinglaydilar
	3.3 Uyga vazifa beradi. "Tushunchalar tahlili" metodini tuzib kelish. (6-ilova)	Tinglab yozib oladilar. (6-ilova)

CHo'zilish va siqilish. CHo'zilishdagi Guk qonuni Ko'ndalag deformatsiya, Puasson koefitsenti.

Sterjen o'q bo'ylab yo'nalgan qarama-qarshi kuch ta'sirida bo'lsa uning kesim yuzasida faqat bita normal, bo'ylama ichki kuch, kuchlanish sodir bo'ladi va shu o'q bo'ylab deformatsiyalanadi (5-shakl, a,b).



5- shakl.

Uning ichki kuch va quchlanishlarini topish uchun fikran kesish usulidan foydalanamiz (5- shakl, v). U vaqtda ichki kuch $\sum X = N - P = 0 \quad N = P$ bo'ladi.

Kuchlanish esa

$$\sigma = \frac{N}{F} [H / mm^2] \text{ Ichki kuch va kuchlanishlarning sterjen uzunligi}$$

bo'yicha o'zgarishini bilish uchun ularning qiymatiga ma'lum masshtabda grafik-epyura quriladi (5-shakl, g,d,) Kuchlanish epyurasidan sterjenlarning xavfli qirqimini topishda foydalaniladi.

Sterjenlarning deformatsiyanishi tajribalar yo'li bilan olingan R.Guk konuni asosida topiladi.

Sterjen kesim yuzasida hosil bo'lgan kuchlanish materialning elastiklik deformatsiyasi chegarasida nisbiy deformatsiyaga to'g'ri proportsional bo'ladi. $\sigma = E \epsilon$

va absolyut cho'zilish $\Delta l = Pl / EF$

Bunda: $E = \Delta l / l$ - nisbiy bo'ylama deformatsiya;

E - proportsionallik koeffitsenti, yoki elastiklik moduli

EF- yuza birligi.

Har qanday bo'yiga cho'zilgan sterjen eniga torayadi, torayish $\Delta \epsilon = \epsilon - \epsilon_1$ bo'lib, (5- shakl, a) nisbiy ko'ndalang deformatsiya $E^1 = \Delta \epsilon / \epsilon$ ga teng bo'ladi.

Tajribalar ko'rsatadiki, nisbiy ko'ndalang deformatsiya nisbiy bo'ylama deformatsiyaga, propartsional ravshda o'zgaradi, ya'ni:

$$E^1 = -\mu E$$

formuladagi minus ishorasi sterjenning bo'yiga cho'zilganda eniga torayishini kursatadi.

Proportsionallik koeffitsenti μ ga ko'ndalang deformatsiya koeffitsienti yoki Puasson koeffitsienti deyiladi. U har xil materiallar uchun $\mu = 0 + 0,5$ Oralig'ida bo'ladi.

“Tushunchalar tahlili” metodi

№	Tushinchalar	Tahlillar
1	Ichki kuchlar	
2	Kesish metodi	
3	Kchlanish	
4	Normal kuchlanish	
5	Urunma kuchlanish	

6	Deformatsiya	
7	Elastik deformatsiya	
8	Plastik deformatsiya	

**Materiallarning mexanik xossalari.
O'quv mashg'ulotining ta'lim texnologiyasini modeli**

4-mashg'ulot	Materiallarning mexanik xossalari.
O'quv soati: 2soat	Tinglovchilar soni:
O'quv mashg'ulotining shakli:	Axborotli ma'ruza
Mashg'ulot rejasi:	1. Materiallarning xossalari 2. Materiallarning mexanik xossalarini tekshirish 3. Ruxsat etilgan kuchlanish. Mustaxkamlika ehtiyotli koeffitsienti. 4. CHO'zilgan yoki siqilgan sterjenlarning mustaxkamlik hisoblari
O'quv mashg'ulotining maqsadi:	Materiallarning mexanik xossalarini tajriba asosida tekshirishni o'rganish va ko'nikma hosil qilish.
Pedagog vazifalari: 1) Materiallarning xossalarini o'rgatish 2) Materiallarning mexanik xossalarini tekshirishni o'rgatish 3) Ro'xsat etilgan kuchlanish. Mustaxkamlikka etiyotkorlik koeffitsienti haqida ma'lumot berish 4) CHO'zilgan yoki siqilgan sterjenlarning mustaxkamlik hisoblari to'g'risida ma'lumot berish	O'quv faliyatining natijalari: 1) Materiallarning xossalarini to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar. 2) Materiallarni mexanik xossalarini tekshirishni o'rganadilar. 3) Ro'xsat etilgan kuchlanish va mustaxkamlikka etiyotkorlik koeffitsienti to'g'risida tushinchaga ega bo'ladilar. 4) CHO'zilgan yoki siqilgan sterjenlarning mustaxkamlikka hisoblashni o'rganadilar
Ta'lim usullari:	Ma'ruza, tezkor so'rov, suxbat
Ta'lim vositalari:	O'quv qo'llanma, slaydlar
O'qitish shakllari:	Zamonaviy guruhlarda ishlash
O'qitish shart-sharoiti:	Guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya va texnik vositalardan foydalanish
Manitoring va baholash	Nazorat so'vollar

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

<i>Ishning bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchining</i>	Talabalarning
<i>1.Ma`ruzaga kirish (15daqiqqa)</i>	1.1 Maqsad va rivojlantirilgan o'quv mavzulari bilan tanishtirish. (1-ilova)	Diqqat qiladi. (1-ilova)
	1.2 Ma`ruza rejasi bilan tanishtiradi (2-ilova)	Tinglab yozib oldilar.(2-ilova)
	1.3 Talabalarga tezkor savollar berib bilimlari faollashtiriladi. (3-ilova)	Savollarga javob berdilar. (3-ilova)
<i>2.Asosiy qism (55 daqiqqa)</i>	2.1 Materiallarni xossalarini o'rgatish (4-ilova)	Tinglab yozib oldilar. (4-ilova)
	2.2 Materiallarni mexanik xossalarini aniqlashni o'rgatish (5-ilova)	Tinglab yozib oldilar (5-ilova)
	2.3 Ro'xsat etilgan kuchlanish va mustaxkamlikka etiyotkorlik koeffitsienti haqida ma`lumot berish (6-ilova)	Talaba o'qituvchini tinglab (6-ilova)
	2.4 Cho'zilish yoki siqilishga mustaxkamlik hisoblari to'g'risida ma`lumot berish (7-ilova)	Tinglab yozib oladilar. (7-ilova)
	2.5 Talabalarga tezkor savollar berib bilimlarini faollashtirish.	Savollarga javob berishadi.
<i>3.YAkunlovchi qism (10 daqiqqa)</i>	3.1 Mavzu bo'yicha yakuniy xulosa qilinadi. Muhim jihatlarga talabalar diqqatini jalb qiladi.	Tinglaydilar
	3.2 Mavzu yuzasidan berilidigan savollvrga javob beradi.	Tinglaydilar
	3.3 O'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi va baholaydi.	Tinglaydilar
	3.4Uyga vazifa beradi. Mavzu bo'yicha "Tushunchalar tahlili" metodini tuzib kelish (8-ilova)	Tinglab yozib oladilar. (8-ilova)

Materiallarning mexanik xossalari

1-ilova

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Materiallarning mexanik xossalarini tajriba asosida tekshirishni o'rganish va ko'nikma hosil qilish.


Ma`ruza rejasi:

2-ilova

- 1.Materiallarning xossalari
- 2.Materiallarni mexanik xossalarni tekshirish
- 3.Ruxsat etilgan kuchlanish. Mustaxkamlika ehtiyotli koeffitsienti

4. Cho'zilgan yoki siqilgan sterjenlarning mustahkamlik hisoblari

3-ilova



Tezkor savollar:

1. Absolyut cho'zilish Guk qonuni bo'yicha qanday ta'riflanadi?
2. Nisbiy bo'ylama deformatsiya qanday miqdor hisoblanadi?
3. Guk qonuni bo'yicha normal kuchlanishni tarifini bering?
4. Puasson koefitsientining qiymati qanday aniqlanadi?
5. Puasson koefitsientining qiymati har xil materiallar uchun qanday oraliqda o'zgaradi?

4-ilova

Materiallarning xossalari

Mashina va **inshoot** qismlari uchun ishlatiladigan materiallarni ikki guruxga bo'lish mumkin.

Materiallarning xossalarini eksperimental tekshirish. Plastik va mo'rt materiallar uchun cho'zilish diagrammalari.

Konstruktsiya uchun ishlatiladigan materiallarni, asosan ikki gruppaga bo'lish mumkin:

1. plastik materiallar, bularga po'lat, miss, dyuralyuminiy kabi materiallar kiradi. Bunday materiallar sezilarli darajada deformatsiya qoldirib emiriladi.
2. mo'rt materiallar, bularga cho'yan, beton, g'isht kabi materiallar kiradi. Bu materiallar juda oz deformatsiya qoldirib emiriladi.

Tashqi sharoit ta'siriga qarab, bir materialning o'zi ba'zan mo'rt holatda, ba'zan esa plastik holatda bo'lishi mumkin. Masalan, marmar odatdagi sharoitda mo'rt bo'lsa, yuqori bosm ostida plastik holatga aylanadi, ba'zan mo'rt materiallar temperaturaning ko'tarilishi bilan plastik bo'lib qoladi va hakazo.

Mashinasozlikda materiallarni tanlashda metallarning mexanik, fizik, texnologik va ximiyaviy xossalariga katta ahamiyat beriladi.

Materiallarning mexanik xossalariga ularning mustahkamligi, elastikligi, plastikligi, qattiqligi va qovushoqligi kiradi.

Fizik xossalariga esa issiqlikdagi kengayuvchanligi, zichligi, magnit xossalari, rangi va elektr o'tkazuvchanligi kiradi. Ximiyaviy xossalariga issiqbardoshligi, korroziyabardoshligi va boshqalar kiradi.

Texnologik xossalariga esa bog'lanuvchanligi, payvandlanuvchvnligi, kesib ishlash darajasi, toblanish chuqirligi va boshqalar kiradi.

Metallarning mustahkamligiga baho berishda ularning solishtirma mustahkamligi hisobga olinadi. Mustahkamlik chegarasining zichlikka bo'lgan nisbati solishtirma mustahkamlik deyiladi.

Qattiq jismlarning bir-biriga botish darajasi bilan aniqlanadigan qiymat bo'lib, bir jismning ikkinchi jismni botishiga qarshilik ko'rsatish xususiyatidir.

Elektr o'tkazuvchanlik metallarning elektr oqimiga qarshilik ko'rsatish darajasi bo'lib, elektr qarshiligi kam bo'lgan metallar (mis, alyuminiy) elektr

mashinasozligida, elektr qarshiligi yuqori bo'lgan qotishmalar (konstantin, nixrom) deformatsiya natijasida qarshiliklarning o'zgarishiga asoslangan o'lchov asboblarda (datchiklarda) foydalaniladi.

5-ilova

Materiallarni mexanik xossalarini tekshirish

Materiallar qarshiligi fanida asosan materiallarning mustaxkamlik, plastiklik va elastiklik (elastiklik moduli va Puasson koeffitsienti) xarakteristikalarini o'rganiladi. Bularni aniqlash, mexanik xarakteristikasini aniqlash talab etilgan materialdan namuna tayyorlab, uni cho'zishga yoki siqishga tekshirish yo'li bilan olib boriladi. Cho'zilish va siqilishga tekshirish o'zining soddaligi bilan boshqa xildagi tekshirishlarga qaraganda keng tarqalgan.

Materialning mexanik xossalarini tekshirish uchun, undan ma'lum shakldagi namuna yasali, bu namuna uzuvchi mashinalarning qisqichlari orasiga olib sinaladi. Bunday sinash ishlari mexanika laboratoriyalarida bajariladi. Uzuvchi mashinalardan 5 tonnali universal mashinaning sxemasi 4-shaklda tasvirlangan.

Mashinada uzun (b) va qisqa (a) elkali richag bo'lib, qisqa elkaning S nuqtasiga yuqorigi qisqich osilgan, uzun elkaning V tuguniga siniq BDE richag yordamida mayatnik ulangan. Mashinaning pastki qisqichi vintli sterjen yordamida tishli uzatma orqali motorga tutashadi. Bu qisqichlarga sinaladigan namunani maxsus moslamalar yordamida o'rnatib, pastki qisqichni motor yoki qo'l kuchi bilan qo'zg'atish orqali uni cho'zish yoki siqish mumkin. Buning natijasida richagning S nuqtasi ko'chib, butun sistema punktir chiziqli bilan ko'rsatilgan vaziyatni oladi; namunaga ta'sir qiluvchi R kuch bilan mayatnikning yuki (Q) orasida quyidagi bog'lanish bor:

$$Q_1 b = Pa$$

bundan tashqari,

$$Q_1 \cdot c = Ql \sin \gamma$$

bu ikki tenglamadan Q_1 ni chiqarsak

$$Q \frac{bl \sin \gamma}{c} = Pa$$

bundan esa

$$P = Q \frac{bl}{a \cdot c} \sin \gamma$$

hosil bo'ladi.


Agar $\frac{bl}{ac} \sin \gamma$ nisbatni m harfi bilan belgilasak, yuqorida hasil bo'lgan formulani quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$P = mQ$$

Bundan ko'rinadiki, namunaga ta'sir qiluvchi kuch mayatnik og'irligiga proporsionaldir, ya'ni mayatnik namunaning uzilishi yoki siqilishiga qarshilik

ko'rsatadi; bu qarshilik dinamometr (P) yordamida o'lchanadi. Bundan tashqari, mashinaga F baraban o'rnatilgan bo'lib, unda namunaga ta'sir qiluvchi kuch va namuna deformatsiyasi orasidagi bog'lanishni ko'rsatuvchi cho'zilish yoki siqilish diagrammasi deb ataluvchi grafik hosil qilish mumkin.

Namunalar tsilindirik yoki yassi bo'ladi (59-shakl, a, b), ularning uzunliklari bilan sinaladigan qismi ko'ndalang kesim yuzi orasida $l = 11.3\sqrt{F}$ yoki $l = 10 d$ bog'lanish bo'lishi kerak.




1-shakl

Endi, St.3 markali po'latdan yasalgan tsilindirik namunani sinash natijalarini tekshiramiz. Bu markali po'lat kam uglerodli yumshoq po'lat bo'lib, konstruktsiya qismlariga ishlatiladi.


Namunani sinashdan oldin, uning ko'ndalang kesim yuzi F va uzunligi ℓ_0 o'lchab olinadi va mashina qisqichlari M va N ga mag'kamlab qo'yiladi (2-shakl, a), keyin uzulguncha cho'ziladi. Namunani sinash jarayonidagi vaziyatini ko'rsatuvchi cho'zilish diagrammasi mashina barabaniga avtomatik ravishda yoziladi (3-shakl).

a)

b)




2-shakl




3-shakl

Tekshirilayotgan materialni bevosita xarakterlash maqsadida diagrammani qayta chizamiz, buning uchun abstsissalar o'qiga absolyut cho'zilishni emas, balki nisbiy cho'zilish $\left| \varepsilon = \frac{\Delta l}{l} \right|$ ni qo'yamiz, ordinatalar o'qiga esa cho'zuvchi kuchni namunaning

dastlabki kesim yuzi $|F_0|$ ga bo'lganda chiqqan kuchlanish $\left(\sigma = \frac{P}{F_0} \right)$ ni qo'yamiz. (4-shakl)






4-shakl

Sinash jarayonida yuk sekin-asta oshiriladi va hech qanday zarb va turtki bo'lmaydi deb tushiniladi. Grafikdagi OA to'g'ri chiziq kesma kuch bilan absolyut cho'zilish orasida to'g'ri proportsionallik qonuni borligini ko'rsatadi; bu chiziq Guk qonunining grafik ifodasidir. Bu to'g'ri proportsionallik bog'lanishning chegarasi yumshoq po'lat uchun 2000 kg/sm^2 gacha boradi, namunaning bunday kuchlanish holati diagramma A nuqta bilan ko'rsatilgan; bu kuchlanish materialning proportsionallik chegarasi deyiladi. St. 3 markali po'lat uchun uning qiymati $\sigma_n = 2000 \text{ kg/cm}^2$ dir. Bu chegaradan salgina yuqorida elastiklik chegarasiga tegishli nuqta yotadi. Bu nuqtaga tegishli normal kuchlanish elastiklik chegarasi deb ataladi va σ_s bilan belgilanadi. Bu chegaradan pastda namunada faqat elastik /yo'qoluvchi/ deformatsiya hosil bo'ladi, kuchlanish undan yuqori bo'lsa ham elastik, ham qoldiq deformatsiyalar hosil bo'ladi. Kuchlanish proportsionallik chegarasiga erishgandan boshlab, deformatsiya kuchlanishga qaraganda tezroq o'sa boshlaydi. SHundan keyin grafik o'ng tomonga burila boshlaydi va tez orada kuchlanish o'smasa ham deformatsiya o'sa boradi, ya'ni grafikda gorizontall BC chiziq xosil bo'ladi. Bu holatga to'g'ri kelgan kuchlanish oquvchanlik chegarasi deyiladi va σ_{ok} bilan belgilanadi. Bu chegarada yuk oshmasa ham deformatsiya davom etadi. St. 3 markali po'lat uchun uning qimmati $\sigma_{ok} = 2400 \text{ kg/cm}^2$ dir. Kuchlanish bu chegaraga erishganda materialning tuzilishi sifat jihatidan o'zgaradi, ya'ni uning ayrim kristallari yopishish qatlamlari bo'yicha suriladi, buning natijasida namunaning sirtida shu namuna o'qi bilan 45° burchak tashkil qilgan chiziqlar hosil bo'ladi. Namunaning sirtida paydo bo'lgan bu chiziqlar uning engil-elpi yorilishi alomatidir. Ammo materialning tuzilishidagi bu o'zgarish namunada tashqi kuchga yangidan qarshilik ko'rsatish xususiyati hosil qiladi, bu hol grafikda SD chiziq bilan tasvirlanadi. Grafikdagi D nuqta eng kata kuchlanishni ko'rsatadi. Bu kuchlanish materialning mustahkamlik chegarasi yoki vaqtli qarshiligi deyiladi va σ_s bilan belgilanadi. Bu chegara St 3 markali po'lat uchun $\sigma_s = 3800 \text{ kg/cm}^2$ dir.

Kuchlanish shu chegaraga etganda namunaning ko'ndalang kesimi avval sezilar-sezilmas, keyin esa ko'zga ilinarli darajada qisqaradi. Namuna ko'ndalang kesimining qisqarishi bo'yin deyiladi (60-shakl, b). Bo'yin borgan sari qisqarib, tez orada namuna shu kesim bo'yicha uziladi. Namunada bo'yin paydo bo'la boshlashi bilan cho'zuvchi kuch kamaya boradi, binobarin, grafikda pastga tomon ketgan DE egri chiziq hosil bo'ladi, shuning uchun kuchlanish ham kamayadi. Buning sababi shuki, biz cho'zuvchi kuchni namunaning qisqargan ko'ndalang kesim yuziga emas, balki boshlang'ich ko'ndalang kesim yuzi (F_0) ga bo'ldik. Agar cho'zuvchi kuchni bo'yinning ko'ndalang kesim yuziga bo'lsak, haqiqiy kuchlanish chiqadi va grafik oxirigacha ko'tarila boradi, bu hol 62-shaklda BE' punktir chiziq bilan ko'rsatilgan. Bunday diagramma haqiqiy kuchlanish diagrammasi deyiladi. Namuna uzilganda haqiqiy kuchlanish 8000-10000 kg/sm² ga etadi.

St. 3 po'lat uchun hosil bo'lgan diagramma boshqa plastik materiallar uchun ham o'z ko'rinishini saqlab qoladi.

Agar mo'rt materialdan yasalgan namunalar sinalsa, diagrammada faqat mustahkamlik chegarasi hosil bo'lib, oqish chegarasi hosil bo'lmaydi. Cho'zish diagrammasida elastiklik chegarasidan keyin kuchlanish darhol mustahkamlik chegarasiga erishadi, egri chiziq o'ng tomonga tez buriladi va namuna bo'yin hosil qilmasdan turib uziladi (5-shakl).




5-shakl

Mo'rt materiallar umuman aytganda cho'zilishga zaif, siqilishga esa zo'r qarshilik ko'rsatadi.

Statik aniq sistemaning mustahkamligini topish uchun uning biror sterjeni mustahkamligini topish kifoya, binobarin, sistema ko'tara oladigan yuk miqdori shu sistemaning biror sterjenida hosil bo'ladigan kuchlanish sterjen materialning oquvchanlik chegarasiga etishi bilananoq cheklanadi.

Sterjen aniqmas sistemaning biror sterjenidagi kuchlanish proportsionallik chegarasidan ortishi bilananoq zo'riqish kuchlari shu sistemaning hamma qismlari orasida taqsimlana boshlaydi, binobarin, sistema ko'tara oladigan yuk miqdori shu sistemaning hamma sterjenlardagi yoki bir necha elementidagi kuchlanishlar materialning toquvchanlik chegarasiga etishi bilan cheklanadi. Shuning uchun bunday sistemalar, albatta elastik materiallardan yasalishi va ularga statik kuch ta'sir ettirilishi zarur. Bu xildagi konstruksiyalarni qancha yuk ko'tara olishi bo'yicha hisoblashda materialning oquvchanlik chegarasigacha deformatsiyanishi Guk qonuni asosida davom etadi, deb hisoblanadi. Deformatsiyaning bunday diagrammasi

oddiylashtirilgan diagramma yoki Prandtelning ideallashtirilgan diagrammasi deyiladi (6-shakl).



6-shakl

Bu xildagi diagramma oquvchanlik chegarasi o'zgaras deb hisoblanadi.

Statik aniqmas sistemalarning qancha yuk ko'tara olishi bo'yicha hisoblashda sistemaning chekli holati ko'rib chiqiladi.

Emiruvchi yuk shunday yukki, bu yuk ta'siridan statik aniq sistemalarning biror elementidagi yoki statik aniqmas sistemalarning hamma elementlaridagi kuchlanishlar materialning oquvchanlik chegarasiga tenglashadi. Emiruvchi, ya'ni xavfl kuchni ehtiyot koeffitsientiga bo'lib, ruxsat etilgan kuch topiladi.

$$P_{p.o} = \frac{P_{ok}}{k}$$

bunda k -ehtiyot koeffitsienti

Chekli yuk bo'yicha hisoblangan konstruktsiya ruxsat etilgan kuchlanish bo'yicha hisoblangan shu konstruktsiyaga qaraganda ko'proq yuk ko'tara oladi. SHu sababli konstruktsiya chekli yuk bo'yicha hisoblanganda eng ko'p tejaladi.

Agar chekli yuk normativda ko'rsatilgan ehtiyot koeffitsientiga bo'linsa, ruxsat etilgan chekli yuk chiqadi (bu yuk $R_{r. e. ch.}$ bilan belgilanadi).

$$P_{p.o. q.} = \frac{P_{qek}}{k}$$

Bunda ham ehtiyot koeffitsienti ruxsat etilgan kuchlanishnikidek olinadi.

Statik aniqmas sistemalarni chekli yuk ko'tarish usuli bilan hisoblash konstruktsiyalarni arzon tushishiga imkon beradi.

YUqorida bayon qilingan cho'zilish diagrammasining xarakterli nuqtalariga tegishli kuchlanishlar (σ_p , σ_{oq} , σ_v yoki σ_m) materialning mustahkamlik xarakteristikalarini deyiladi. Bundan tashqari, materialning plastiklik xarakteristikalarini ham bo'ladi, ular quyidagilardir.

1) nisbiy uzayish

$$\delta_k = \frac{i - i_0}{l_0} 100 \%,$$

bunda l_0 -namunaning sinashdan oldingi uzunligi

l -namunaning uzilgandan keyingi uzunligi

St. 3 po'lati uchun $\delta_k \geq 24 \%$ dir

2) nisbiy ingichkalanish, bu xarakteristika manna bunday formuladan aniqlanadi

$$\psi = \frac{F_0 - F}{F_0} 100 \%$$

bunda F_0 -namunaning sinashdan oldingi ko'ndalang kesim yuzi

F -namunaning uzilgandan keyingi ko'ndalang kesim yuzi

Nisbiy ingichkalanish ψ materialning plastik xossalarini nisbiy uzayish (δ) dan ko'ra aniqroq harakterlaydi, chunki namunaning shakliga kam darajada bog'liqdir.

Materialning mustaxkamlik va plastiklik xarakteristikolari shu materialning mexanik xarakteristikasi deyiladi.

6-ilova

Ro'xsat etilgan kuchlanish va mustaxkamlikka ehtiyotkorlik koeffitsienti

Konstruktsiyaning emirilmay, uzoq vaqt xavsiz ishlashini ta'minlaydigan eng katta kuchlanish *ruxsat etilgan kuchlanish* deyiladi. **Ruxsat etilgan kuchlanishdan bir necha marta**

Ruxsat etilgan kuchlanishni aniqlashda xavfli kuchlanishni kamaytiradigan son *ehtiyot koeffitsienti* deyiladi va k harfi bilan belgilanadi.

Mo'rt materiallar uchun ruxsat etilgan kuchlanishni topishda mustahkamlik chegarasi (σ_M) ehtiyot koeffitsienti k ga bo'linadi,

$$[\sigma] = \frac{\sigma_M}{k} \quad (11.36)$$

Ehtiyot koeffitsientining qiymati konstruktsiya materialiga, shu konstruktsiyaga ta'sir qiluvchi kuchlanish harakteriga va boshqa ko'pgina faktorlarga bog'liq bo'ladi. Qurilish praktikasida ehtiyot koeffitsienti 2 dan 6 gacha olinadi.

YOg'och materiallar ko'pincha bir jinsli bo'lmaganligidan ular uchun ehtiyot koeffitsienti 3 dan 5 gacha olinadi.

Plastik materiallaridan yasalgan konstruktsiyalarni oqish chegarasiga borish xavfidan saqlash lozim, aks holda ularda kata qoldiq deformatsiya hosil bo'lishi mumkin. SHu sababli plastik materiallar uchun ruxsat etilgan kuchlanish oquvchanlik chegarasi asosidan aniqlanadi

$$[\sigma] = \frac{\sigma_{ok}}{k_1}$$

bunda k_1 -oquvchanlik chegarasi bo'yicha ehtiyot koeffitsienti. St. 3 po'lati uchun bu koeffitsient 1.3 dan 1.5 gacha olinadi. Ko'p ishlatiladigan turli xil materiallar uchun ruxsat etilgan kuchlanishning qiymati 1-jadvalda berilgan. Bu qiymatlar normal sharoitda ishlaydigan va statik yuk ta'sirida bo'lgan konstruktsiya qismlari uchun berilgan.

7-ilova

CHo'zilgan yoki siqilgan sterjenlarning mustaxkamlik hisoblari

Konstruktsiya elementlarining uzoq vaqt xavfsiz ishlashi, mustahkamligi, ixcham va engil bo'lishiga erishish shartlari bilan tanishamiz. Konstruktsiya qismlari mustahkam bo'lishi uchun ko'ndalang kesim yuzasida hosil bo'ladigan maksimal normal kuchlanish shu qismning materiali uchun ruxsat etilgan normal kuchlanishidan kata bo'lmasligi kerak, ya'ni:

$$\sigma_{\max} = \frac{N_{\max}}{F} \leq [\sigma].$$

Bu cho'zilishga mustaxkamlik (hisoblash) formulasidir. Mustaxkamlik shartidan quyidagi uchta masalani hal qilish mumkin.

1. Mustaxkamlikni tekshirish. Buning uchun sterjen kesim yuzasidagi eng katta kuchlanish aniqlanadi va ruxsat etilgan kuchlanishga solishtiriladi, ya'ni :

$$\sigma_{\max} \leq [\sigma].$$

2. Ruxsat etilgan yuzani topish. Bunda berilgan kuchni (yukni) ko'tara oladigan yuza quyidagi formuladan topiladi:

$$[F] \geq \frac{N_{\max}}{[\sigma]}.$$

3. Konstruktsiya qismlarining yuk kutarish qobiliyatini aniqlash:

$$[N] \leq [\sigma] \cdot F.$$

Ruxsat etilgan kuchlanish orqali topilgan qiymatlar materialining xossasiga qarab iqtisodiy nuqtai nazardan olingan o'lchami bo'ladi. YUqoridagi shartlar qanoatlantirilganda mashina qismlari engil va mustaxkam bo'ladi. Formulalarning chap tomonidagi qiymat o'ng tomonidagi qiymatga teng bo'lganida, materialdan maksimal foydalangan bo'lamiz.

Keyingi yillar ichida mashinalar ishlash qobiliyatini pasaytirmagan holda ularni bir necha marta engillatishga va arzon material qullashga erishildi.

Temperaturaning mustaxkamlikka ta'siri. Bir – biriga tegib, ishqalanib ishlashi natijasida mashina qismlari qiziydi, bu esa mashina qismlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ichki yonuv dvigatellari porshenining xalqalari qizib kengayadi, natijada tsilindr devoriga tiralib dvigatel harakatini to'xtatadi. Bundan tashqari metallarni toblash davrida qizdirilgan detalni tez sovitish natijasida ba'zi joylarda hajmiy o'zgarishlar va darzlar paydo bshladi. Bu esa shu uchastkalardagi kuchlanishlar mustaxkamlik chegarasidan ortib ketganligidan darak beradi.

Kuchlanishni kamaytirishning eng yaxshi usullaridan biri detallarni sekin sovitish va detallar konstruktsiyasini tuzishda o'tkir burchaklar bo'lmasligini va kesimlarning keskin o'zgarishiga yo'l qo'ymaslikni ta'minlashdan iborat.

YOg'ochlarni quritishda ularning tob tashlab qolishi ham bunga misol bo'la oladi.

8-ilova

Uyga vazifa: Mavzu yuzasidan Tushunchalar taxlili metodi jadvalini to'ldirib kelish tuzib kelish.

“Tushunchalar tahlili” metodi

№	Tushunchalar	Tahlillar
1	Plastik materiallar	
2	Murt materiallar	
3	Materiallarning mexanik xossalari	
4	Materiallarning fizik xossalari	
5	Materiallarning texnologik xossalari	
6	Qattqlik	
7	Qavushoqlik	
8	Elektr o'tkazuvchanlik	
9	Proportsionallik chegarasi	
10	Elastiklik chegarasi	
11	Oquvchvnlk chegarasi	
12	Mustaxkamlik chegarasi	
13	Richakli tenzometr	
14	Strelkali indekator	
15	Nisbiy qoldiq bo'ylama deformatsiya	
16	Plastik materiallarning mustaxkamlik xaraktrestikalari	
17	Materiallarning plastikli xaraktrestikalari	
18	Ruxsat etilgan kuchlanish	
19	Mustaxkamlikka extiyotkorlik koefitsienti	
20	Mustaxkamlik shartini tenglamasi	


21	Mustaxkamlikni tekshirish	
22	YUk ko'tarish qobiliyatini aniqlash	
23	Ruxsat etilgan kesim yuzasini topish	

Brusning hususiy og'irligini kuchlanishga ta'siri.

Biz sterjenlarni xisoblashda o'z og'irligini e'tiborga olmagan edik. Lekin uzunliklari va ko'ndalang kesim o'lchamlari katta bo'lgan bruslarning (masalan, ko'priklarning tayanch ustunlari, tros, devorlar, fundamentlar, kolonkalar) xususiy og'irliklarini e'tiborga olinmaslik mumkin emas, chunki xisoblash natijalari o'zgaradi.

Hususiy og'irligini xisobga olgan xolda normal kuchlanishni aniqlash formulasini keltirib chiqaramiz.

Yuqori uchi bilan qistirilgan brusga cho'zuvchi P kuchi ta'sir qilayapdi. Brusning uzunligini ℓ , ko'ndalang kesim yuzasini F , solishtirma og'irligini γ deb belgilaymiz.



Brusning o'z og'irligini aniqlaymiz.

$$G = \gamma \cdot F \cdot \ell \quad (1)$$

Brusning qistirilgan ko'ndalang kesimida eng katta bo'ylama kuch xosil bo'ladi

$$N_x = P + G$$

Xavfli kesimidagi eng kata kuchdanish

$$\delta_{\max} = \frac{N_x}{F} = \frac{P + G}{F} = \frac{P}{F} + \frac{F \cdot \gamma \cdot \ell}{F}$$

yoki

$$\delta_{\max} = \frac{P}{F} + \gamma \cdot \ell \quad (2)$$

Mustaxkamlik shartining tenglamasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi

$$\delta_{\max} = \frac{P + G}{F} \leq [\delta] \quad (3)$$

yoki

$$\delta_{\max} = \frac{P + F \cdot \gamma \cdot \ell}{F} \leq [\delta] \quad (3')$$

yoki

$$\delta_{\max} = \left(\frac{P}{F} + \gamma \cdot \ell \right) \leq [\delta]$$

Xavfli kesimning talab qilingan ko'ndalang kesim yuzasi bo'ladi.

$$F \geq \frac{P}{[\delta] - \gamma \cdot \ell}; \quad (4)$$

Agar brus o'z og'irligidan cho'zilishga ishlayotgan bo'lsa

$$\delta_x = \frac{G_z}{F} = \frac{F \cdot \gamma \cdot x}{F} = \gamma \cdot x \quad (5)$$

Agar $x = 0$ $\delta = 0$ $x = b$

$$\sqrt{\delta_{\max}} = \gamma \cdot \ell \quad (6)$$

4-formuladan ko'rinadiki, o'z og'irligi ta'sirida xosil bo'lgan kuchlanish brusning kesim yuziga bog'liq bo'lmay, balki uning materialiga va uzunligiga bog'liq ekan.

Brusning o'z og'irligidan emiriladigan uzunligi quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$\ell_k = \frac{\delta_r}{\gamma} \quad (7)$$

ℓ_r - brusning kritik uzunligi.

Brusning ruxsat etilgan eng katta uzunligi quyidagicha bo'ladi.

$$\ell_{\max} = \frac{[\delta]}{\gamma}; \quad (8)$$

Brusning o'z og'irligidan xosil bo'ladigin absolyut cho'zilishni aniqlash uchun pastki uchida x masofada dx bo'lgan element ajratamiz. dx elementning absolyut cho'zilishini Guk qonuni bo'yicha aniqlaymiz.

$$\Delta \ell_x = \frac{N_x \cdot dx}{E \cdot F} = \frac{F \cdot \gamma \cdot x \cdot dx}{EF};$$

bu ifodani 0 dan ℓ ga qadar chegarada integrallab, brusning butun uzunligi uchun to'g'ri kelgan absolyut cho'zilishni aniqlaymiz

$$\Delta \ell = \int_0^{\ell} \Delta \ell_x = \int_0^{\ell} \frac{F \cdot \gamma \cdot x \cdot dx}{EF} = \frac{F \cdot \gamma}{EF} \int_0^{\ell} x dx = \frac{F \cdot \gamma \cdot \ell^2}{2EF} = \frac{G \cdot \ell}{2EF};$$

$$\Delta \ell = \frac{G \cdot \ell}{2EF}; \quad (9)$$

$F \cdot \gamma \cdot \ell = G$ -bilan almashtirilgan

Bu formuladan ko'rinadiki brusning o'z og'irligidan absolyut cho'zilish og'irlikka teng bo'lgan tashqi kuchga nisbatan ikki marotaba kam ekan.

Buning sababi og'irlik sterjenning pastki uchida nolga teng bo'lib, qistirilgan yuqori uchida umumiy og'irlik G ga teng ekan. YA'ni brus o'rtacha $\frac{G}{2}$ kuch ta'sirida cho'ziladi.

Brusning o'z og'irligi ta'siridan mustaxkamligi quyidagicha tekshiriladi.

$$\delta_{\max} = \gamma \cdot \ell \leq [\delta] \quad (10)$$

Cho'zilish va siqilishdagi statik aniqmas masalalar haqida tushuncha

Konstruktsiya elementlariga ta'sir qiluvchi kuchlarning qiymatlarini faqat statikaning muvozanat tenglamalari yordamida aniqlash mumkin bo'lsa, bu masalalarni statik aniq masalalar deyiladi. Bunday masalalarda brusga ta'sir qilayotgan noma'lum kuchlar soni, tuzish mumkin bo'lgan muvozanat tenglamalar sonidan ortiq bo'lmaydi.

Amalda shunday masalalar uchraydiki statikaning muvozanat tenglamalari etarli bo'lmaydi, ya'ni nomalum kuchlar soni, statikaning muvozanat tenglamalar sonidek ortiq bo'lmaydi.

Bunday masalalarni statik aniqmas masalalar deyiladi. Statik aniqmas masalani statik aniq masalaga keltirish uchun qo'shimcha tenglamalar tuziladi.

Statik aniqmas sistemani echishda asosiy masala qo'shimcha zo'riqishdan xosil bo'lgan deformatsiyani yoki ko'chishni xisobga olib, qo'shimcha tenglamalar tuziladi.

Bu qo'shimcha tenglamalarni deformatsiya tenglamalari deyiladi.

Aniqmas masalalarni xarakteri turlicha bo'lgani uchun, ularni aniq echilish usuli tavsiya etib bo'lmaydi. Bunday masalalarni asosiy echish metodi quyidagicha.


A) Aniqlash talab qilingan nomalum kuchni xarakteri aniqlaniladi.

B) shunday xoll uchun statikaning muvozanat tenglamalari tuziladi.

V)deformatsiya va ko'chishni xisobga olib, etishmagani qo'shimcha tenglama tuziladi. YA'ni nomalum kuchlar soniga umumiy muvozanat tenglamalar soniga teng bo'lishi kerak.

Masala. Ikki uchi bilan qo'zg'almas qilib biriktirilgan sterjenga o'qi bo'ylab yo'nalgan $P = 5 \text{ kN}$ kuch qo'yilgan.

Berilgan. R_A va R_B reaksiya kuchlari aniqlansin.



$$R_A$$

Echish. Rasmdan ko'rinadiki R kuchi sterjenni yuqori qismini cho'zayapdi, pastki qismini siqayapdi. SHuning uchun R_A va R_B larning yo'nalishi yuqoriga yo'nalyapdi. Tayanch reaksiya kuchlarini aniqlash uchun statika bita muvozanat tenglamasini berayapdi.

$$\sum X = R_A + R_B - P = 0$$

$$R_A + R_B = P$$

Tenglamadan ko'rinadiki masala statik aniq emas. Masalani echish uchun qo'shimcha tenglama tuzish kerak. Buning uchun pastki devorni fikran olib tashlab o'rniga R_A reaksiya kuchi bilan almashtiramiz. unda P kuchi ta'siridan cho'zilayotgan va R_A reaksiya kuchi ta'sirida siqilayotgan sterjen bo'ladi. P va R_A kuchlari ta'siridan sterjenning absolyut cho'zilishi va siqilishi Guk qonuni bo'yicha aniqlaymiz.

Siljish deformatsiyasi
O'quv mashg'ulotining ta'lim texnologiyasini modeli

5 - mashg'ulot	Siljish deformatsiyasi.
O'quv soati: 2 soat	Talabalar soni:
O'quv mashg'ulotning shakli	Axborotli ma'ruza
Mashg'ulot rejasi:	1) Sof siljishdagi kuchlanish va deformatsiya. 2) Siljishdagi Guk konuni. 3) Siljishdagi ruxsat etilgan kuchlanish.
O'quv mashg'ulotining maqsadi:	Siljish deformatsiyasi to'g'risida ma'lumot berish va texnik tasavvurlarini shakllantirish.
Pedagogik vazifalari: 1) Sof siljishdagi kuchlanish va deformatsiya haqida ma'lumot berish; 2) Siljishdagi Guk konuni yoritib berish; 3) Siljishdagi ruxsat etilgan kuchlanish haqida ma'lumot berish	O'quv faoliyatining natijalari: 1) Sof siljishdagi kuchlanish va deformatsiya haqida ma'lumotga ega bo'ladi; 2) Siljishdagi Guk konuni aytib beradilar; 3) Siljishdagi ruxsat etilgan kuchlanish haqida ma'lumot ega bo'ladilar.
Ta'lim usullari	Ma'ruza, tezkor so'rov, namoyish etish, suxbat. "Test"
Ta'lim vositalari	O'quv qo'llanma, slaydlar,
O'qitish shakllari	jamoaviy, guruhlarda ishlash.
O'qitish shart-sharoiti	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya
Baholash	Nazorat savollari

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Faoliyat mazmuni		
	O'qituvchining	Talabalarning
1	Ma'ruzaga kirish (15 daqiqa)	Diqqat qiladi
1.1	Tashkiliy qism.(3 daqiqa)	
1.2	O'tilgan mavzuni takrorlash.(12daqiqa) "Test"asosida o'tilgan mavzuni qisqa vaqt davomida takrorlab olishga erishadi. (1-ilova)	Test savollarini echadilar (1-ilova)
2	Asosiy qism (55 daqiqa)	
2.1	Faollashtirilgan bilimlar asosida talabalarni mashg'ulot mavzusiga olib kiriladi.	Tinglaydilar
2.2	YAngi mashg'ulot mavzusi, maqsadi va rejalashtirilgan o'quv natijalar bilan tanishtiradi. (2-ilova)	Tinglab, yozib oladilar. (2-ilova)
2.3	Sof siljishdagi kuchlanish va deformatsiyasi haqida ma'lumot beriladi.(3-ilova)	Tinglaydi, yozib oladilar,tushunchalarni taxlil qiladilar. (3-ilova)
2.4	Siljishdagi Guk konuni haqida ma'lumot beriladi.	

2.5	Siljishdagi ruxsat etilgan kuchlanish to'g'risida ma'lumot beriladi	
3	YAkuniy qism (10 daqiqa)	
3.1	Mavzu bo'yicha yakuniy xulosa qiladi. Muhim jihatlarga talabalar diqqatini jalb qiladi.	Tinglaydilar
3.2	Mavzu yuzasidan berilidigan savollarga javob beradi. O'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi va baholaydi.	Mavzu yuzasidan savollar beradilar. Tinglaydilar va yozib oladilar (4-ilova)
3.3	Uyga vazifa beradi: mavzu yuzasidan tushunchalar tahlili metodini tuzib kelish (4-ilova)	

1-ilova

O'tilgan mavzuni takrorlash uchun test savollari.

1. Mashina va inshoot qisimlari uchun ishlatiladigan materiallar necha guruhga bo'linadi?

- A) 2
- B) 3
- S) 4
- D) 5

2. Materiallarning mexanik hossalari nimalar kiradi?

- A) Mustaxkamligi, elastikligi, plastikligi, korroziabardoshligi
- B) Elastikligi va plastikligi
- S) Issiqbardoshligi, qattiqligi, elastikligi, plastikligi, korroziabardoshligi
- D) Mustaxkamligi, elastikligi, plastikligi, qattiqligi va qovushqoqligi

3. Materialning plastik xarakteristikalar nimalardan iborat?

- A) Nisbiy uzayish, nisbiy ingichkalanish.
- B) Nisbiy uzayish, nisbiy ingichkalanish, mustaxkamlik.
- S) Nisbiy uzayish, nisbiy ingichkalanish, qattiqlik.
- D) Nisbiy uzayish, nisbiy ingichkalanish, qovushqoqlik.

4. Mo'rt materiallar uchun ruxsat etilgan kuchlanish formulasini ko'rsating.

- A) $[\tau] = \frac{\tau_{ie}}{\hat{e}}$
R va M_σ lar tasiridan hosil bo'lgan kuchlanish τ_p va τ_M lar geometrik qo'shib eng katta umumiy kuchlanishni topamiz. τ_p va τ_M kuchlanishlarning epyuralaridan ko'rinadiki, chiziq ko'ndalang kesim yuzasining S nuqtasidagi kuchlanishlar bir xil yo'nalishda bo'ladi. Ularni qo'shib, quyidagi to'la maksimal patentsial kuchlanish $\tau_{\max}$ ni hosil qilamiz. Bundan ko'rinadiki, prujina yorilsa (ishdan chiqsa) faqat ichki qismidan yorilar ekan.

$$\tau_{\max} = \tau_M + \tau_p = \frac{8PM}{\pi d^3} + \frac{4P}{\pi d^2} \cdot \left(\frac{2Dd}{2Dd} \right) = \frac{8Pd}{\pi d^3} \left(1 + \frac{d}{2D} \right).$$

Odatda prujina $D/d=5:10$ nisbatda tayyorlanadi. U holda $\frac{d}{2D} = 0.05 : 0.1$ ga teng bo'lib, buralishdan hosil bo'lgan kuchlanishning 5:10 foizini hosil qiladi, xosil. SHuning uchun $1 + \frac{d}{2D}$ ni tashlab yuborish mumkin. Bu demak, kesuvchi kuch R dan hosil bo'lgan kuchlanishni hisobga olmaslik mumkin. Bu kuchlanish burilishdan hosil bo'lgan kuchlanishga nisbatan juda kichikdir. SHu sababli hisob tenglamasini quyidagicha yozish mumkin:

$$\text{Maksimal kuchlanish } \tau_{\max} = \frac{8PD}{\pi d^3};$$

$$\text{Mustaxkamlik sharti: } \tau_{\max} = \frac{8PD}{\pi d^3} \leq [\tau].$$

Prujina deformatsiyasini aniqlash

Endi prujinaning cho'zilishini aniqlaylik. Buning uchun prujina o'ramini gorizantal aylana deb qaraymiz, 1-va 2-qismlar bilan chegaralangan va uzunligi ds ga teng bo'lgan kichik bir kesmani ajratamiz. Ajratilgan kesma cheksiz kichik bo'lganligi uchun, uni deformatsiyagacha gorizantal tekislikda yotuvchi teng yonli SAV uchburchak deb qarash mumkin. Prujina deformatsiyalanishi natijasida 2-qism

1-qismga nisbatan ds davomida $d\varphi = \frac{M_\sigma \cdot ds}{Gl_p}$, burchakga buriladi. SHu bilan birga VS

radius AS ga nisbatan $d\varphi$ burchakka ogʻadi va S nuqta S' ga koʻchadi. Buning natijasida prujinaning uchi $d\lambda = Rd\varphi = R \frac{M_{\sigma} \cdot ds}{Gl_p}$ masofaga siljiydi. Prujinaning ds kabi barcha elementlarining shu tarzda deformatsiyalanishini koʻzda tutsak, pastki uchining toʻla siljishini quyidagi integral orqali ifodalanadi:

$$\lambda = \int_0^1 R \frac{M_{\sigma} ds}{Gl_p} = R \frac{M_{\sigma}}{Gl_p} \int_0^1 ds = R \frac{M_{\sigma l}}{Gl_p}.$$

Prujina chizigʻining toʻla uzunligi $l = \pi Dn$, $\frac{M_p l}{Gl_p} = \varphi$ prujina chizigʻi toʻgʻrilanganda uchlarining bir-biriga nisbatan buralish burchagi. Demak, absolyut choʻzilish:

$$\lambda = \frac{M_p \cdot R}{2Gl_p} \cdot l = \frac{M_p D}{2Gl_p} \cdot \pi Dn = \frac{8PD^3 n}{Gd^4}.$$

Prujinaning bikrligi

$$\frac{Gd^4}{8D^3 n} = C.$$

SHunday qilib, absolyut choʻzilish formulasini quyidagicha yozamiz.

$$\lambda = \frac{P}{C}.$$

YUqoridagi formulalardan koʻrinadiki, prujina oʻram soni n ning koʻpayishi (a) propartsialnal ravishda deformatsiya λ ni oshiradi, shu bilan birga bikrligni koʻpaytiradi (b). Prujina chizigʻi diametrining oshishi, prujina bikrligini oshiradi. Prujina diametri D ning oshishi esa bikrligni kamaytiradi (b). a) formuladan foydalanib siljish moduli G ni eksperiment yoʻli bilan aniqlash mumkin. Oʻramlarning soni va hamma geometrik oʻlchamlari malum boʻlgan prujina sinov mashinasida siqilsa, siquvchi R kuch bilan prujinaning choʻkishi λ ni mashinaga oʻrnatilgan shkaladan aniqlab, G ni quyidagicha hisoblash formilasi topish mumkin:

$$G = 8PD^3 n / \lambda d^4.$$

Prujina tayyorlashda elastiklik chegarasi yuqori boʻlgan toblangan poʻlatlar ishlatiladi. Bunday roʻlat sterjin uchun ruxsat etilgan kuchlanish $[\tau] = 350 - 500 \text{ H/mm}^2$ gacha boradi. Prujinaga qoʻyiladigan yuk oʻzgaruvchan boʻlsa, ruxsat etilgan kuchlanish 30÷ 65 prosentga kamaytiriladi. Prujina asosan nagruzka oʻzgaruvchan uchastkalarda ishlatiladi.

7-ilova

Uyga vazifa. Mavzu boʻyicha "Tushunchalar tahlili" metodini tuzib kelish

“Tushunchalar tahlili” metodi

№	Tushunchalar	Tahlillar
1		
2		
3		
4		
5		
6		

Egilish.

O’quv mashg’ulotining ta’lim texnologiyasini modeli

9-mashg’ulot	Egilish
O’quv soati: 2soat	Tinglovchilar soni: 48
O’quv mashg’ulotining shakli:	Axborotli ma’ruza
Mashg’ulot rejasi:	1. Umumiy tushunchalar 2. Balka tayanchlarining turlari 3. Eguvchi moment va kesuvchi kuch 4. Eguvchi moment, kesuvchi kuch va eyilgan kuch intensivligi orasidagi differentsial boglanishlar
O’quv mashg’ulotining maqsadi:	Balkalarning egilish deformatsiyasini aniqlashni o’rganish.

Pedagog vazifalari: - Umumiy tushunchalarhaqida axborot berish - Balka tayanchlarining turlari to'g'risida ma'lumot berish - Eguvchi moment va kesuvchi kuch to'g'risida ma'lumot berish - Eguvchi moment, kesuvchi kuch va eyilgan kuch intensivligi orasidagi differentsial bog'lanishlar to'g'risida ma'lumot berish	O'quv faoliyatining natijalari: 1. Umumiy tushunchalar haqida ma'lumotga ega bo'ladi. 2. Balka tayanchlarining turlari haqida ma'lumotga ega bo'ladi. 3. Eguvchi moment va kesuvchi kuch haqida ma'lumotga ega bo'ladi. 4. Eguvchi moment, kesuvchi kuch va eyilgan kuch intensivligi orasidagi differentsial bog'lanishlar haqida ma'lumotga ega bo'ladi.
Ta'lim usullari:	Ma'ruza, tezkor so'rov, suxbat
Ta'lim vositalari:	O'quv qo'llanma, slaydlar
O'qitish shakllari:	Zamonaviy guruhlarda ishlash
O'qitish shart-sharoiti:	Guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya vatexnik vositalardan foydalanish
Manitoring va baholash	Nazorat sovellari

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

<i>Ishning bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchining</i>	Talabalarning
<i>1.Ma'ruzaga kirish (15daqiq)</i>	1.1 Maqsad va rejalashtirilgan o'quv mavzulari bilan tanishtirish. (1-ilova)	Diqqat qiladi. (1-ilova)
	1.2 Ma'ruza rejasi bilan tanishtiradi (2-ilova)	Tinglab yozib oldilar.(2-ilova)
	1.3 Talabalarga tezkor savollar berib bilimlari faollashtiriladi. (3-ilova)	Savollarga javob berdilar. (3-ilova)
	2.1 Umumiy tushunchalar (4-ilova)	Tinglab yozib oldilar. (4-ilova)
	2.2 Balka tayanchlarining turlari	Tinglab yozib

2.Asosiy qism (55 daqiqa)	(5-ilova)	oldilar (5-ilova)
	2.3 Eguvchi moment va kesuvchi kuch (6-ilova)	Talaba o'qituvchini tinglab (6-ilova)
	2.4 Eguvchi moment, kesuvchi kuch va yoyilgan kuch intensivligi orasidagi differentsial boglanishlar (7-ilova)	Tinglab yozib oladilar. (7-ilova)
	2.5 Talabalarga tezkor savollar berib bilimlarini faollashtirish. (8-ilova)	Savollarga javob berishadi. (8-ilova)
3.YAkunlovchi qism (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo'yicha yakuniy xulosa qilinadi. Muhim jihatlarga talabalar diqqatini jalb qiladi.	Tinglaydilar
	3.2 Mavzu yuzasidan berilidigan savollarga javob beradi.	Tinglaydilar
	3.3 O'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi va baholaydi.	Tinglaydilar
	3.4 Uyga vazifa beradi. Mavzu bo'yicha "Tushunchalar tahlili" metodini tuzib kelish (9-ilova)	Tinglab yozib oladilar. (9-ilova)

Mavzu: Egilish.

1-ilova

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Balkalarning egilish deformatsiyasini aniqlashni o'rganish.

2-ilova

Ma`ruza rejasi

1. Umumiy tushunchalar
2. Balka tayanchlarining turlari
3. Eguvchi moment va kesuvchi kuch
4. Eguvchi moment, kesuvchi kuch va eyilgan kuch intensivligi orasidagi differentsial boglanishlar

3-ilova

1. Buralishdan xosil bulgan urinma kuchlanishda formulasini ayting.
2. Buralishdagi mustaxkamlik shartini tenglamsida necha xil masala echiladi.

3. Kadami kichik vint prujinalarining mustahkamlik sharti tenglamasini yozib bering.
4. Prujinaning deformatsiyasini aniqlash formulasini yozing.

EGILISH.

4-ilova

Umumiy tushunchalar

Balkalar, ko'pincha, o'z o'qidan o'tuvchi biror tekislikda yotgan kuchlar yoki juft kuchlar ta'sirida bo'ladi va bu kuchlar sistemasi ta'sirida egiladi (1.1-shakl)


Bunday kuchlar ta'sirida Balkaning to'g'ri chizikli geometrik o'qi egri chiziqqa aylanadi. Sterjenning bunday deformatsiyasi egilish deyiladi. Egilishga qarshilik ko'rsatuvchi sterjenlarni **balkalar** deb ataladi. Balka kesimida hosil bo'ladigan zo'riqish kuchlarini aniqlash uchun kesish usulidan foydalanamiz.

Balkaga qo'yilgan yuklar uning simmetriya tekisligida yotsa, bunday egilish **tekis egilish** deyiladi. Aks holda qiyshiq egilish sodir bo'ladi.

Balkaga qo'yilgan tashki kuchlardan tashqari, tayanchlarning ham balkaga ta'siri tashki kuchlar qatoriga kiradi. SHuning uchun Balkalarning hisoblashni

tayanch reaksiyalarini aniklashdan boshlanadi.

5-ilova




SHakl 1

Balka tayanchlarining turlari

Tekislikda joylashgan balkalarga oid tayanchlar uch xil bo'ladi. Tayanchlarning bunday turlarini biz nazariy mexanika kursida batafsil o'rganib chikgan edik.

Ular quyidagilar:

- a) Qistirib maxkamlangan tayanch.
- b) Qo'zg'almas sharnirli tayanch;
- v) SHarnirli qo'zg'aluvchan tayanch;



Materiallar qarshiligi fanida ko'riladigan masalalar ikki xil bo'ladi: statik aniq va statik anikmas.


Agar balkaning tayanch reaksiyalari faqat statika tenglamalari yordamida aniqlansa, bunday balkalar **statik aniq balkalar** deyiladi.

Agar noma'lum reaksiyalar soni, shu balka uchun tuzilgan statika tenglamalari sonidan ortib ketsa, u holda, balkalar **statik anshmas balkalar** deyiladi. Bunday balkalarning reaksiyalarini aniklash uchun qo'shimcha tenglamalar (deformatsiya tenglamalari) tuzish lozim bo'ladi.

6-ilova

Eguvchi moment va kesuvchi kuch

Balkalarning turli kesimlaridagi kuchlanishlarni bilish uchun avval ularda hosil bo'ladigan zo'riqish



SHakl 2.1

(kuchdarini aniqlashni o'rganamiz) Istalgan ko'ndalang kesimdagi ichki kuchlarni bilish uchun kesish usulidan foydalanamiz, ya'ni Balkani chap tayanchidan x masofada mn tekislik bilan kesib, uni ikki bo'lakka ajratamiz. Ajratilgan kislardan birini (masalan o'ng kismini) tashlab yuborib, qolgan chap qismining muvozanatini tekshiramiz. Balkaning kesimiga tashlab yuborilgan kismning ta'sirini ifodalovchi kuchlarni qo'yamiz, bu kuchlar shu kesimdagi zo'riqish kuchlariga ekvivalent bo'ladi. Tekis sistema uchun zurikish kuchlari eng umumiy holda bir bosh vektor (R) bilan bir bosh moment (M_x) dan iborat buladi, bunda M_x - kuchlarni kesim markaziga kuchirishda hosil bo'lgan juft kuchlarning momentlarini algebraik yig'indisi. Zo'riqish kuchlaridan birini ifodalovchi juft kuch momenti **eguvchi moment** deyiladi. Eguvchi momentni M_x bilan belgilaymiz, zo'riqish kuchlari Q_x kesuvchi (ko'ndalang) kuch, kuchlarni aniqlash uchun muvozanatini tekshiramiz:

$$\sum X_K = N_x = 0 \text{ yoki } N_x = 0.$$

$$\sum M_O = R_A x - R_1 (x-a) - M_x = 0;$$

N_x esa bo'ylama kuch iborat. Bu balkaning qoldirilgan qismi
(1.1) $M_x = R_A x - R_1 (x-a).$


Bu erda N_x , Q_x va M_x larning ishoralari haqidagi chizmalarni doskada ko'rsatilib kelishib olinadi.

7-ilova

Eguvchi moment, kesuvchi kuch va yoyilgan kuch intensivligi orasidagi differentsial bog'lanishlar

SHaklda ko'rsatilgan balkaga intensivligi q ga teng bo'lgan ixtiyoriy yuklangan yoyilgan kuch bilan R to'plangan kuch qo'yilgan.

YOyilgan yukni teng ta'sir etuvchisini R bilan belgilab, balkani chap tayanchidan x hamda $x + dx$ masofada turgan kesimlardagi ichki kuchlarni tenglamasini tuzamiz.



$$Q_z = -A + P + R(a)$$

$$Q_z + dQ_z = -A + P + R + qdx \quad (\delta)$$

$$M_x = -A_x + P_{(x-a)} + R \cdot xq \quad (\epsilon)$$

$$M_x + dM_x = -A(x + dx) + P(x - a + dx) + R(xq + dx) + q \frac{dx^2}{2} \quad (\zeta)$$

(b) ifodadan (a) ifodani ayiramiz.

$$dQ_z = qdx \quad \text{bundan} \quad \frac{dQ_z}{dx} = q$$

xudi shuningdek (g) dan (v) ayiramiz.

$$dM_x = -Adx + pdx + Rdx = Q_z dx$$

$$\text{bundan} \quad \frac{dM_x}{dx} = Q_z$$

9-ilova

Uyga vazifa beradi. Mavzu bo'yicha "Tushunchalar tahlili" metodini tuzib kelish

"Tushunchalar tahlili" metodi

№	Tushunchalar	Tahlillar
1		

2		
3		
4		
5		
6		

Sof egilish
O'quv mashg'ulotining ta'lim texnologiyasini modeli

10-mashg'ulot	Sof egilish.
O'quv soati: 2soat	Tinglovchilar soni: 48
O'quv mashg'ulotining shakli:	Axborotli ma'ruza
Mashg'ulot rejasi:	1. Sof egilishdagi gipotezalar. 2. Sof egilishda xosil bo'ladigan kuchlanish. 3. Egilishga ishlayotgan balkalarning mustaxkamlik sharti.
O'quv mashg'ulotining maqsadi:	Balkaning sof egilishida uning kesim yuzalarida xosil bo'ladigan kuchlanishlarni aniqlashni o'rgatish
Pedagog vazifalari: - Sof egilishdagi gipotezalar xakida axborot berish. - Sof egilishda xosil bo'ladigan kuchlanish to'g'risida ma'lumot beradi. - Egilishga ishlayotgan balkalarning mustaxkamlik shartini izohlab beradi.	O'quv faliyatining natijalari: -Sof egilishdagi gipotezalar xakida axborotga ega bo'ladilar Sof egilishda xosil bo'ladigan kuchlanish to'g'risidama'lumotga ega bo'ladilar. - Egilishga ishlayotgan balkalarning mustaxkamlik shartini aytib beradilar.
Ta'lim usullari:	Ma'ruza, tezkor so'rov, suxbat.
Ta'lim vositalari:	O'quv qo'llanma, slaydlar
O'qitish shakllari:	Zamonaviy guruhlarda ishlash
O'qitish shart-sharoiti:	Guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya vatexnik vositalardan foydalanish
Manitoring va baholash	Nazorat sovellari

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi


Ishning bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchining	Talabalarning
1.Ma`ruzaga kirish (15daqiqqa)	1.1 Maqsad va rejalashtirilgan o'quv mavzulari bilan tanishtirish. (1-ilova)	Diqqat qiladi. (1-ilova)
	1.2 Ma`ruza rejasi bilan tanishtiradi (2-ilova)	Tinglab yozib oldilar.(2-ilova)
	1.3 Talabalarga tezkor savollar berib bilimlari faollashtiriladi. (3-ilova)	Savollarga javob berdilar. (3-ilova)
2.Asosiy qism (55 daqiqqa)	2.1 . Sof egilishdagi gipotezalar. (4-ilova)	Tinglab yozib oldilar. (4-ilova)
	2.2 Sof egilishda xosil bo'ladigan kuchlanish (5-ilova)	Tinglab yozib oldilar (5-ilova)
	2.3 Egilishga ishlayotgan balkalarning mustaxkamlik sharti. (6-ilova)	Tinglab yozib oldilar (6-ilova)
3.YAkunlovchi qism (10 daqiqqa)	3.1 Mavzu bo'yicha yakuniy xulosa qilinadi. Muhim jihatlarga talabalar diqqatini jalb qiladi.	Tinglaydilar
	3.2 Mavzu yuzasidan berilidigan savollvrga javob beradi.	Tinglaydilar
	3.3 O'quv mashg`ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi va baholaydi.	Tinglaydilar
	3.4 Uyga vazifa beradi. Mavzu bo'yicha "Tushunchalar tahlili" metodini tuzib kelish (7-ilova)	Tinglab yozib oladilar. (7-ilova)

Mavzu: SOF EGILISH

1-ilova


O'quv mashg`ulotining maqsadi: Balkaning sof egilishida uning kesim yuzalarida xosil bo'ladigan kuchlanishlarni aniqlashni o'rgatish

2-ilova



Ma`ruza rejasi

1. Sof egilishdagi gipotezalar.
2. Sof egilishda xosil bo'ladigan kuchlanish.
3. Egilishga ishlayotgan balkalarning mustaxkamlik sharti.

**Tezkor savollar:**

1. Tekis egilish deformatsiyasiga ta'rif bering
2. Balka tayanchlarining necha xili mavjud?
3. Tayanch reaksiya kuchlari qanday aniqlanadi?
4. Eguvchi moment va kesib o'tuvchi kuch haqida tushuncha bering.

MAVZU: SOF EGILISH**1. Sof egilishdagi gipotezalar.**

Agar balka simmetriya tekisligida yotgan qarama-qarsh yo'nalishdagi momentlar ta'sirda bulsa, u sof egilishga ishlaydi. Bu holda balka butun uzunligi bo'yicha bir xil egilishda bo'lib, uninp, kesim yuzalarida hosil blgan ichki kuchlar ham o'zgarmas miqdorg'a zga bo'ladi.

Sof egilish deformatsiyasidagi balkaning hisobi quyidagi gepotezalarga asoslanadi:

Deformatsiyagacha bo'lgan balkaning tekis ko'ndalang kesim yuzasi deformatsiya davrida ham tekisligicha qoladi.

Balkaning kundalang kesim yuzasi deformatsiya davrida qo'shni kesimga nisbatan ma'lum burchakka ogadi.


Balka sirtida, balka o'qiga ma'lum masofada parallel olingan tug'ri chiziqlar deformatsiya davrida ham oraliq masofalarini uzgartirmaydilar, faqat og'adilar.

Egilish davrida balkaning yuqori qavat tolalari cho'zilib, ostki qavat tolalari qisqaradilar.

To'g'ri turtburchak shakldagi kesim yuza deformatsiya davrida trapetsiya shakliga keladi (Cho'zilish qavat tomon eni torayib, siqilish qavat tomon eni kengayadi.)

6. Eguvchi moment yotgan simmetriya tekisligiga tik simmetrnya o'qidan o'tgan tekislikda yotgan qavat tolalari deformatsiya davrida cho'zilmaydilar ham, qisqarmaydilar ham, faqat egrilanadilar.

Cho'zilish va siqilish deformatsiyasidan holi bo'lgan qavatga neytral qavat deyiladi.

Sof egilishda hosil bo'ladigan kuchlanishlar

1. Sof egilishda xosil bo'ladigan kuchlanish.

Balkaning deformatsiyalanish va uning kesim yuzalarida hosil bo'lgan

Kuchlanishlarni aniqlash uchun kesim yuzasi geometrik o'qqa nisbatan simmetrik bo'lgan to'g'ri brusning egilishini ko'raylik.

Balka qarama-qarshi yo'nalishdagi ikki eguvchi moment ta'sirida yoki bir uchi qistirilgan holda bitta moment ta'sirida ham sof egilishi mumkin. SHu egilayotgan balkadan ikkita tekislik bilan ajratilgan dx uzunlikdagi elementar bo'lakchani deformatsiyalanishini ko'raylik.(44-shakl, b)

Deformatsiyalanish natijasida gipotezada ko'rsatilgani singari as va bd kesmalar bir-biriga nisbatan ma'lum df burchakka og'adi.

Og'ish burchagi va balkaning shu burchak ta'sirida deformatsiyalanishini yaqqol kurish uchun as kesmani qo'zgalmas deb qarab, bd kesmani esa $\alpha \varphi$ burchakka og'diramiz. Natijada bd , kesma $b'd'$ holatni oladi. (45-shakl). As va $b'd'$ kesmalarni ko'rsatuvchi chiziqlarni davom ettirsak, nuqta A da kesishib, balka neytral qavat tolalarining egrilik markazini beradi.

Neytral qavat (tp) dan egrilik markazi (A) gacha bo'lgan masofani r bilan belgilaymiz. Bu masofaga egrilik radiusi deyiladi.

Neytral qavatdan U masofada olingan qavatda e (tolaning deformatsiyalanishini ko'rsak, uni ef' ga davr chuzilganini ko'ramiz. (45-shakl). Bu qavat tolasining absolyut cho'zilishi ff' ga, nisbiy buylama cho'zilishi esa $\varepsilon = ff' / ef$ ga teng bo'ladi.

Tekshirilayotgan elementar bo'lakchani deformatsiyalanish chizmasidan uchburchak Δmn va uchburchak $\Delta n'f'$ larning o'xshashligi quyidagi bog'lanishlarni

$$\frac{f'n'}{y} = \frac{mn}{\rho} \quad \text{eksa} \quad \frac{f'n'}{mn} = \frac{y}{\rho}$$

beradi.


$$\text{Bundan } f'n' = \frac{Y}{\rho} \cdot mn$$

Va nihoyat nisbiy deformatsiya

$$\epsilon = \frac{f'n'}{ef} = \frac{Ymn}{\rho ef} = \frac{Y}{\rho}$$


Bunda $ef = mn$ olingan qavatdagi tolani deformatsiyalanishidan oldingi uzunligi.

$$\text{Demak } \epsilon = Y / \rho$$



Guk qonuniga binoan Cho'zilish yoki siqilish deformatsiyasi natijasida hosil bo'lgan nisbiy bo'ylama deformatsiya, materiallarning elastiklik chegarasida shu ondagi normal kuchlanish bilan quyidagicha bog'lanishga ega bo'ladi: $\sigma = E \epsilon$ yoki (1) formulaga asosan

(2)



45-shakl

(1) formuladan ko'rinadiki, balkaning bo'ylama tolalarida hosil bulgan normal kuchlanish neytral qavatga nisbatan joylanishga bog'liq bo'lar ekan, ya'ni oraliq «U» ga to'g'ri proporsional, Neytral qavat tolalarida kuchlanish nolga teng, bo'ladi. Neytral qavatdan pastki qavatga joylashgan tolalarda esa siqilish kuchlanishi hosil bo'ladi. Normal kuchlanishning balka kesim yuzasida oraliq u ga bogliq o'zgarishini ko'rsatadigan grafik epyurasi (45-shakl, b) da keltirilgan. SHaklga binoan normal kuchlanish formulasi quyidagicha ifodalanadi:

$$\sigma = E \cdot \epsilon = E \cdot \frac{Y}{\rho} \quad \text{yoki} \quad \sigma = \pm \frac{1}{\rho} E \cdot Y$$

(2), (3) formula kuchlanishni balka kesimi bo'ylab taqsimlanish harakterini kursatadi xolos, uning qiymatini topish uchun esa (3) formuladagi $1/\rho$ ni tashqi kuchga (eguvchi moment) bog'liqligini keltirib chiqarish kerak.

Buning uchun balka kesim yuzasida neytral qavatdan U masofada elementar yr yueachani olamiz. Bu yuzachada deformatsiya natajasida hosil bo'lgan ichki chuzuvchi normal kuch $dN = \sigma dF$ ga tengdir.

Tekshirilayotgan edementar bulakcha tashqi (M) moment va ichki dN kuchlar ta'sirida muvozanat holatida bo'lishi kerak. Statakaning muvozanatlik tenglamasini tuzamiz.

1). X uqiga nisbatan hamma kuchlarning proektsiya yig'indisini olamiz:

$$\sum N = \int_F dN = 0$$

$$\int_A dN = \int_A \sigma dF = - \int_F E \frac{Y}{\rho} dF = - \frac{E}{\rho} \int_F Y dF = 0, \frac{E}{\rho} \neq 0 \quad (4)$$

Bundan

tenglamaning nolga teng bo'lishi kerak, buning uchun $\int_F Y dF = S_y = 0$ Tekis shaklning neytral o'qi (2) ga nisbatan statik momenti.

Integral ostidagi qiymatning nolga teng bo'lishi neytral o'qni ko'ndalang kesim yuzaning og'irlik markazidan o'tganligini ko'rsatadi.

1. Elementar bo'lakdagi hamma kuchning ko'ndalang kesim yuza neytral

(2) o'qiga nisbatan momentlar yig'indisini olamiz. $\sum M_z = \int_F dN \cdot Y - N \cdot Y = 0$

$$M = \int_F dNY = \int_F \sigma \cdot dFY = \int_F E \frac{Y^2}{\rho} \cdot dF = \frac{E}{\rho} \int_F Y^2 dF \quad (5) \quad \int_F Y^2 dF = J_z$$

Bunda

-balka ko'ndalang kesim yuzasining neytral (2) o'qiga nisbatan inertsia momentini beradi. Demak (5) Formula quyidagi kurinishni oladi:

$$M = E/\rho \cdot J_z$$

bundan:

$$\frac{1}{\rho} = M / EJ_z$$

(6)

(6) formulani (2) ga qo'ysak, eguvchi momentning kuchlanish bilan bog'liq formulasi keltirib chiqariladi.

$\sigma = 1/\rho \cdot EY = M/EJ_z \cdot EY = M \cdot Y/J_z$ (7) (7) formuladan ham ko'rinib turibdiki, balka ko'ndalang kesimning neytral qavatdan qarama-qarshi tomon bo'ylab eng uzoq bo'lgan nuqtalarida maksimal kuchlanishlar sodir bo'lar ekan, ya'ni

$$\sigma_{\max} = \pm \frac{M}{I_z} \cdot y_{\max}$$

bunda $U_{\max}$ neytral qavatdan eng uzoqdagi qavat oralig'i masofasi $J_z/Y_{\max} = W_z$ - kesim yuzaning neytral o'qqa nisbatan qarshilik momenti ekanini e'tiborga olsak, egilishdagi maksimal normal kuchlanish formulasi quyidagicha ifodani oladi:

$$\sigma_{\max} = \pm M_{\max} / W_z [H/MM^2]$$

6 –ilova

Egilishga mustahkamlik sharti

Mustahkamlik sharti esa quyidagicha yoziladi:

$$\sigma_{\max} = \pm \frac{M}{W_z} \leq [\sigma]$$

Bu tenglamadan cho'zilish va siqilish deformatsiyasidagi singari 3 ta masala echiladi.

1. Har qanday yuklangan balkani normal kuchlanishga mustahkamligini tekshirish: $\sigma_{\max} \leq [\sigma]$

SHu shart qanoatlansa, balkaning mustahkamligi etarli deb hisoblanadi.

Balkaning yuk ko'tara olish hobiliyatini topish, ya'ni chidamli chegaradagi eguvchi momentni topish.

Loyiha hisobi yoki balka kesim razmerlarini topish. $W_z \geq M_{\max} / [\sigma]$

Bunda berilgan eguvchi momentta loyiq qarshilik ko'rsata oladigan kesim quyidagicha tanlanadi.

A) Agar balka to'rtburchak kesim yuzali bo'lsa, u vaqtda $W_z = \frac{bh^2}{6}$ bo'lib $b/h = s$ nisbati berilgan bo'lishi kerak.

Bularni o'rniga quyib, balka kesim raemerlari togshladi. $h = \sqrt[3]{6M_{\max} / c[\sigma]}$

b) Agar balka dumaloq kesim yuzali bo'lsa, u vaqtda ga $d = \sqrt[3]{6M_{\max} / 0.1[\sigma]}$ teng bo'lib, bo'ladi.

V) Agar balka qo'shtavr yoki shveller kesim yuzali bo'lsa aniqlangan W_z ga binoan GOST jadvalidan qo'shtavr yoki shvellerlarning nomerlari tanlanadi.

Masalan: $W_z = 159 \text{ cm}^3$ ga teng bo'lsa, 18a nomerli qo'shtavr balka (№18^a) yoki 20' nomerli (№20^a) shvellerli balka olinadi.

7-ilova

Uyga vazifa:

Mavzu bo'yicha "Tushunchalar tahlili" metodini tuzib kelish

№	Tushinchalar	Tahlillar
1		

**Ko'ndalang egilishdagi urinma kuchlanish
O'quv mashg'ulotining ta'lim texnologiyasini modeli**

11-mashg'ulot	Ko'ndalang egilishdagi urinma kuchlanish
O'quv soati: 2soat	Tinglovchilar soni:
O'quv mashg'ulotining shakli:	Axborotniy ma'ruza
Mashg'ulot rejasi:	1) Ko'ndalang egilishdagi urinma kuchlanish 2) To'g'ri to'rtburchak kesimli yuzadagi urinma kuchlanish. 3) Qo'shtavr kesim yuza uchun urinma kuchlanish 4. balkalarning normal va urinma kuchlanishlar bo'yicha mustaxkamlik sharti
O'quv mashg'ulotining maqsadi:	Ko'ndalang egilishdagi urinma kuchlanishni aniqlashni o'rgatish va balkalarning mustahkamligini urinma kuchlanish bo'yicha tekshirish to'g'risida ma'lumot berish
Pedagog vazifalari: 1) Ko'ndalang egilishdagi urinma kuchlanish to'g'risida ma'lumot berish 2) To'g'ri to'rtburchak kesimli yuzadagi urinma kuchlanish to'g'risida ma'lumot berish 3) Qo'shtavr kesim yuza uchun urinma kuchlanish to'g'risida ma'lumot berish 4. Balkalarning normal va urinma kuchlanishlar bo'yicha mustaxkamlik sharti to'g'risida ma'lumot berish	O'quv faliyatining natijalari: 1) Ko'ndalang egilishdagi urinma kuchlanish to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar. 2) To'g'ri to'rtburchak kesimli yuzadagi urinma kuchlanish to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar. 3) Qo'shtavr kesim yuza uchun urinma kuchlanish to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar. 4. Balkalarning normal va urinma kuchlanishlar bo'yicha mustaxkamlik sharti to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar.
Ta'lim usullari:	Ma'ruza, tezkor so'rov, suxbat
Ta'lim vositalari:	O'quv qo'llanma, slaydlar
O'qitish shakllari:	Zamonaviy guruhlarda ishlash
O'qitish shart-sharoiti:	Guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya vateknik vositalardan foydalanish
Manitoring va baholash	Nazorat sovellari

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

<i>Ishning bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchining</i>	Talabalarning
<i>1.Ma`ruzaga kirish (15daqiq)</i>	1.1 Maqsad va rejalashtirilgan o'quv mavzulari bilan tanishtirish. (1-ilova)	Diqqat qiladi. (1-ilova)
	1.2 Ma`ruza rejasi bilan tanishtiradi (2-ilova)	Tinglab yozib oldilar.(2-ilova)
	1.3 Talabalarga tezkor savollar berib bilimlari faollashtiriladi. (3-ilova)	Savollarga javob berdilar. (3-ilova)
<i>2.Asosiy qism (55 daqiqa)</i>	2.1 Ko'ndalang egilishdagi urinma kuchlanishlar (4-ilova)	Tinglab yozib oldilar. (4-ilova)
	2. Balkalarning mustahkamligini urinma kuchlanishga nisbatan tekshirish. (5-ilova)	Tinglab yozib oldilar (5-ilova)
	2.3 Burovchi moment epyuralari. (6-ilova)	Talaba o'qituvchini tinglab (6-ilova)
	2.4 Payvandli birikmalarni hisoblash (7-ilova)	Tinglab yozib oladilar. (7-ilova)
	2.5 Talabalarga tezkor savollar berib bilimlarini faollashtirish. (8-ilova)	Savollarga javob berishadi. (8-ilova)
<i>3.YAkunlovchi qism (10 daqiqa)</i>	3.1 Mavzu bo'yicha yakuniy xulosa qilinadi. Muhim jihatlarga talabalar diqqatini jalb qiladi.	Tinglaydilar
	3.2 Mavzu yuzasidan berilidigan savollvrga javob beradi.	Tinglaydilar
	3.3 O'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi va baholaydi.	Tinglaydilar
	3.4 Uyga vazifa beradi. Mavzu bo'yicha "Tushunchalar tahlili" metodini tuzib kelish (9-ilova)	Tinglab yozib oladilar. (9-ilova)

Mavzu: Ko'ndalang egilishdagi urinma kuchlanish

1-ilova

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Ko'ndalang egilishdagi urinma kuchlanishni aniqlashni o'rgatish va balkalarning mustahkamligini urinma kuchlanish bo'yicha tekshirish to'g'risida ma'lumot berish.

2-ilova

Ma'ruza rejasi

- 1) Ko'ndalang egilishdagi urinma kuchlanish
- 2) To'g'ri to'rtburchak kesimli yuzadagi urinma kuchlanish.
- 3) Qo'shtavr kesim yuza uchun urinma kuchlanish
- 4). Balkalarning normal va urinma kuchlanishlar bo'yicha mustaxkamlik sharti

3-ilova

Tezkor savollar:

1. Sof egilishdagi gipotezalar mohiyati nimalardan iborat?
2. sof egilish deformatsiyasi qanday sodir bo'ladi?
3. Sof egilishda xosil bo'ladigan normal kuchlanishni aniqlash formulasini ayting.
4. Egilishga ishlayotgan balkalarning mustaxkamlik hisoblari yordamida qanday masalar echiladi.


4-ilova

Ko'ndalang egilishdagi urinma kuchlanish

Biz yuqorida har xil eguvchi kuchlar ta'sirida balka kesim yuzasida eguvchi moment va kesib utuvchi kuch hosil bo'lishini va balkaning sof egiluvshi natijasida uning kesim yuzasida faqat normal kuchlanish sodir bo'lishi bilan tanishdik.

Normal kuchlanish eguvchi moment ta'sirida hosil bo'ladi. Kundalang kuch ta'siridan esa balka kesim yuzasida urinma kuchlanish hosil bo'ladi. Bu urinma kuchlanishlar kundalang kesim yuzasida hamda kuchlanishlarning juftlik qoidasiga ko'ra balkaning uzunligi bilan netral qavatga parallel bo'lgan kesimlarda sodir bo'lishidan foydalanib topiladi. Netral qavatga parallel tekislikdan hosil bo'ladigan urinma kuchlanishni ko'rish uchun, ikkita bir xil o'lchovdagi mustaqil balkani bir-

birini ustiga qo'yib, ikki tayanchga tirab (83 shakl) , kundalang kuch ta'sirida eksak ularning yon kesimlarining o'zgarganini ko'ramiz, ya'ni balka uzunlik bo'yicha neytral qavatga parallel tekislikda surilib qoladi.



Agar bu surilishni yo'q qilib ikkala balkani bir butun qilib olsak, surilish imkoniyatiga ega bo'lmagan qavatga urinma zuriqish sodir bo'lishini ko'rish qiyin emas. Bu hol kuchlanishning sodir bo'lishiga ya'ni yog'och burs egilishiga tekshirilganda bo'yiga qarab qalinlik oralig'idan yorilib ketishiga misol bo'la oladi. Urinma kuchlanishni kundalang kesim yuza bo'yicha taqsimlanish qonun va miqdorini topish uchun kundalang egilishga ishlayotgan to'g'ri turtburchak kesim yuzali balkani quyidagi ikkita gipotezaga asoslanib tekshiramiz.

1. Kundalang kesimlar hosil bo'ladigan urinma kuchlanishlar kesuvchi Q kuchga parallel yo'nalishda bo'ladi.

2. Kundalang kesimning neytral o'qdan teng masofada turgan barcha nuqtalarning urinma kuchlanishlari teng. YA'ni ular kundalik kesim eni bo'yicha tekis taqsimlanadi. (Juravskiy gipotezasi).

R kuch ta'sirida bo'lgan to'g'ri turtburchak kesim yuzali ikki tayanchga tiralgan balkaning (84 shakl, A) A tayanchdan X masofada uzunligi dx bo'lgan element ajratamiz.

Elementdan 1,2,3,4, lar bilan chegaralangan bo'lakchani neytral o'qdan Z masofada olamiz. Bo'lakchaga ta'sir qilayotgan kuchlar momentlar epyurasidan ma'lum M_x va $M_x + dM_x$ (85-shakl,a,b). Ulardan hosil bo'lgan normal kuchlanishlar:

$$\sigma' = M_x z / I_y \text{ va } \sigma'' = (M_x + dM_x) z / I_y.$$

Bunda $\sigma \rightarrow x$ masofada olingan 1 va 2 kesimdagi $\sigma'' = x + dx$ masofada olingan 3 va 4 kesimdagi normal kuchlanishlardir. Bu kesimlarda, bulardan tashqari Q_x kuch ta'sirida hosil bo'ladigan urinma (τ) kuchlanishlar ham mavjuddir. Ajratilgan elementning neytral o'qqa parallel $22' 33'$ tekisligida urinma kuchlanishga teng bo'ladi (urinma kuchlanishlarning juftlik qoidasiga binoan). Endi tekshirilayotgan elementlar 1,2,3,4 bo'lakchani yuqorida eslangan kuchlar ta'sirida muvozanatda bo'lish shartini tekshirib, urinma kuchlanishni topamiz. Buning uchun element tekisliklariga ta'sir qilayotgan kuchlarni belgilab olamiz. 1 va 2 kesimga ta'sir qiladigan normal kuch $N_1 = \int_{F_{1-2}} \sigma' dF$ 3 va 4 kesimga ta'sir

qilayotgan normal kuch: $N_2 = \int_{F_{3-4}} \sigma'' dF$. 22'33' kesim yuzaga ta'sir qilayotgan
urinma kuch:

$$T = \tau b dx.$$

Bu kuchlarni x o'qiga proektsiyalab, quyidagini topamiz:

$$\Sigma X = N_1 - N_2 + T = 0$$


yoki

$$\int_{F_{1-2}} \sigma' dF - \int_{F_{3-4}} \sigma'' dF - \tau b dx = 0.$$

Bu tenglamadagi σ' va σ'' larning o'rniga qiymatlarini yuqoridagi formulalardan keltirib qo'yamiz:

$$\int_{F_{12}} \frac{M_x}{I_y} z dF - \int_{F_{34}} \frac{M_x - dM_x}{I_y} z dF + \tau b dx = 0.$$

Bunda $\int_{F_{12}} z dF = S_y$ - kundalang kesimdan ajratilgan 1, 2, 2, 1



yuzaning neytral o'qqa nisbatan statik momenti. Buni e'tiborga olsak:

$$\frac{S_y}{I_y} (M_x - M_x - dM_x) + \tau b dx = 0,$$

bundan

$$\tau b dx = dM_x \frac{S_y}{I_y}$$

yoki

$$\tau = \frac{S_y dM_x}{b I_y dx}.$$

Bu formuladagi dM_x balkaning dx uzunligidagi eguvchi momentlarining orttirmasi bo'lib, u shu elementdagi ko'ndalang kesuvchi kuchni beradi, ya'ni:

$$\frac{dM_x}{dx} = Q_x.$$

$\tau = \frac{Q_x S_y}{b I_y}$ ekani kelib chiqadi.

Bunda τ – ko'ndalang kesimning ixtiyoriy nuqtasidagi urinma kuchlanish; Q_x – tekshirilayotgan ko'ndalang kesimdagi kesuvchi kuch; S_y ko'ndalang kesimning neytral o'qqa nisbatan statik momenti; b – urinma kuchlanish topiladigan qatlamdagi kesimning eni; I_y – ko'ndalang kesimning u o'qiga nisbatan inertsia momenti.

Urinma kuchlanishni topish formulasini birinchi bo'lib rus olimi D.I. Juravskiy yaratgan. SHuning uchun bu formula uning nomi bilan yuritiladi.

5-ilova

To'g'ri to'rtburchak kesimli yuzadagi urinma kuchlanish.

Berilgan kesim yuzaning eni b , balandligi h bo'lsin (84-shakl, b). Kesim yuzada neytral o'qdan z masofada dz qalinlikdagi elementlar yuza dF ni b ga teng uzunlikda lenta shaklida olamiz. So'ngra statik moment S_y ni shu elementar yuzachaning z bo'ylab o'zgarish qonunini aniqlaymiz, ya'ni

$$S_y = \int_F z dF = \int_z^{\frac{h}{2}} z b dz = \frac{bh^2}{8} \left(1 - \frac{4z^2}{h^2} \right),$$

bunda $dF = b dz$ ekani shakldan ko'rinadi va kesim yuzaning neytral o'qqa nisbatan inertsia momenti $I_y = \frac{bh^3}{12}$ ekanini e'tiborga olib Juravskiy formulasini yozamiz.

$$\tau = \frac{Q_x S_y}{b I_y} = \frac{Q \left(\frac{bh^2}{8} \right)}{\frac{b \cdot bh^3}{12}} \left(1 - \frac{4z^2}{h^2} \right) = \frac{3Q}{2bh} \cdot \left(1 - \frac{4z^2}{h^2} \right),$$

bunda z neytral o'qdan ajratilgan elementar yuza oralig'i bo'lib, u $\sigma \div \frac{h}{2}$ oralig'ida

o'zgaradi, ya'ni $0 \leq z \leq \pm \frac{h}{2}$ bo'ladi. Agar $z = 0$ bo'lsa, $\tau = \frac{3Q}{2bh} = \tau_{\max}$, $z = \pm \frac{h}{2}$

bo'lsa, $\tau = \frac{3Q}{2bh} \cdot \left(1 - \frac{4h^2}{4h^2} \right) = 0$ bo'ladi.

Kesim yuzasining kuchlanish epyurasidan eng kata kuchlanish neytral o'q ustiga tushishini ko'ramiz (84-shakl v).

6-ilova

Qo'shtavr kesim yuza uchun urinma kuchlanish.

Qo'shtavr kesim yuza uchta alohida olingan to'g'ri oddiy to'rtburchakdan tuzilgan bo'lib, pastki va yuqoriga tokcha va ularni tushuntirib turuvchi devordan iboratdir (85- shakl). SHuning uchun kesim yuzada hosil bo'ladigan urinma kuchlanish to'g'ri to'rtburchak kesim yuzaga chiqarilgan urinma kuchlanish formulasidan foydalanib, tokcha uchun alohida va devor uchun alohida topiladi: $\tau = Q_x S_y / b I_y$.

$$\text{bundan } s_y = \frac{h^2 b}{8} \left(1 - \frac{4 z_r^2}{h^2} \right);$$

I_y –qo'shtavr kesim yuzasining u o'qiga nisbatan qo'ysak, qo'shtavr tokchasi uchun quyidagi qiymatni topamiz: $\tau_r = \frac{Q h^2}{8 I_y} \left(1 - \frac{4 z_r^2}{h^2} \right)$.


Bunda: $h_1/2 \leq z_T \leq h/2$.

Agar $z_T = \pm h_1/2$ bo'lsa, $\tau_{r_2} = \frac{Q h^2}{8 I_y} \left(1 - \frac{4 z_1^2}{4 h^2} \right)$; $z_T = \pm \frac{h}{2}$ bo'lsa, $\tau_{T1} = 0$ (a).

Qo'shtavr devori uchun: $\tau_g = \frac{Q h^2 b}{8 I_y} \cdot \sigma \cdot \left(1 - \frac{4 z_g^2}{h^2} \right)$. Bunda $0 \leq z_g \leq \pm h_1/2$. Agar

$$z_g = \pm h_{1/2} \text{ bo'lsa, } \tau_g = \frac{Q h^2 b}{8 I_y \delta} \left(1 - \frac{4 z_1^2}{4 h^2} \right) \text{ (b). (a) va (b) formulalardan } \tau_g = \tau_r \cdot \frac{b}{\delta}$$

ifodani hosil qilamiz. $z_g = 0$ bo'lganda $\tau_g = \frac{Q h^2 b}{8 I_y \delta} = \tau_{\max}$ ga erishadi.



τ_T va τ_g larning qiymatlari uchun qurilgan epyuralardan (85 shakl, b) maksimal urinma kuchlanish neytral o'qda yotgan kesimga to'g'ri kelishini ko'ramiz.

Aylanma kesim yuza uchun urinma kuchlanish quyidagicha topiladi:

$\tau = \frac{Qr^2 \sin \varphi}{3I_y}$, bunda $I_y = \frac{\pi r^4}{4}$. Burchak φ quyidagi oraliqda o'zgaradi:

$$0 \leq \varphi \leq \pi/2. \text{ Agar } \varphi = 0 \text{ bo'lsa, } \tau = 0, \varphi = \pi/2 \text{ bo'lsa, } \tau = \frac{Qr^3}{\frac{3\pi r^4}{4}} = \frac{4Q}{3\pi r^2} = \frac{4Q}{3F}.$$

Aylana ksım yuza uchun epyura qursak. Neytral o'q tekisligida egilishda urinma kuchlanishning maksimal qiymatga erishganini ko'ramiz (86-shakl).

Balkalarning mustaxkamligini normal va urinma kuchlanishlar bo'yicha tekshirish

Biz yuqorida balkalarning kesim yuzalarida hosil bo'ladigan normal va urinma kuchlanishlarga etarli qarshilik ko'rsatishi uchun, uning kesim yuzasida hosil bo'ladigan maksimal normal va urinma kuchlanishlar balka materiali uchun ruxsat etilgan normal va urinma kuchlanishlardan ortib ketmasligi to'g'risida gap yuritgan Edik. Bu shart egilishga va kesilishga mustahkamlik sharti deb nomlanadi va quyidagicha ifodalanadi:

$$\sigma_{\max} = \frac{M_{\max}}{W} \leq [\sigma]; \quad \tau_{\max} = \frac{Q_{\max} S_y}{b I_y} \leq [\tau].$$

Bunda $M_{\max}$ – balka kesim yuzasidagi eng katta eguvchi moment (momentlar epyurasidan olinadi), W – egilishning neytral o'qqa nisbatan qarshilik momenti, $Q_{\max}$ – balka kesim yuzasidagi eng katta ko'ndalang kuch (ko'ndalang kuchlar epyurasidan olinadi), S_y – balka kesim yuzasining neytral o'qqa nisbatan o'qdan yuqoridagi o'qqa nisbatan inertiya momenti, b – balka kesim yuzasining eni.

Mustahkamlik sharti formulasidan balkaning mustahkamligini ta'minlovchi kesim yuza o'lchovlari topiladi. Egilishga mustahkamlik shartidan kesim o'lchovlarini topish metodi bilan balkani sof egilishga tekshirganda tanishgan edik. Endi balkaning kesilishiga mustahkamlik shartidan to'g'ri to'rtburchak kesim yuza o'lchovlarini topish bilan tanishamiz. To'g'ri to'rtburchak kesim yuzaning maksimal urinma kuchlanishi bizga ma'lum bo'lib, uning mustahkamlik ifodasi quyidagicha:

$$\tau_{\max} = \frac{3Q}{2F} \leq [\tau],$$

bunda $F=bh$ kesim yuza bo'lib, uni topish uchun kesim o'lchovlarining nisbati berilgan bo'lishi kerak, ya'ni: $h/b=C$ va $F=cb^2$ bo'lib, $\frac{3Q_{\max}}{2cb^2} \leq [\tau]$, bunda

$$b = \frac{\sqrt{3Q_{\max}}}{2c[\tau]}.$$

“Tushunchalar tahlili” metodi

№	Tushinchalar	Tahlillar
1		
2		
3		
4		
5		
6		
7		

Murakkab kuchlanish xolati O'quv mashg'ulotining ta'lim texnologiyasini modeli

--	--

12-mashg`ulot	Murakkab kuchlanish xolati
O`quv soati: 2soat	Tinglovchilar soni: 48
O`quv mashg`ulotining shakli:	Axborotli Ma`ruza
Mashg`ulot rejasi:	1) CHo`zilish va siqilishdagi sterjenlarning qiya tekisliklarida hosil bo`lgan kuchlanishlar 2) Bosh kuchlanishlar 3) Mustahkamlik nazariyalari
O`quv mashg`ulotining maqsadi:	Ichki kuchlar, kuchlanishlarni aniqlash va aniqlashni o`rgatish Deformatsiya turlari haqida ma`lumot berish.
Pedagog vazifalari: -.CHo`zilish va siqilishdagi sterjenlarning qiya tekisliklarida hosil bo`lgan kuchlanishlar to`g`risida ma`lumot berish -. Bosh kuchlanishlar haqida tushuncha berish - Mustahkamlik nazariyalari haqida tushuncha berish	O`quv faliyatining natijalari: -.CHo`zilish va siqilishdagi sterjenlarning qiya tekisliklarida hosil bo`lgan kuchlanishlar to`g`risida ma`lumotga ega bo`ladi. -. Bosh kuchlanishlar haqida tushunchaga ega bo`ladilar. - Mustahkamlik nazariyalari haqida tushuncha ga ega bo`ladilar.
Ta`lim usullari:	Ma`ruza, tezkor so`rov, suxbat
Ta`lim vositalari:	O`quv qo`llanma, slaydlar
O`qitish shakllari:	Zamonaviy guruhlarda ishlash
O`qitish shart-sharoiti:	Guruhlarda ishlash uchun mo`ljallangan auditoriya vatexnik vositalardan foydalanish
Manitoring va baholash	Nazorat sovellari

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi


<i>Ishning bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchining</i>	Talabalarning
<i>1.Ma`ruzaga kirish (15daqiqqa)</i>	1.1 Maqsad va rejalashtirilgan o'quv mavzulari bilan tanishtirish. (1-ilova)	Diqqat qiladi. (1-ilova)
	1.2 Ma`ruza rejasi bilan tanishtiradi (2-ilova)	Tinglab yozib oldilar.(2-ilova)
	1.3 Talabalarga tezkor savollar berib bilimlari faollashtiriladi. (3-ilova)	Savollarga javob berdilar. (3-ilova)
<i>2.Asosiy qism (55 daqiqa)</i>	2.1 CHO'zilish va siqilishdagi sterjenlarning qiya tekisliklarida hosil bo'lgan kuchlanishlar (4-ilova)	Tinglab yozib oldilar. (4-ilova)
	2. Bosh kuchlanishlar (5-ilova)	Tinglab yozib oldilar (5-ilova)
	2.3 Mustahkamlik nazariyasi haqida tushuncha. (6-ilova)	Talaba o'qituvchini tinglab (6-ilova)
<i>3.YAkunlovchi qism (10 daqiqa)</i>	3.1 Mavzu bo'yicha yakuniy xulosa qilinadi. Muhim jihatlarga talabalar diqqatini jalb qiladi.	Tinglaydilar
	3.2 Mavzu yuzasidan berilidigan savollvrga javob beradi.	Tinglaydilar
	3.3 O'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi va baholaydi.	Tinglaydilar
	3.4 Uyga vazifa beradi. Mavzu bo'yicha "Tushunchalar tahlili" metodini tuzib kelish (7-ilova)	Tinglab yozib oladilar. (7-ilova)

Mavzu: Murakkab kuchlanish xolati

1-ilova

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Murakkab kuchlanish xolatidagi sterjenlarni hisoblashni o'rganish.

2-ilova




Ma'ruza rejasi

- 1) CHo'zilish va siqilishdagi sterjenlarning qiya tekisliklarida hosil bo'lgan kuchlanishlar
- 2) Bosh kuchlanishlar
- 3) Mustahkamlik nazariyasi haqida tushuncha.

3-ilova

Tezkor savollar




1. Balkaning neytral qavatiga parallel kesimlarida qanaqa kuchlanish hosil bo'ladi?
2. Urinma kuchlanish formulasini ayting ?
3. Urinma kuchlanish formulasini qaysi olim tomonidan birinchi bo'lib topilgan?
4. Eng katta urinma kuchlanish balkaning qaysi o'qida hosil bo'ladi?

4-ilova

CHo'zilish va siqilishdagi sterjenlarning qiya tekisliklarida hosil bo'lgan kuchlanishlar

CHo'zilishga ishlayotgan sterjenni ko'ndalang kesimga biror α burchakda π tekisligi bilan kesamiz.



Sterjenning ko'ndalang kesimini F qiya kesimining yuzasini $F \alpha$ deb belgilaymiz. Uni qiyidagicha aniqlaymiz.

$$F \alpha = \frac{f}{\cos \alpha};$$

Sterjenning qiya kesimida xosil bo'lgan umumiy kuchlanish R

$$P = \frac{Q}{F \alpha} = \frac{P \cdot \cos \alpha}{F} \cdot \delta \cdot \cos \alpha$$

Umumiy kuchlanish qiymati α burchagiga bog'liq ekan α - burchagi qanchalik kichik bulsa umumiy kuchlanish qiymati shunchalik kata bo'ladi. Umumiy


kuchdanishni 2-ta tashkil etuvchi normal (σ) va urima (τ) urinma kuchlanishga ajratamiz.

YUqoridagilardan ko'rinadiki sterjenning istalgan qiya kesimida normal vaurinma kuchlanishlar xosil bo'ladi.

5-ilova

Bosh kuchlanishlar

Bosh kuchlanishlar xaqida tushunchalar sterjenning istalgan nuqtasida bir-biriga tik yo'nalgan uchta bosh yuzaga o'tkazish mumkin. Bu yuzalarga uchta bosh kuchlanish ta'sir qiladi. Sterjenning istalgan nuqtasida uchta bosh yuzasi bilan cheklangan elementlar kubik ajratamiz.



$\tau = 0$ bo'lgan yuzalar bosh yuzalar deyiladi. Bosh yuzasida hosil bo'lgan kuchlanishlarni, bosh kuchlanishlar deyiladi. Ajratilgan kubikning tomonlariga bir-biriga ikkita bosh normal kuchlanishlar ta'sir qilsa, sterjen tekis kuchlanish holatida bo'ladi. Agar ajratilgan kubning bir-biriga tik bo'lgan uchala tomoniga bosh normal kuchlanishlar ta'sir qilsa, sterjen murakkab kuchlanish xolatida bo'ladi.

6-ilova

3. Mustahkamlik nazariyalari haqida tushuncha.

Murakkab kuchlanish holatida bo'lgan materialning xolatida bo'lgan materiallarning mustahkamlik xarakteristikalarini tajribalar yordamida aniqlash mumkin emas. SHuning uchun ham mustaxkamlik nazariyasini yaratish talab qilinadi. Bu mustaxkamlik nazariyasi yordamida murakkab kuchlanish xolatida bo'lgan materialning shunga ekvivalent oddiy kuchlanish bo'yicha aniqlash mumkin bo'ladi.

MASALAN: cho'zilish yoki siqilish materiallarni xavfli xolatini boshlanishiga qanday faktorlar ta'sir qiladi. SHunday qilib mustaxkamlik nazariyasini vazifasi: Murakkab kuchlanish xolatida bo'lgan materiallarning emirilish sabablarini tushintirib berishdir.

Mustahkamlik nazariyalari

1. Birinchi mustahkamlik nazariyasi yoki eng katta normal kuchlanishlar nazariyasi deyiladi.
2. Ikkinchi mustahkamlik nazariyasi yoki eng katta chiziqli deformatsiya nazariyasi deyiladi.
3. Uchinchi mustahkamlik nazariyasi yoki eng katta urinma kuchlanishlar nazariyasi deyiladi.
4. Turtinchi mustahkamlik nazariyasi yoki energetik potentsial energiya shakl o'zgarishi nazariyasi deyiladi.

Biz ilgari oddiy cho'zilish yoki sikilishda sterjenlarning mustahkamlik shartini qo'yidagicha yozgan edik:

$$\sigma_{\max} = \frac{N_{\max}}{F} \leq [\sigma]$$

Bunda mo'rt materiallar uchun ruxsat etilgan kuchlanish

$$[\sigma] = \frac{\sigma_t}{n} \text{ plastik materiallar uchun ruxsat etilgan}$$

kuchlanish $[\sigma] = \frac{\sigma_t}{n}$ formulalaridan topilishi o'qtirib, o'tilgan edi.

Bu holda σ_v va σ_{oq} larni tajriba asosida aniklanishi mumkin. Lekin murakkab kuchlanish holatida bunday tajribalar o'tkazilishi kiyin bo'ladi.

Mustahkamlik shartlarini tuzishda uchta bosh kuchlanish va chekli σ_v yoki σ_{oq} kuchlanishlar orasidagi funktsional boglanish turini aniklovchi gipotezalarga asoslanadi.

Murakkab kuchlanish holatiga tegishli biror miqtsorni chizikdi kuchlanish holati uchun tajribadan topilgan tegishli miqtsorlar bilan solishtirish usullarini izlash kerak bo'ladi; bu usullarni topishda yurgizilgan mulohazalar mustahkamlik nazariyalari deyiladi. Bu nazariyalardan 4 tasini ko'rib chiqaylik.

Mustahkamlikning birinchi nazariyasi. Bu nazariyani XVII asarda Galiley maydonga tashlagan. U eng katta normal kuchlanish nazariyasi deb ham ataladi.

Birinchi nazariyaning mohiyati quyidagilardan iborat: murakkab kuchlanishdagi detalning havfli holati unda hosil bo'ladigan eng katta normal kuchlanish shu jism materialidan yasalgan namunaning oddiy cho'zilishi yoki siqilishidagi xavfli holatiga tegishli normal kuchlanishga etganda boshlanadi.

Demak, bu nazariyaga ko'ra, murakkab kuchlanish holatidagi detalning emirilishi quyidagi shart bajarilgandagina boshlanadi:

mo'rt materiallar uchun $\sigma_1 = \sigma_m$,

plastik materiallar uchun $\sigma_1 = \sigma_{oq}$,

bunda σ_m – materialning chiziqli kuchlanish holatdagi mustahkamlik chegarasi; σ_{oq} – oquvchanlik chegarasi.

Detalning mustahkamlik shartini yozish uchun yuqoridagi ikkala formulaning o'ng tomonini ehtiyot koeffitsientiga bo'lish kerak:

$$\sigma_1 = \frac{\sigma_M}{K} \text{ eku } \sigma_1 \leq [\sigma]$$

Birinchi nazariyaga ko'ra, plastik materialdan yasalgan namuna har tomonlama siqilganda unda hosil bo'ladigan oquvchanlik chegarasi oddiy cho'zilgan sterjenning oquvchanlik chegarasiga tenglashib qoladi. Holbuki, namuna har tomonlama siqilganda oddiy cho'zilgan sterjen bardosh bera oladigan kuchlanishga qaraganda bir necha marta ortiq kuchlanishga bardosh bera olishi tajribada isbotlanagan.

Mana shu nuqtai nazardan ham bu nazariyani plastik materiallar uchun to'g'ri kelmasligi tushuntiriladi. Murakkab cho'zuvchi kuchlanish holatida bo'lgan va mo'rt materiallardan yasalgan detallar uchun birinchi nazariya natijalarining to'g'ri ekanligi tajribada tasdiqlangan.

Mustahkamlikning ikkinchi nazariyasi. Bu nazariyani birinchi bo'lib Mariott taklif qilgan. Ikkinchi nazariya eng katta nisbiy cho'zilishga asoslanadi. Bu nazariyaning mohiyati quyidagilardan iborat: murakkab kuchlanish holatidagi detalda havfli xolat uning eng katta nisbiy cho'zilishi (siqilishi) shu detal materialidan yasalgan namunaning oddiy cho'zilishdagi xavfli xolatiga tegishli nisbiy cho'zilishga etganda boshlanadi. Hajmiy kuchlanish holatidagi eng katta nisbiy cho'zilish $\varepsilon_{\max}$ bu formulaga binoan $\varepsilon_{\max} = \frac{\sigma_1 - \sigma_3}{2}$ quyidagicha yoziladi:

$$\varepsilon_{\max} = \varepsilon_1 = \frac{1}{E} [\sigma_1 - \mu (\sigma_2 + \sigma_3)].$$

Chiziqli kuchlanish holatida namunaning emirilish paytidagi eng katta nisbiy cho'zilishi esa bunday yoziladi:

$$\varepsilon_{\max} = \frac{\sigma_M}{E}.$$

Agar hajmiy va chiziqli kuchlanish holatlari uchun elastiklik modullari bir xil bo'ladi deb hisoblasak, u holda murakkab kuchlangan sterjenlarning emirilish sharti bunday yoziladi:

$$\sigma_{\text{ekv}} = \sigma_1 - \mu (\sigma_2 + \sigma_3). \quad (\text{A})$$

SHuning uchun mustahkamlik sharti quyidagicha yoziladi:

$$\sigma_1 - \mu (\sigma_2 + \sigma_3) \leq [\sigma].$$

Bu nazariyaning natijalari ham ba'zi tajribalarning oqibatiga ziddir. Birinchidan bog'lanish (A) ni chiqarganda elastiklik moduli (E) ikkala kuchlanish holatida ham jism emirilguncha bir xil qolishi ko'zda tutiladi, bu narsa uncha to'g'ri bo'lmay, g'oyat taxminiydir. Ikkinchidan, bu nazariyada real materiallarning tuzilishi hisobga olinmaydi.

Mustahkamlikning uchinchi nazariyasi. Plastik holatda bo'lgan va emirilishi siljish tufayli vujudga keladigan materiallar uchun birinchi va ikkinchi nazariyalar to'g'ri kelmaydi. SHu sababli Kulon uchunchi nazariyani maydonga tashladi. Bu nazariyaga ko'ra, murakkab kuchlanish holatdagi detalda xavfli vaziyat undagi maksimal urinma kuchlanish shu detal materialidan yasalgan

namunaning oddiy cho'zilishdagi xavfli vaziyatiga tegishli urinma kuchlanishga etganda boshlanadi.

Hajmiy kuchlanish holatida maksimal urinma kuchlanish $\tau_{\max} = \frac{\sigma_1 - \sigma_3}{2}$ formuladan, chiziqli kuchlanish holatida esa maksimal urinma kuchlanish $\tau_{\max} = \frac{\sigma_1}{2}$ formuladan hisoblab topilgani uchun uchunchi nazariya quyidagicha yoziladi (ikala kuchlanish xolatdagi plastik deformatsiyalarning boshlanish davri):

$$\tau_{\max} \leq [\tau],$$

bunda $[\tau] = \frac{\sigma_{ok}}{2K}$ bo'lganidan mustahkamlik sharti bunday yoziladi:

$$\sigma_1 - \sigma_3 \leq [\sigma].$$

Uchunchi nazariyaning kamchilligi shundaki, bu nazariyada ham birinchi va ikkinchi nazariyadagi kabi, detal materialning tuzilishini (strukturasi) hisobga olinmaydi. Bundan tashqari, o'rtacha kuchlanish (σ_2) ning tasiri ham hisobga olinmaydi. Materialning ishlash sharoitini o'zgartirmay, σ_2 ni σ_1 bilan σ_3 orasida istalgancha o'zgartira olamiz, bu hol albatta shubha tug'diradi. Bu nazariyaning ham natijalari tajribalarda ko'pincha tasdiqlanmaydi.

Tajriba 5 tonnali universal vintovoy mashinada utkaziladi, bu mashinada chuzilish eki sikilish diogrammasi xosil kiladigan apparat buladi. Tajriba boshlashdan avval namunaning xisob uzunligi va kesimining diametri anik ulchanib, loabaratoriya jurnaliga


Ezilishi va namunaning eskizi chizilishi lozim. Namuna mashina kiskichlariga maxkamlanib, chuzuvchi kuch asta sekin oshirib boriladi.

Sinash vaktida mashinaning kuch ulchash asbobidan okuvchanlik chegarasiga tegishli chuzuvchi R_{OK} kuch bilan namunaning uzilishidan oldingi maksimal R_m kuch kayd kilinadi. Namuna uzilgandan keyin tajriba tugaydi.

CHuzilish diogrammasi



Grafikadagi tugri chizik kesmasi kuch bilan absolyut chuzilish orasida tugri prorsionallik konuni borligini kursatadi . Bu chizik Guk konunining grafik ifodasidir . Bu tugri proportsionallik boglanishning chegarasi yumshok pulat uchun 2000 kg/sm^2 gacha boradi, namunaning bunday kuchlanish xolati diogrammada A nukta bilan kursatilgan, bu kuchlanish materialning proportsionallik chegarasi deyiladi. Bu chegaradan salgina yukorida elastiklik chegarasiga tegishli nukta V etadi. Bu nuktaga tegishli normal kuchlanish elastiklik chegarasi deyiladi. Bu chegaradan pastda namunada fakat plastik (yukoluvchi) deformatsiya xosil buladi, kuchlanish undan yukori bulsa xam elastik, xam koldik deformatsiya xosil buladi. Kuchlanish proportsiallik chegarasiga erishgandan boshlab , deformatsiya kuchlanishga karaganda tezrok usa boshlaydi. SHundan keyin grafik ung tomonga burila boshlaydi va tez orada kuchlanish usmasa xam deformatsiya usa boradi, ya`ni grafikada gorizonta chizik xosil buladi. Bu xolatga tugri kelgan kuchlanish okuvchanlik chegarasi deyiladi va σ_{ok} bilan belgilanadi. Bu chegaradan yuk oshmasa xam deformatsiya davom etadi. St.3 markali pulat uchun uning kiymati $\sigma_{ok}=2400 \text{ kg/sm}^2$ dir. Kuchlanish bu chegaraga erishganda materialning tuzilishi sifat jixatidan uzgaradi, ya`ni sillik sirti xiralashib chiziklar bilan koplanadi. Bu chiziklar namuna ukiga 45° ga yaqin burchaklar ostida kiya buladi va chuzuvchi kuch orttirilgan sari ular kalinlasha borib , 5- shaklida kursatilgandek, namuna sirtini ikki tomonlama koplay boshlaydi.



5 - shakl

Bu chiziklarni, eng avval CHernov va Lyuders degan olimlar topgani uchun, ular CHernov chiziklari deyiladi.

Okish chegarasidan keyin materialning karshilik kursatish kobiliyati yana usa boshlaydi, ya`ni material mustaxkamlanadi. Namunaning chuzilishini davom ettirish uchun chuzuvchi kuchni kupaytirish kerak buladi.

Diagrammaning eng yukori nuktasi D va kuchlanish eng katta kiymatga erishadi, bu kuchlanish mustaxkamlik (σ_m) chegarasi deyiladi. Bu kuchlanishga tegishli yuk uzuvchi eki maksimal yuk (R_m) deb ataladi.

Kuchlanish mustaxkamlik chegarasiga erishish oldida namunaning biror joyida “buyin” xosil bula boshlaydi. (4-shakl,b).

Kuchlanish mustaxkamlik chegarasiga erishganda, buyin ingichkalanadi, namuna tezda uziladi. Uzilish diagrammaning D nuktasiga mos kelmay, undan keyinda keyinda yotuvchi boshka bir K nuktaga mos keladi. Kuramizki , D nuktadan keyin kuchlanish ozayib, deformatsiya juda tez usayotir. Namunadagi kuchlanish D nuktaga tegishli kiymatga erishganda , uning karshilik kursatish kobiliyati

Tugaydi. D nuktadan keyin deformatsiya xech kandy kuchlanishsiz davom etadi va nixoyat , namuna K nuktada uziladi. Namuna uzilganda

Diagramma chizaetgan kalamning uchi K nuktadan, yana OA ga parallel chizik chizib, O₂ ga kelib tuxtaydi. K ning abstsissasidagi proektsiyasini K` desak, O<sub>2</sub> K`=Ee namuna uzilishi bilanok yukolgan

Elastik deformatsiyani tasvirlaydi.

OK`- tulik deformatsiya.

OO₂- koldik deformatsiya.

O₂K`- elastik deformatsiya.

TAJRIBA NATIJALARINI YAKUNLASH.

1. Namuna materialining proportsionallik chegarasi (σ_n) okuvchanlik chegarasi (σ_{ok}) mustaxkamlik chegarasi (σ_M) materialining mustaxkamlik xarakteristikalari deyiladi. Bularni aniklash uchun R_n , R_{ok} , R_m ni (bu mikdorlarni chuzilish diagrammadan bevosita topish xam mumkin) namunaning boshlangich kundalang kesimi yuziga bulish kerak, ya`ni:

$$\sigma_n = \frac{P_n}{F}; \quad \sigma_{ok} = \frac{P_{ok}}{F}; \quad \sigma_M = \frac{P_M}{F};$$

2. Uzilgan namunaning bulaklari bir-biriga yaxshilab ulangandan keyin uning ikki chetki chizik orasidagi xisobga olinadigan masofa bilan xosil bulgan buyin kesimining diametri ulchanadi. Keyin yumshok pulatning plastiklik xarakteristikolari aniklanadi, ya`ni
- a) nisbiy koldik chuzilish .

$$\delta = \frac{\Delta \ell}{\ell} \cdot 100 \% ; \quad \Delta \ell = \ell_1 - \ell$$

$$\delta = 8 \div 28 \%$$

bunda ℓ - namunaning sinashdan oldingi uzunligi;

ℓ_1 - namunaning uzunligidan keyingi uzunligi.

- b) Nisbiy koldik ingichkalanish.

$$\psi = \frac{F - F_1}{F} \cdot 100 \% ; \quad \psi = 35 \div 60 \%$$

bunda – F – namunaning sinashdan oldingi kundalang kesimi yuzi

F_1 – namunaning uzilgandan keyingi kundalang kesim yuzi.

Namunani xar bir kertik orasidagi nisbiy koldik chuzilishni topib namunani uzunligi buyicha bu deformatsiyani taksimlanishini kursatadigan grafik chizish mumkin.

$$\delta_1 = \frac{\Delta \ell}{\ell} \cdot 100 \% ; \quad \delta_2 = \frac{\Delta \ell}{\ell} \cdot 100 \% ; \dots$$

Materialning mustaxkamlik va plastiklik xarakteristikolari shu materialning mexanik xarakteristikolari deyiladi.

Olingan natijalar va chuzilish diagrammasi laboratoriya jurnaliga yaxshilab kuchiriladi

Uzlashtirish uchun savollar.

- 1) Nisbiy chuzilish nima va uning ulchami kanday.
- 2) YUmshok pulatning chuzilish diagrammasida kanday xarakterli nuktalar buladi.
- 3) Proportsiallik chegarasi, elastiklik chegarasi, okuvchanlik chegarasi va mustaxkamlik chegarasi nima.
- 4) Sinalaetgan namunada kay vaktida CHernov chiziklari xosil buladi.
- 5) Sinalaetgan namunada kanday deformatsiyalar xosil buladi.
- 6) Nisbiy koldik uzayish va nisbiy ingichkalanish kanday topiladi.

Bular metallning kanday xarakteristikalarini belgilaydi?

3 – 4 LABORATORIYA ISHI

XAR XIL MATERIALLARDAN YASALGAN NAMULARNI SIJILISHDA SINASH

Konstruktsiya uchun ishlatiladigan materiallarni, asosan, iuyidagicha gruppaga brlish mumkin:

Plastik va murt.

Birjinsli va birjinsli brlmagan.

Sezilarli darajada deformatsiya koldirib, emiriladigan materiallarga plastik materiallar deyiladi. Juda oz deformatsiya koldirib emiriladigan materiallarga murt materiallar deyiladi.

Uzilishda plastinkani xarakterlovchi nisbiy koldik uzayish:

$$\delta = \frac{\Delta \ell}{\ell} \cdot 100 \ %;$$

va kundalang kesimni nisbiy koldik ingichkalanishi:

$$\psi = \frac{F - F_1}{F} \cdot 100 \ %;$$

2-labaratoriya ishidan bizga ma`lum edi.

I. Plastik materiallar uzilish oldida anchagina deformatsiyaga ega buladi. Masalan, yumshok pulatning uzilish oldidagi chuzilishi 20-25%ga boradi. chuyandek tipik material chuzilganda to uzilguncha bilinar –bilinmas darajada deformatsiyalanadi. Bunday materiallar birdaniga uziladi. Uzilgandan keyin ularning nisbiy chuzilishi va nisbiy ingichkalanishi sezilmaydigan darajada kichik buladi. Masalan, chuyannig uzilish oldidagi deformatsiyasi 0,5-0,6% dan oshmaydi.

Metallar bir jinsli materiallar xisoblanadi. Bir jinsli bulmagan materiallarga: tabiiy tosh (oxak, granit va boshkalar); sun`iy tsement toshlar; yogoch (sosna, el). YOgoch anizotrop materiallar xisoblanadi chunki uning tolalari buylab va tolalariga tik tomonlarini xususiyati xar xil.

Materiallarning sikilishiga kursatadigan karshiligini tekshirishda kub shaklidagi yoki balandligi diametrdan oz fark kiladigan tsilindir shaklidagi namunalardan foydalanishga tugri keladi .uzun namunalar bilan tajriba utkazilganda , bundy namunalarning egilmay turib sof sikilishiga erishish juda kiyin buladi.


3-LABORATORIYA ISHI

METALLARNING SIQILISHGA KO`RSATIDIGAN QARSHILIGINI

TEKSHIRISH


TAJRIBA O`TKAZISHDAN MAQSAD: Plastik va mo`rt materiallarning siqilishidagi puxtaligini sinash.

TAJRIBANING QO`YILISHI: Tajriba siqilish diagrammasi yozuvchi 5 tonnali universal mashinada o`tkaziladi. Materiallardan yasalgan namunalar tsilindr shaklidan bo`lib, ularning balandligi diametridan taxminan 1,5-2 marta kata bo`lishi kerak (6-shakl)




6 - shakl

1. plastik materiallarning (miss qo'rg'oshin va boshqalarining) siqilishdagi puxtaligini sinash. Namuna tsilindrik qilib yasaladi, namunaning o'lchamlari: $h = 15 \text{ mm}$, $d = 8 \text{ mm}$. Namuna sinash presosining tovog'i orasiga qo'yib, sekin-asta oshib boruvchi kuch Bilan siqiladi (7-shakl).




7 - shakl

Mashinaning barabanida siqilish diagrammasi yoziladi (8-shakl).



8 - shakl

Diagrammada dastal OA to'g'ri chiziq kesmasidan iborat bo'ladi, bu esa kuch bilan deformatsiya orasida to'g'ri proportsionllik qonuni borligini ko'rsatadi. Diagramma A nuqtadan keyin egri chiziq tarzida ko'tarila boshlaydi. Proportsionallik chegarasidan keyin namunaning plastik deformatsiyasi o'sadi va kesim kattalasha boradi. Ko'ndalang kesim kattalashgan sari, namunaning yuk ko'tara olish xususiyati oshadi. Namunani sinash pressining tovagi bilan namuna asosining yuzasi hosil bo'ladigan ishqalanish kuchlari namuna qirg'oqlarining ko'ndalangiga tomon deformatsiyalanishiga yo'l qo'ymaydi. SHuning uchun, namuna sinash natijasida bochkaga o'xshash shaklga kiradi (9-shakl). Ko'ndalang



9 - shakl

Kesim yuzi kengaygan sari, deformatsiya yana ham ko'paytirish uchun, siquvchi yukni oshirib borish kerak. Namunaning siqilishi davom ettirilsa, u kulchaga o'xshab qoladi. Proportsionallik chegarasi quyidagi formuladan topiladi.


$$\sigma_n = \frac{P_n}{F} \text{ кгс / см}^2$$

Bu erda R_p - proportsionallik chegarasiga to'g'ri kelgan kuch,


F - namuna ko'ndalang kesimining deformatsiyagacha bo'lgan yuzi.

2. Mo'rt materiallarning (cho'yan va boshqalarning siqilishdagi puxtaligini sinash. Tajriba bundan oldingi tajribadek o'tkaziladi. Cho'yan uchun siqilish diagrammasi 10-shaklda ko'rsatilgan. Diagramma koordinatalar boshidan ma'lum nuqtagacha taxminan to'g'ri chiziq kesmamidan iborat bo'ladi. Bu to'g'ri chiziq

kesmasi, dastlab ordinatalar o'qidan, ya'ni R o'qidan juda kam og'adi, ohiriga borib tez egiladi va kuch eng kata qiymatga erishgach, diagramma birdaniga uziladi. Kuch namunani emirgach, juda tez kamayadi va namuna yuk ko'rata olmaydigan bo'lib qoladi. CHO'yan namuna siquvchi kuch ta'sirida bir oz qisqarib, bochka shakliga kiradi. Bu kichikroq plastik deformatsiya bo'lganligidan dalolat beradi. Kuch maksimal qiymatiga borayotgan paytida namunaning sirtida qiya bir qancha darzlar paydo bo'ladi (11-shakl).



10 – shakl



11 - shakl

CHO'yanning siqilishdagi mustahkamlik chegarasini quyidagi formuladan aniqlaymiz:

$$\sigma_M = \frac{P_M}{F} \text{ кгс / см}^2$$

Bu erda R_m - mustahkamlik chegarasiga to'g'ri kelagan kuch;

F - namuna ko'ndalang kesimining kesimining deformatsiyagacha bo'lgan yuzi.

TAJIRIBA NATIJALARINI YAKUNLASH. Olingan natijalar va siqilish diagrammasi laboratoriya jurnaliga ko'chiriladi. Olingan natijalarga asoslanib plastik va mo'rt materiallarni taqqoslab yakun yasaladi.

4-LABORATORIYA ISHI YOG'OCHNI SIQUVCHI KUCHLARGA BARDOSH BERA OLISHNI SINASH

TAJIRIBANI O'TKAZISHDAN MAQSAD. YOg'ochni tolalariga tik va tolalari bo'ylab emirilguncha siqib, shu bir xil yog'ochni o'zini xususiyatini o'rganish.

Tajribaning qo'yilishi: Tajriba posangili tebrangich (mayatnik) bo'lgan vintli universal mashinada o'tkaziladi.

YOg`ochdan standart o`lchamli kubiklar tayyorlanadi (2,5x2,5x2,5 sm). bu kubiklarning o`lchamlari aniqlangandan so`ng sinash pressining tovog`iga qo`yilib, emirilguncha siqiladi.


12-shakl, a da kubikning tolalariga parallel yo`nalgan kuchlar bilan siqilgandagi diagramma tasvirlangan. Bu diagrammadan ko`rinadiki, kubik emirilguncha juda oz deformatsiya qoldiradi. Siquvchi kuch maksimal qiymatga, ya`ni  $R_m$  ga etganda namuna emirila boshlaydi va kuch pastga qarab ketadi. Kubik emirila boshlaganda avval uning kesimlari eziladi va ko`ndalang qatlamlar, ba`zan esa bo`ylama tarzda ham hosil bo`lladi. Bu hol ko`zli namunalardan ayniqsa ko`p uchraydi. Bunday kubiklarning emirilgan shakli 13-shakl, a da ko`rsatilgan

YOg`ochning mustahkamlik chegarasi tajribalari asosida quyidagicha topiladi:


$$\sigma_M = \frac{P_M}{F} (\text{kg / cm}^2)$$

Bu erda R_m - namunani siquvchi maksimal kuch.

F - kubning bir yog`ini yuzi.



12 – shakl



13 – shakl

YOg`ochning tolalariga tik yo`nalgan kuch bilan oiqilgan kubik uchun siqilish diagrammasi 12-shakl, b da ko`rsatilgan. Bu diagrammadan ko`rinadiki, proportsionallik chegarasiga, ya`ni  $R_p$  ga etguncha diagramma to`g`ri chiziq kesmfsidan iborat bo`ladi. Proportsionallik chegarasidan keyin diagramma plastik materiallarinikiga o`xshaydi, ya`ni gorizonta chiziqqa ya`ni egri chiziqdan iborat bo`ladi.

Kubik siquvchi kuchning juda kichik qiymatida tez deformatsiyalanadi. Ko`zi va qiyshiq qavatlari bo`lmagan kubik emirilamaydi, balki faqat presslanadi (13-shakl, b). Kuch oshmagan holda kubikning darajada deformatsiyalanishi uning endi yuk ko`tara olmasligidan dalolat beradi. Bunday holda kubik o`z balandligining 1:3 qismi qadar siqilgan vaqtiga to`g`ri kelgan siquvchi kuch emiruvchi kuch (R_m) deb qabul qilinadi:

$$\sigma_M = \frac{P_M}{F} (\text{kg / cm}^2)$$

YOg`och tolalariga parallel yo`nalgan siquvchi maksimal kuchlanishning qiymati yog`och tolalariga tik yo`nalgan siquvchi maksimal kuchlanish qiymatidan 8-10 marta ortiq bo`ladi.

TAJIRIBA NATIJALARINI YAKUNLASH. Sinov vaqtida olingan miqdorlar, diagrammalar va namunaning tajribaning tajribadan keyingi qo`rinishi laboratoriya jurnaliga yaxshilab ko`chiriladi va ularni hisoblash tavsiya qilinadi.

O`zlashtirish uchun savollar

1. Plastik va mo`rt materillardan qanday xossalar bo`ladi?
2. plastik va mo`rt materilalarning siqilgandagi diagrammalari nima bilan farqlanadi?
3. Anizotrop materiallar qanday materiallar hisoblanadi?
4. Sof siqilish hodisasi eamunani tayyorlashga bog`liqmi?
5. Nima uchun namuna bochka shakliga kiradi?
6. Plastik materiallarni siqilish diagrammasi nima uchun proportsionallik chegarasidan keyin o`sadi?
7. 12-shakldagi diagrammalar qanday materiallarning siqilishdagi diagrammasiga o`xshaydi?

5-LABORATORIYA ISHI


SILJISHGA ISHLOVCHI KONSTRUKTSIYA ELEMENTLARINI SINASH

Siljishga ishlovchi konstruktsiya elementlarining eng oddiy misollari qilib boltli birikma bilan parchin mixli birikmani olish mumkin. Hozirgi vaqtda archin birikma o`rniga payvand birikma ko`proq ishlatilayotgan bo`lsa ham, ammo ko`pgina hollarda, parchin mixli birikma o`z ahamiyatini saqlab kelmoqda. CHunonchi, metall qismlarni: stropilo fermalarining sterjenlarini, ko`prik fermalarining oterjenlarini, qozonlarni hosil qiluvchi listlarni va shunga o`xshashlarni ulashda parchin mixli birikma ishlatiladi.

Parchin mixning qanday ishlashini ko`rsatish uchun ikki temir listning biri ikkinchisi ustiga qo`yilib, parchin mix bilan ulangan holida tekshiramiz (13-shakl). Ulangan listlarga cho`zuvchi kuch ta`sir ettirib, ulanishning qanday sabablardan buzilishini tekshiramiz.

R kuch bu listlarni bir-biriga nisbatan siljishga urinadi, listlarning bu siljishiga parchin mix qarshilik ko`rsatib, bu listlarning shaklda ko`rsatilganidek ta`sir etadigan kuchlarini o`ziga qabul qiladi.

Bu kuchlar ta`siridan parchin mix, 14-shaklda ko`rsatilganidek, $a-a$ kesim bo`yicha kesilishga, ya`ni parchin mixning yuqorigi qismi o`ng tomonga, pastki qismi esa chap tomonga siljishga intiladi.



13 - shakl


Parchin mixning $a-a$ kesmida bu kesuvchi kuch ta'siridan paydo bo'ladigan kuchlanish (τ) ni quyidagi formuladan foydalanib topamiz:

$$\tau = \frac{T}{F} \text{ кгс / см}^2 \quad (1)$$

Bunda T - bita parchin mixga tushadigan kesuvchi kuch;

F - parchin mixning ko'ndalang kesim yuzi;


Biroq parchin mixga listning ta'sir etadigan kuchi parchin mixni kesish bilan birga, uni ezishi ham mumkin, ya'ni listning tegishli parchin mix sterjanini tsilindrik sirti bo'yicha eza boshlaydi. YOki parchin mix ta'siridan teshik devorining sirti ezilishi ham mumkin. SHu sababli, parchin mix sterjeni va list teshigining devori ezilmasligi uchun, hisob vaqtida buni ham tekshirish kerak bo'ladi.



14 - shakl


15-shaklda parchin mix sterjeniga ezuvchi kuch ta'sir etishi taxminan tasvirlangan. Ezuvchi kusning parchin mix sirti bo'yicha tarqalish qonuni bizga T ma'lum emas.

Faqat bu kuch A nuqtada eng kata qiymatga ega bo'lib, bu nuqtadan uzoqlashgan nuqtalarda ozayadi va V hamda S nuqtalarda nolga aylanadi.



15 - shakl


Parchin mixning diametrial kesimidagi ezuvchi kuchlanish quyidagi formuladan topiladi. (16-shakl)



16 - shakl

$$\sigma_{\text{yz}} = \frac{T}{\delta \cdot d} \kappa_2 / \text{cm}^2 \quad (2)$$


Listlar bir-biriga ustma-ust qo'yib biriktirilganda parchin mixlar faqat kesilish bilan ezilishgagina ishlamasdan, egilishga ham ishlaydi, chunki biriktiriluvchi listlar bir tekislikda yotmaganligidan ularga qo'yilgan kuchlar juft kuch hosil qiladi; natijada listlar egilib, birikma qiyshayadi (17-shakl, a). bu kamchilikki barham berish uchun listlar uchma-uch qilinib, ularning ustidan va ostidan po'lat taxtakach qo'yiladi va shundan keyin parchinlanadi (17-shakl, b).



17 - shakl

Bu taxtakachlar yordami bilan biriktirish natijasida parchin mixlar tekislikda kesilishga qarshilik ko'rsatadi. SHuning uchun, bunday birikmada ishlovchi parchin mix ikki kesilishli parchin mix deyiladi.

Ikki kesilishli bita parchin mixning ishni tekshiramiz (18-shakl).



18 - shakl

Taxtakachlar parchin mixni $\frac{P}{2}$ kuch bilan o'rta listga nisbatan o'ng tomonga siljishga intiladi. Bkning natijasida parchin mix a-a va v-v tekisliklarda kesilishi mumkin.

Bu hol uchun parchin mix ikki tekislikda kesilganligidan, hisob tenglamasi quyidagicha yoziladi:


$$\tau = \frac{P}{2 \cdot \frac{\pi d^2}{4}} \text{ kG / cm}^2$$

Bu aytilganlarni tajriba qilib ko'ramiz.

TAJIRIBA O'TKAZISHDAN MAQSAD: yumshoq po'latning kesilishga qarshilik ko'rsatishdagi mustahkamlik chegarasini topish.

O'tkaziladigan tajriba ikki kesilishli birikma hosil qilishda briktiruvchi vosita tsilindrik namuna bo'lib, bu namuna xudi sharni rolini bajaruvchi bolt kabi ishlaydi; namunaning diametri 8-20 mm ga teng.

TAJIRIBANING QO'YILISHI. Universal mashinasining qisqichlariga namuna o'rnatilgan maxsus moslama qo'yiladi (19-shakl).



19 – shakl

Bu moslama cho'zilganda, unga o'rnatilgan A namuna ikkita 1 va 2 tekislik bo'yicha kesilishga qarshilik ko'rsatadi. Moslama ikki qismdan iborat bo'lib, uning yuqorigi qismi ayri shaklida qilib yasalgan, pastki qismi esa yassi sterjendan tuzilgan; bu qismlar bir-biriga teshiklarini bir-biriga to'g'rilab turib, teshiklarga diametrik o'lchangan namuna o'rnatilgan. Moslama universal mashinasining qisqichlariga o'rnatilgandan keyin, cho'zuvchi kuchnamunani 1 va 2 tekislik bo'yicha uch bo'lakka (20-shakl) kesilguncha oshirib boriladi. Namunani kesuvchi eng kata kuch mashina dinamometrida qayd qilinadi.



20 - shakl

TAJRIBA NATIJALARINI YAKUNLASH. Kesuvchi R_m kuch va kesilish yuzi $\left(F_{\text{kes}} = 2 \frac{\pi d^2}{4} \right)$ aniqlangach, kesilishdagi mustaxkamlik chegarasi τ_m (3) asosan topiladi:

O'ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Nima uchun listlar biriktirilganda ust iva ostiga taxtakachlar qo'yiladi?
2. Parchin mixlar qanday qarshiliklarga ishlaydi?
3. Ikki kesilishli parxin mix deb qanday parxin mixlarga aytiladi?
4. Kesilishga ishlayotgan boltining mustahkamlik chegarasi qanday topiladi?


6-LABORATORI ISHI

TURLI MATERIALLARDAN YASALGAN NAMUNALARNING
BURILISHDAGI MUSTAXKAMLIK CHEGARASINI ANIQLASH

TAJIRIBA O'TKAZISHDAN MAQSAD: Turli materiallardan yasalgan namunalarning burilishini tekshirish va ularning mutaxkamlik chegarasini aniqlash. Nazariyadan ma'lumki, buralgan sterjenlarning materiallari tekis kuchlanish holatida bo'ladi. Sterjenning o'qiga tik va parallel yo'nalgan yuzalarda urinma kuchlanishlar hosil bo'ladi, namunaning o'qi bilan 45^0 burchak hosil qilgan yuzlardan esa bosh kuchlanishlar paydo bo'ladi ($\sigma_1 = \tau$ va $\sigma_3 = \tau$).


Buralishda har xil materiallar cho'zilish yoki siljishga turlicha qarshilik ko'rsatishlik uchun, turli materiallardan yasalgan namunalarning emirilish protsessii ham har xil o'tadi.

Tajribaning qo'yilishi. Tajriba burash mashinalarining birida o'tkaziladi. Bunday mashina haqida shu ishning oxirida yozilgan. Tajriba o'tkazilish uchun yumshoq po'lat, cho'yan va yog'ochdan bir xil ko'ndalang kesim yuztga ega bo'lgan (15-20 mm diametrli) uchun namuna tayyorlanadi. Namunalar diqqat bilan o'lchangandan so'ng mashina qisqichlariga o'rnatilib, ular emirilguncha buraladi. Po'lat namuna bo'yin, hosil qilmasdan o'z o'qiga tik kesim bo'yicha xudi pichoq bilan kesilgandek, ortiqcha tovush chiqarmay emiriladi (21-shakl).




21 - shakl

Namuna sirtiga bo'ylama chiziq chizilgan bo'lsa u vint chizig'iga aylanadi. Buralish diagrammasi 22-shaklda ko'rsatilgandek bo'ladi, burovchi moment maksimal qiymatga etganda ($M_\delta = M_B$) bo'lganda diagramma chizig'i uziladi (22-shakl). Cho'yan namuna hamma vaqt qiya kesim bo'yicha qttiqliq tovush chiqarib emiriladi (23-shakl).




22 - shakl



23 - shakl

CHO'yan namunaning buralish diagrammasi ba'zan to'g'ri yaqin egri chiziqdan, ba'zan esa egri chiziqdan iborat bo'ladi (24-shakl). YOg'och namuna emirilgan bo'ylama yriqlar hosil qiladi (25-shakl), shu sababli burovchi moment tez kamayib ketadi, bu hol buralish diagramma xarakteridan ravshan ko'rinib turibdi (26-shakl).



23 – шакл

Tajribani yakunlash. Har bir namuna uchun emiruvchi moment mashina dinamometridan olinadi. CHO'yan va yog'ochning mustahkamlik chegaralari

$\tau_{\max} = \frac{M_{\delta}}{W_p}$ formuladan hisoblab topiladi, chunki bu

xildagi materiallarning buralish diagrammasi to'g'ri chiziqqa yaqindir. Natijalar taxminiy bo'ladi. Po'lat namunaning mustahkamlik chegarasi plastiklik nazariyasida chiqarilgan $\tau_M = \frac{3M_{\delta}}{W_p}$ formula yordamida topiladi. Bu formulaning haqiqiy yaqinligini tajribalar tasdiqlaydi. Hisob natijalarini jadvalga yozish tavsiya qilinadi.


Jadval

Namuna materiallari	d cm	W_p cm^3	M_B $Kg \cdot cm$	$\tau_M = \frac{3M_B}{4W_p}$	$\tau_M = \frac{M_B}{W_p}$
------------------------	-------------	-----------------	------------------------	------------------------------	----------------------------


Buralish diagrammalari va namunalarining emirilgandan keyingi shakllari laboratoriya daftariga chizib olinish kerak.

Xulosa. Po'lat namuna (21-shakl) urinma kuchlanish ta'sirida emiriladi. Bu urinma kuchlanish buralgan namunaning ko'ndalang kesim yuzi hosil bo'ladi. CHO'yan namuna o'z o'qi bilan 45° burchak tashkil qilgan yuzalarda hosil bo'lgan bosh norma kuchlanishlar ta'sirida uziladi, chunki cho'yan cho'zilishga zaif qarshilik ko'rsatadi (23-shakl).

YOg'och namuna bo'ylama yoriqlar bo'yicha emiriladi (25-shakl), bunday namunaning emirilish xakteri namuna o'qigan o'tgan va uning yasovchisiga parallel bo'lgan yuzalardan urinma kuchlanish hosil bo'lishidan dalolat beradi.



25 – shakl




26 – shakl

BURALISHGA SINASH RIIT MASHINASI

(A.P.Korobov sistemasi; burovchi moment 20 kgm)

Kichik eamunalarni sinash uchun mo'ljallangan burash mashinasi Bilan tanishib chiqaylik (27-shakl,a). bu mashina Rostov transoprt irjenerlari

institutining ustaxonasida tayyorlangan, shuning uchun u RIIT deyiladi. Doiraviy kesimli namuna (1) mashina qisqichlari (2 va 3) ga mahkamlab qo'yiladi. O'ng tomondagi qisqich (3) mashina otaninasiga qimirlamaydigan qilib o'rnatilgan podshipnikda aylanadi. CHapki qisqich (2) o'z podshipning Bilan birga biror tekislik sirtida mashina bo'ylab suriladi, demak, mashinaga har xil uzunlikdagi namunalarni o'rnatish mumkin. SHturval (4) tishli g'ildiraklar orqali qisqich (3) ga ulanadi, binobarin, shturval buralganda namunaga birovchi moment o'tadi. CHap qisqich richaglar sistemasidan tuzilgan kuch o'lcham mexanizmsi (5) bilan bolangan (27-shakl,b). O'ng tomondagi qisqichning aylanish namunana orqali chap qisqichga o'tadi. CHap qisqich mahkamlangan quti ichida kuch mexanizmi joylashgan. CHap qisqich o'rnatilgan o'qqa richag (12) aylanmaydigan qilib ulangan. CHap qisqis aylanganda richning bir uchi prujina (13) ga bosim o'tkaziladi; bu prujinaning ikki uchi quti devoriga mahkam biriktirib qo'yilgan. Prujinaning egilish salqiligi richagdan o'tgan bosim kuchining kattaligiga bog'liqdir. Richag (12) ning ikkinchi uchi richag (14) ga tayanadi; bu richag erkin uchining vertikal ko'chishi prujina (13) ning egilish salqiligiga bog'liqdir. Bu ko'chishlarda richag (14) uzun elkasining uchiga tayangan vertikal sterjen (15) ko'tariladi. Bu sterjenning ko'chishi buruvchi mamontga proporsionaldir. Vertikal sterjen (15) ko'tarilganda shesternya (16) ni aylantiriladi, chunki shesternya sterjendagi tish o'qiga tsiferblat (6) ning strelkasi o'rnatilgan, bu strelka ta'sir qiladigan burovchi mamentning qiymatini o'laydi.



27 – shakl

Mashina 5 kgm yoki 20 kgm oralig`ida ishlashi mumkin. YUk richag (14) ga qo`shimcha tayanch kiritish yo`li bilan o`zgartiriladi. Bunday tanch shaklda ko`rsatilgan emas.

Mashinada burilish diogrammasini avtomatik chizadigan moslama bor. Bu moslama (7) dan iborat; barobanni asosiy vala (2, 1, 3) va tishli uzatma orqali aylantiradi. Tishli uzatma tishli g`ildirak (8) , valik (9), tishli g`ildirak (10) va borabanda suriluvchi reka (11) dan iborat. SHunday qilib, dioagramma buruvchi moment Bilan qisqich (8) ning aylanish burchagi orasidagi bog`lanishni ko`rsatadi.


O`ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Namunaning qaysi nuqtasida eng katta kuchlanish hosil bo`ladi?
2. Burovchi moment nima va uning o`lchamliga qanday?
3. Doira qarshildik momenti qanday formulalar yordamida topiladi?
4. Tajriba qaysi mashinada o`tkaziladi?

7 LABORATORIYA ISHI

VINTSIMON TSILINDRIK PRUJINALARNING DEFORMATSIYASI (CHO`KISH)

Vagon, avtomobil resoralarida va boshqa mexanizmlarda cho`zuvchi va siqo`vchi kuchlar ta`sir etadigan vint prujinalar ishlatiladi. Bunday prujinalarni loyihalash uchun ularning mustahkamligini hisoblash bilan birga, qo`yilgan yuk ta`siridan naqadar cho`kishini yoki cho`zilishini xam oldindan aniqlash lozim.



Siqilayotgan yoki cho`zilayotgan vint prujina buralilishga qarshilik ko`rsatishini o`tkazilgan tajribalar tasdiqlaydi. TSilindrik prujinaga o`qi buylab yo`nalgan chuzuvchi  $P$  kuch ta`sir etsin. (28 shakl)

Prujina o`rami o`qining radiusini R o`ramlar sonini  $n$  prujina o`rami ko`ndalang kesimini diametirini prujina material uchun siljish modulini  $G$  deymiz.  $P$  kuch juda sekin o`zgaruvchi, ya`ni statik kuch bulsin. Bu xolda prujina suziladi va kuch ko`yilgan uchlari pastga va yuqoriga λ oraliqqa

28 – шакл

ko`chadi.  $P$  kuchning bu ko`chishda bajargan ishi $A = \frac{1}{2} P \cdot \lambda$

bo`ladi. Biroq bu ish prujina sterjining bo`ralishida tuplangan potentsial energiya $U = \frac{M_{\delta}^2 \cdot \ell}{2G \cdot J_p}$ ga teng bo`ladi.

$$(A = U)$$

Demak

$$\frac{1}{2} P \lambda = \frac{M_{\delta}^2 \cdot \ell}{2G \cdot J_p} (a)$$

bunda, ℓ - prujina sterjenining tula uzunligi. Prujina o'ramlarining gorizantga qiyaligi hisobga olinmasa, uning qiymati qo'yidagicha yoziladi:

$$\ell = 2\pi Rn$$

$$M_{\delta} = PR, \quad J_p = \frac{\pi d^4}{32}$$

bo'ladi, bu qiymatlarning xammasini (a) ga qo'yib prujinaning chuzilishini topomiz.

$$\lambda = \frac{64 PD^3 \cdot n}{G \cdot d^4} \quad (1)$$

(1) formula prujina siqilgan payitda ham o'z kuchini saqlaydi. Bu formuladan foydalanib siljish moduli topamiz.

TAJIRIBA O'TKAZISHDAN MAQSAD.

Ikkinchi tartibli elastiklik moduli «G» ni aniqlash

Tajribaning qo'yilishi. Po'lat prujinaning elastiklik modulini aniqlash uchun avval namunadek deformasiyasini (chukishini) o'lchash kerak. Tajriba 5 tonnali universal mashinada o'tkaziladi. Tajriba boshlashdan avval namunaning geometrik ulchamlari ulchanib, labarotoriya daftariga yozilishi va namunaning eskizi chizilishi lozim. Namunani sinash pressining tovog'i orasiga qo'yiladi. Prujinani oldiga uning balandligi bilan bir xil balandlikda indikator o'rnatiladi. (29 shakl). Prujinaning deformatsiyasi indikator yordamida aniqlanadi. Kuchni oshira borish jarayonida indikatorning shkalasidan har 20 kg kuchga tug'ri kelgan ko'rsatishlari maxsus jadvalga yozib boriladi (7 jadval)

No t/r	yuk kg	Indikatorni shkalasini kursatish	ayirmasi	ayirmani urta arif kiymati	G xisobi (1)
1	20				
2	40				
3	60				$\lambda = \Delta_{yp} \cdot 0,001$
4	80				
5	100				$G = \frac{64 \Delta P \cdot R^3 \cdot n}{\lambda \cdot d^4}$
6	120				
7	140				
8	160				

bunda, Δ_{yp} - natijaviy urta arifmetik kiymat.

Tajriba natijalarini yakunlash. Agar jadvalga yozilgan o'rtacha arifmetik qiymatni indikatorning bir bo'linmasi bahosiga ko'paytirsak, ir kuzatishga to'g'ri kelgan siquvchi kuch (20 kg) ta'sirida prujinaning siqilishini topgan bo'lamiz.

$$\lambda = \Delta_{yp} C \quad (2)$$

bunda S - indikatorning bir bo'linmasini bahosi

$S = 0,001 \text{ sm}$ ga teng


Deformatsiya topilgandan keyin formuladan foydalanib siljish moduli G ni topomiz.

$$G = \frac{4 \Delta P \cdot R^3 n}{\lambda \cdot r^4} \quad (3)$$

(3) formuladagi λ (2) formuladan topiladi, $\Delta P = 20 \text{ kg}$ ga teng. Po'lat uchun ikkinchi tartibli elastiklik modulining qiymati $8 \cdot 10^5 \text{ кгс / см}^2$ atrofida chiqishi kerak.

O'ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR.

1. Polyar inertsia momenti nima va u kanday ulchamlikka ega.
2. Qayday miqdor buralishdagi bikirlik deyiladi.
3. Buralishdagi potentsial energiya formulasi qanday yoziladi.
4. Indikator qanday asbob.
5. Vintoimon tsilindrik prujinalarning deformatsiyasi (chukishi) qanday formula bilan ifodalanadi.



8-9 LABORATORIYA ISHI.

HAR XIL MATERIALLARDAN YASALGAN NAMUNALARNI EGILISHDA SINASH

To'g'ri o'qli brus tik yo'nalgan kuchlar yoki brusning geometrik o'qi orqali o'tuvchi tekislikda yotadigan juft kuchlar ta'sirida brus egiladi, ya'ni deformatsiyalanadi. Bunday kuchlar ta'sirida brusning to'g'ri chiziqli geometrik o'qi egri chiziqqa aylanadi. Sterjenning bunday deformatsiyasi egilish deyiladi. Egilishga qarshilik ko'rsatuvchi bruslar balka deb ataladi.


1. Balkaning biror uchastkasida eguluvchi moment o'zgarmas miqdor bo'lib, kesuvchi kuch nolga teng bo'lsa, balkaning shu uchastkasidagi egilish sof egilish deyiladi.

Demak sof egilishda egiluvchi momet o'zgarmas bo'lib, kesuvchi kuch doimo nolga tengdir.

2. Balkaning uchastkalarida eguluvchi momentlar o'zgaruvchan miqdor bo'lib, kesuvchi kuch nolga teng bo'lmasa, bu uchastkalardagi egilish kundalang egilish deyiladi.

Balkaga ta'sir qilgan kuchlar balkaning bosh tekisliklaridan birortasini o'stida yotsa, balkaning hamma uchastkalari to'g'ri egiladi. Agar sof egilgan balkaning (30 shakl, a) bet tomoniga tur chizilsa, deformatsiyadan keyin qo'yidagi xodisalar namoyon bo'ladi. (30 shakl, b).

1. Balkaga chizilgan 1-1 va 2-2 to'g'ri chiziqlar deformatsiyadan keyin ham to'g'ri chiziqligicha qolib, faqat juda kichik biror $d\varphi$ burchakka og'adi. Demak, balkaning deformatsiyagacha bo'lgan tekis ko'ndalang kesim yuzi deformatsiyadan keyin ham tekisligicha qoladi. Bu holat tekis kesim yoki Bernulli gipotizasi deyiladi.



30 – shakl

2. Balkaning qavariq tomonidagi ab tolasi cho'zilib, botiq tomonidagi cd tolasi siqiladi. Ular orasidagi biror mn toloning uzunligi o'zgarmaydi. Balkaning cho'zilmagan hamda siqilmagan bu tolalari yotgan qavatini neytral qavat deyiladi. Neytral qavat tekisligi bilan balkaning ko'ndalang kesim tekisligi kesishgan chiziq mazkur kesimning neytral o'qi deb ataladi. Balka egilganda har bir ko'ndalang kesim o'z neytral o'qi atrofida aylanadi.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, balka egilganda uning tolalari turlicha deformatsiyalanadi: neytral o'qdan eng uzoq yotgan tolalarning deformatsiyasi eng katta bo'ladi.


8 – LABORATORIYA ISHI.

YOG'OCHNING ELASTIKLIK MODULI "E"NI ANIQLANG

TAJIRIBA O'TKAZISHDAN MAQSAD: Topilgan elastiklik modulini nazariy elastiklik moduli ($E = 10^5 \text{ kg/cm}^2$) bilan taqqoslash.


Tajribani qo'yilishi. Egilish sinaladigan tajriba RIIT sistemadagi mashinada bajariladi. Namuna balkaning uzunligi $\ell = 800 \text{ mm}$, ko'ndalang kesimi $60 \times 40 \text{ mm}$; material qarag'ay. Tajriba sxemasi 31 shakilda ko'rsatilgan.

Balka mashinaning pastki traversasiga o'rnatilgan ikki tayanchga qo'yilib, ustki traversaga o'rnatilgan tayanchlarning biri balkaning o'rtasiga tirab qo'yiladi.



31 – shakl

Pastki traversa ko'tarilishi bilan balka egila boshlaydi; balkaning K nuqtasiga deformatsiya o'lchaydigan indekator qo'yiladi (32 shakl).



32 - shakl

kesimning ma'lum kuchga, masalan, 60, 120, 180, 240...ga to'g'ri kelgan salqiligi indikator sterelkasining ko'rsatishiga qarab, maxsus jadvalga yozib boriladi (8 jadval).

№ t/r	yuk kg	Indikator strelka Sining kursatish	Kursatishlar farki	ΔP - ga tugri kelgan salkilik, sm
1	60			
2	120			
3	180			$\Delta Z_{yp} = \Delta_{yp} \cdot C$
4	240			
5	300			
6	360			
7	420			

Tabiiyki, bu ishlarning xammasi materialni proportsionallik chegarasida bajariladi.

Tajriba natijalarini yakunlash. Jadvalda yozilgan deformatsiyalarning farqlari xisoblangandan so'ng, bu farqlarning o'rtacha arifmetik qiymati topiladi

$$\left(\Delta_{yp} = \frac{\sum \Delta}{n} \right).$$

Bu o'rtacha qiymat indekator bo'linmasining qiymatiga ko'paytirilsa, ΔP ga to'g'ri kelgan o'rtacha egilish salqligi ΔZ_{yp} ni topgan bo'lamiz:

$$\Delta Z_{yp} = C \cdot \Delta_{yp}$$

bu erda $S = 0,001$ sm ga teng.

Balka (namuna) materialining elastiklik moduli "E" quyidagi bizga ma'lum bo'lgan formulada aniqlanadi:

Bundan

$$f_{\max} = \frac{\Delta P \cdot \ell^3}{48 EJ_y}; \quad E = \frac{\Delta P \cdot \ell^3}{48 J_y \cdot \Delta Z_{yp}}$$

Labarotoriya jurnaliga tajribani o'tkazishda ishlatiladigan mashina indikatorning sxemalari xam chizilishi lozim.

Elastiklik moduli topilgandan keyin kuchni oshira boramiz, toki namuna emirilguncha. SHundan so'ng yog'ochni mexanik xarakteristikalarini aniqlaymiz.

$$\sigma_n = \frac{M_n}{W} - \text{egilishda proportsionallik chegarasi}$$

$$\sigma_n = \frac{M_{\max}}{W} - \text{egilishda mustaxkamlik chegarasi.}$$


9-LABARATORIYA ISHI

KONSOLLI IKKI TAYANCHDA YOTGAN PO'LAT BALKANING EGILISH SALQILIGINI TAJRIBA YORDAMIDA ANIQLASH.

TAJRIBA O'TKAZISHDAN MAQSAD: Po'lat balkaning egilish salqiliginı tajriba yordamida topib, uni nazariy yo'l bilan topilgan salqilikka taqqoslash.

Tajribaning qo'yilishi: Tajriba RIIT mashinasida o'tkaziladi. Namuna balki po'latdan yasalgan reshora taxtachasidir (33 shakl). Namuna balkaning kesim yuzi 45x7,8mm. Inertsia momenti.

$$J_y = \frac{bh^3}{12} = 0,178 \text{ cm}^4$$



33 - shakl

Balka mashinaning pastki traversasiga o'rnatilgan ikki qo'yilib, ustki traversaga o'rnatilgan tayanchlar esa balkaning ikki chegarasiga tirab qo'yiladi.

Pastki traversa ko'tarilishi bilan balka shaklda ko'rsatilganidek egila boshlaydi; balkaning K va S nuqtalariga deformatsiya o'lchaydigan indikator qo'yiladi (33 shakl). Kuch ma'lum miqdorda (20,40 va 60 kg va xokazo) ketma-ket oshirib boriladi. Balkaning o'rtasiga va chekkasiga qo'yilgan indikatorlardan bu kuchlarning xar biriga to'g'ri kelgan salqilikni o'lchab maxsus jadvalga yozib boriladi. (9- jadval)

N _o t/r	YUk	Indikatorni kursatish	Kursatishlar farki	Tajribadan topilgan f_0
1	40			
2	60			
3	80			
4	100			
5	120			
6	140			
7	160			

Tajriba natijalarini yakunlash: 9- jadval yozilgandan keyin, universal tenglama yordamida konsoldagi va balkani o'rtasidagi salqilik topiladi. Avval xarfli ifodada keyin namunani o'lchamlarini qo'yib sonli miqdorlari topiladi. SHundan keyin tajriba yo'li bilan topilgan salqilik bilan nazariy yo'l bilan topilgan salqilikni taqqoslab jadval tuzamiz:

Jadval

N _o t/r	Salkilik mikdorlari		Farki
	Tajribadagi	Nazariy yul bilan topilgan	

	sm	sm	%
1			
2			

O'ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR


1. Tekis kesim gipotezi nima?
2. Neytral qavat va neytral o'q nima xamda ular balka kesimiga nisbatan qanday joylashgan bo'ladi?
3. Qanday egilish xillarini bilasiz?
4. Qanday egilish sof egilish deyiladi?
5. Egilishdagi bikiqlik nima?
6. Egilishdagi qarshilik momenti nima? uning o'lchamini ayting.
7. Balkani egilish tajribasi qaysi mashinada o'tkaziladi? Mashinani ishlash printsiplini aytib bering.
8. Indikator qanday asbob?
9. YOg'ochni elastiklik moduli qanday aniqlanadi?

10 –LABORATORIYA ISHI

ZARB TA'SIRIDAN O'TKAZILADIGAN SINOV ISHINING METODLARI BILAN TANISHISH

TAJRIDA O'TKAZISHDAN MAQSAD: Zarb ta'sirida o'tkaziladigan sinovlar materiallarni sifatiga baho berishi, ya'ni poroklarini ko'rsatish mumkin qaysiki statik kuchlar ta'sirida mumkin bo'lmagan.

Plastik materiallar statik kuchdan uzilish oldida anchagina deformatsiyaga ega bo'lishini va mo'rt materiallarni emirilish oldidagi deformatsiyasi juda oz bo'lishini 3-labariatoriya ishida aytib o'tilgan edi. SHu sababli, plastik materiallar diagrammasining yuzi mo'rt materiallar diogrammasining yuziga qaraganda ancha kattadir. Plastik materiallarni emirish uchun mo'rt materiallarni emirishdagiga qaraganda ancha ko'p ish sarf qilinadi. SHuning uchun ham, konstruktsiya elementlari zabali kuchlar ta'siriga duch kelgan bo'lsa, ular plastik materiallardan ishlanadi. Mo'rt materialli kuch ta'siriga bardosh berolmay, juda tez emirildi. 34-shaklda ikkita cho'zilish diagrammasi ko'rsatilgan statik kuchdan /A/ va zarba yukdan /B/.



34 – шакл

Bu diogrammalardan ko'rinadiki, materiallar zarba yukdan cho'zioganda ularning oqish chegarasi bilan mustahkamlik chegaralari oshadi. Tekshirishlar shuni ko'rsatdiki oqish chegarasi 20-70%ga, mustahkamlik chegarasi esa 10-30% oshadi. Deformatsiya tezligining ko'payishi Bilan materialning plastikligi kamayadi.

Zarba yukdan cho'zilish diagrammasini /B/ ni chizish uchun murakkab mashina kerak. SHuning


uchun tajriba ma'lum markali po'latdan namunalar yasali b ularning emirish uchun sarf bo'lgan zarb ishining miqdori (zarbiy qovushoqlikni) topiladi.

Tajribani o'tkazish. Namunani emirish uchun sarflangan ishning qarshilik yuziga yoki qarshilik hajmiga nisbatan zarb ish zarbiy qovushoqlik deb ataladi:

$$a = \frac{A}{F} \text{ kJ} / \text{cm}^2; \quad a = \frac{A}{V} \text{ kJm} / \text{cm}^3 \quad (1)$$

Zarb ta'siridan o'tkaziladigan sinov ikki xil ko'rinishda o'tkaziladi:

1. Eguvchi zarba. Sinov uchun standart namuna olinadi, bunday namunaning o'lchamlari va shakli 35-shakl, a da ko'rsatilgan. Tajriba oldidan namunani o'lchab, uning eskizini laboratoriya daftariga chizish kerak. Namuna tebrangichli kopyor tayanchlariga o'rnatiladi; bunda tebrang'ich tig'i namunaning kesikli keimiga to'g'ri kelishi zarur.



35 - shakl

Kopyor tebrangichi qo'l bilan ko'tarilib, maxsus tishli g'aldirakka tebrangichdagi richag yordamida tirab qo'yiladi; tebrangichning bu vaziyati uchun unga bog'langan shkalada ma'lum raqam to'g'ri keladi. Bu raqam tebrangich ko'tarilganda hosil bo'ladigan A_1 energiyani ifodalaydi. Tebrangich qo'yib yuborilgandan keyin u namunani egib sindirib, orqa tomonga ko'tariladi va uning bu vaziyatiga shkalada ikkinchi A_2 raqam to'g'ri keladi. Bu keyini raqam tebrangichni orqaga ko'tarish uchun sarf bo'lgan energiyani ko'rsatadi.

SHunday qilib, namunani sindirish uchun sarf bo'lgan energiya yuqorida hosil bo'lgan energiyalarning ayrimasiga teng bo'ladi.

$$A = A_1 - A_2 \quad (2)$$

Tajriba natijalarini yakunlash. Namunaning keskinli kesimiga to'g'ri kelgan zarbga qarashlik ko'rsatuvchi yuzi (F) sm^2 hisobida olinadi. A_1 va A_2 larning qiymatlari yoziladi. Namunani sindirish uchun sarf bo'lgan energiya (A), (2) formulaga asosan ($\text{kg} \cdot \text{m}$ hisobida topiladi) va zarbiy qovushoqlik quyidagicha aniqlanadi:

$$a = \frac{A}{F} \text{ kJm} / \text{cm}^2 \quad (3)$$

CHO'zuvchi zarba. Sinov uchun ikki xil tsilindrik namuna olinadi, bunday namunaning o'lchamlari va shakllari 36-shakl, a,b da ko'rsatilgan. Namuna tebrangichga maxsus moslamalar yordamida o'rnatiladi. Kopyor tebrangichdagi qo'l bilan ko'tarib, tishli g'altakka tebrangichdagi richag yordamida tirab


qo'yiladi. Tebrangich qo'yib yuborilgandan keyin u namunani cho'zib sindiradi. Namunani sindirish uchun sarf bo'lgan ish quyidagicha aniqlanadi:

$$A = Q(h_1 - h_2) \text{ кЗМ} \quad (4)$$

Bunda: Q - tebragichni og'irligi

h_1 - tebrangichni zarbagacha bo'lgan balandligi

h_2 - tebrangich zarbadan keyingi balandligi




36 - shakl

Tajriba natijalarini yakunlash. Namunaning zarbga qarshilik ko'rsatuvchi hajmi (V) cm^3 hisobida olinadi. Namunani sindirish uchun sarf bo'lgan ish (A), (4) formulaga asosan (kgm hisobida topiladi) va zarbiy qovushoqlik quyidagicha aniqlanadi.

$$a = \frac{A}{V} \text{ кЗМ / см}^3 \quad (5)$$

Zarbiy qovushoqlik "a" qancha kichik bo'lsa, material zarb kuchiga shuncha yaxshi qarshilik ko'rsatadi.

MK -30 tipidagi mayatnik kopyor



37 shakl

(1) cho'yan plita, (2) plitaga yopilgan ikkita vertikal ustun, (3) tebrangich, (4) rama.

O'ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Qanday hodisa zarb deb ataladi?
2. zarb ta'siridan o'tkaziladigan sinov necha xil ko'rinishda o'tkaziladi?
3. zarbiy qovushoqlik nima va qanday topiladi?
4. eguvchi zarba deb nimaga aytiladi?
5. cho'zuvchi zarba deb nimaga aytiladi?

DEFORMATSIYA VA KUCHLANISHNI EKSPERIMENTAL TEKSHIRISH UMUMIY TUSHUNCHA

Har-xil materiallarning hisoblashda ishlatiladigan mustahkamlik va plastiklik xarakteristikalarini eksperimental yo'l bilan olingan. Bu esa injenerlik hisoblash ishlarida deformatsiya va kuchlanishi eksperimental tekshirish yo'l bilan aniqlash naqadar muhim ekanligini ko'rsatada. Buni ham eslatib o'tish kerakki eksperimental elastiklik moduli va proportsionallik chegarasi juda oson aniqlanishi qo'llanimada aytilgan.

Ammo mashina qismlaridagi yoki inshoot elementlaridagi deformatsiya va kuchlanishning taqsimlanishini o'rganish uchun eksperimentatordan katta mahorat talab qilinadi. Masalan, cheklannishlar va gipotezalar ishlatish asosida chiqarilgan hisobotlash formulalariga to'g'ri kelada.


Bundan tashqari, detallarning shakli murakkabligidan masalani umuman nazariy echib bo'lmaydi. Bunday hollarda inshoot moddalarini eksperimental o'rganish katta rol o'ynaydi. Ba'zan, model tayyorlamasdan, balki ob'ektni haqiqiy o'lchamlarda tayyorlab, uni laboratoriya yoki eksplutatsiya sharoitida uzoq vaqt kuzatiladi. Masalan, shu maqsadda prolyotli ko'priklar quriladi.

Bunday hollarda, ko'pincha, kuchlanishni aniqlash uchun tenzometriya usuli ishlatiladi.

Tenzometriya

Konstruktsiyalarni sinash texnikasida keyingi o'n yillar mobaynida simli datchik keng tarqalgan bo'lib, yaxshi natijalar bermoqda.

Simli datchik zigzak shaklidagi ingichka (yo'g'onligi 0,015-0,030 mm) simni qog'oz polasasi ustiga elimlab yopishtirib tayyorlanadi (38-shvkl). Simcha uchiga sim kavsharlab yoki payvandlab ulanadi.



38 – shakl

Datchik sinalayotgan detal ustiga elimlab yopishtirib, baza oralig'i ℓ iloji boricha o'lchanadigan deformatsiya yo'nalishida qo'iladi. Zich elimlangan simcha sinalayotgan detal bilan birga cho'zilib, Om qarshiligi o'zgaradi va deformatsiya ko'rsatkichi sifatida qayd qilinadi.

Tajriba shuni tasdiqlaydiki, sim Om qarshiligining nisbiy o'zgarish $\frac{\Delta R}{R}$ uzunligi to'g'ri proporsional:

$$\frac{\Delta R}{R} = \gamma_0 \varepsilon$$

Bu erda: γ_0 tenzo sezgirlik koeffitsenti - γ_0 har xil materiallar uchun o'zgaruvchan bo'lib, 2-3,5.

Masalan, nixrom uchun $\gamma_0 = 2,1 \div 2,3$; konstan uchun $\gamma_0 = 2,0 \div 2,1$;

Simli datchikning uslari yarim aylana shaklida bo'lgani uchun faqat bo'ylama deformatsiyani emas, balki ko'ndalang deformatsiyani ham aniqlangan.

$$\frac{\Delta R}{R} = \gamma \varepsilon_x + \delta \varepsilon_y$$


Bu erda - ε_x va ε_{y-x} va u o'qlari yo'nalishidagi uzayish (cho'zilish).

γ va δ datchikning bo'ylama va ko'ndalang tenzo sezgirlik koeffitsenti bo'lib, tarirovka yo'li bilan aniqlanadi.

Baza ℓ ning kattalanishi bilan γ va γ_0 orasidagi farq kmayadi va bazasi $\ell = 20$ li datchiklar uchun g'oyatda kichik bo'ladi. δ - koeffitsentning miqdori ham shunchalik kichik bo'ladi. Bazasi kichik ($\ell < 5$ mm) datchiklarda δ bilan γ miqdori o'lchanishga layoqatli, bo'lib, kuchlanishlarni hisoblashda ko'ndalang tenzo sezgirlik koeffitsentini e'tiborga olish zarur.


Murakkab konstruktsiya elementlaridagi kuchlanish holatini tekshirishda ko'pincha bosh kuchlanishlarning miqdorigina emas, balki yo'nalishlarini ham

topishga to'g'ri keladi. Bunday hollarda tekshirilayotgan elementga 45^0 burchak tashkil qiladigan (39-shakl) yo'nalishlarda bir yo'la rezetkali datchik o'rnatiladi.



39 – shakl

Uch tomonlama uzaytishni o'lchash natijasida bosh o'qlarning yo'nalishini aniqlovchi burchak va asosiy uzayish osongina aniqlanadi. Buning uchun quyidagicha yo'l tutiladi: bosh o'qlar x va u ga deformatsiya qo'yiladi (40-shakl). X o'qi bilan φ burchak tashkil qiladigan AV bo'lakning



40 - shakl

Absolyut uzayishi

$$\frac{\partial U}{\partial S} ds \cos \varphi + \frac{\partial U}{\partial S} ds \sin \varphi$$

Bu erda U va $U - x$ va u o'qlari bo'yicha ko'chish.

I uq bo'yicha nisbiy uzayish:

$$\varepsilon_1 = \frac{\partial U}{\partial S} \cos \varphi + \frac{\partial U}{\partial S} \sin \varphi$$

Yoki

$$\varepsilon_1 = \frac{\partial U}{\partial X} \cos^2 \varphi + \frac{\partial U}{\partial Y} \sin^2 \varphi$$

Bundan

$$\varepsilon_1 = \varepsilon_x \cos^2 \varphi + \varepsilon_y \sin^2 \varphi$$

Datchikning o'qlariga to'g'ri kelgan uchta o'q uchun (41-shakl) esa tegishli:

$$\varepsilon_1 = \varepsilon_x \cos^2 \varphi + \varepsilon_y \sin^2 \varphi$$


$$\varepsilon_{11} = \varepsilon_x \cos^2(\varphi + 45^\circ) + \varepsilon_y \sin^2(\varphi + 45^\circ)$$

$$\varepsilon_{111} = \varepsilon_x \cos^2(\varphi + 90^\circ) + \varepsilon_y \sin^2(\varphi + 90^\circ)$$

Murakkab bo'lmagan o'zgartishdan keyin:

$$\operatorname{tg} 2\varphi = \frac{\varepsilon_1 - 2\varepsilon_{11} + \varepsilon_{111}}{\varepsilon_1 + \varepsilon_{111}} \quad (1)$$

$$\varepsilon_x = \frac{\varepsilon_1 + \varepsilon_{111}}{2} \pm \sqrt{(\varepsilon_1 - \varepsilon_{111})^2 + (\varepsilon_1 - 2\varepsilon_{11} + \varepsilon_{111})^2} \quad (2)$$



41 – shakl

Inshootning ayrim nuqtalaridagi kichik deformatsiyalarning o'lchashdan Guk qonunidan foydalanib kuchlanishni topishga o'tish mumkin.

1. Oddiy siqilish yoki cho'zilishga ishlayotgan sterjenlardagi kuchlanishni aniqlash uchun bita tenzometr qo'yilish kifoya baza ℓ ni σ yo'nalishida qo'yish kerak. (42-shakl, a) kuzatish bilan ε aniqlangandan so'ng, Guk qonunidan topamiz.


$$\sigma = \varepsilon E$$

2. Berilgan nuqtada faqat bosh kuchlanishlar σ_1 va σ_2 ning yo'nalishi ma'lum. Bu kuchlanishlarning miqdorini topish uchun ikkita tenzometr qo'yiladi,

bazalari σ_1 va σ_2 yo'nalishida bo'lsin (42-rasm, b). bular yordamida bosh deformatsiyalar ε_1 va ε_2 ni topamiz, so'ngra tekis kuchlanish holatida Gukning umumiy lashgan qonunidan foydalanib kuchlanishlarni aniqlaymiz:

$$\sigma_1 = \frac{E}{1 - \mu^2} (\varepsilon_1 + \mu \varepsilon_2)$$

$$\sigma_2 = \frac{E}{1 - \mu^2} (\varepsilon_2 + \mu \varepsilon_1)$$




42 – shakl

OSTSILLOGRAFLAR

7. Materiallar qarshiligi mashina yoki inshootlarning qismlarida (elementlarida) hosil bo'ladigan zo'riqish va deformatsiyalarni aniqlash usullarini va materiallarning ba'zi fizik (fizikaviy) xossalarini eksperiment (tajriba) yordamida tekshirish yo'llarini o'rgatuvchi fandır.
8. Inshootlarning qismlariga ta'sir qiladigan kuchlar ikki turga: hajmiy va sirtqi kuchlarga bo'linadi. Kuch jism hajmining barcha nuqtalariga quyilgan bo'lsa, bunday kuch **hajmiy kuch** deyiladi.
9. Cho'zilish yoki siqilish – Brusning ko'ndalang kesimida faqat bitta ichki bo'ylama kuch (N) xosil bshladi. Brusning markaziy shyi bo'ylab modullari teng qarama – qarshi yo'nalgan ikkita kuch ta'sir ettirsak cho'zilish yoki siqilish deformatsiyasi sodir bo'ladi.
10. Siljish (qirqilish, ezilish) – konstruktsiya elementinig ko'ndalang kesimida (Q_x yoki Q_y) ko'ndalang kuch xosil bo'ladi. Bunday deformatsiya payvand choklari, parchin mixlar va rezbali birikmalarda xosil bo'ladi.

11. Egilish – balkaning ko'ndalang kesimlarida ichki eguvchi moment M_x yoki M_y xosil bo'ladi. Ko'pincha eguvchi moment bilan bar vaqtda ko'ndalang kuch ham xosil bo'ladi
12. Buralish – brusning ko'ndalang kesimida buralish momenti (M_z) xosil bo'ladi. Buralishga ishlaydigan konstruktsiya elementlaridan misol qilib mashinaning vallari va ko'pgina qurilish konstruktsiya materiallari bo'lishi mumkin.
13. Murakkab deformatsiya (Murakkab qarshilik) – Brusning ko'ndalang kesimida bir vaqtda bir nechta ichki kuchlar xosil bo'ladi. Masalan egilish bilan buralishni bargalikdagi ta'siri, bo'ylama egilish
14. Sterjeining uzunligi bo'yicha ichki kuch o'zgarishini ko'rsatadigan grafik **ichki kuch epyurasi** yoki **bo'ylama kuch epyurasi** deyiladi
15. Maksimal kuchlanish to'g'ri kelgan kesimga **xavfli kesim** deyiladi
16. plastik materiallar, bularga po'lat, miss, dyuralyuminiy kabi materiallar kiradi. Bunday materiallar sezilarli darajada deformatsiya qoldirib emiriladi.
17. Mo'rt materiallar, bularga cho'yan, beton, g'isht kabi materiallar kiradi. Bu materiallar juda oz deformatsiya qoldirib emiriladi.
18. Konstruktsiyaning emirilmay, uzoq vaqt xavsiz ishlashini ta'minlaydigan eng katta kuchlanish *ruxsat etilgan kuchlanish* deyiladi.
19. Ruxsat etilgan kuchlanishni aniqlashda xavfli kuchlanishni kamaytiradigan son *ehtiyot koeffitsienti* deyiladi va k harfi bilan belgilanadi.
20. **M u s t a x k a m l i k n i t e k s h i r i s h.** Buning uchun sterjen kesim yuzasidagi eng katta kuchlanish aniqlanadi va ruxsat etilgan kuchlanishga solishtiriladi, ya'ni :
21. $\sigma_{\max} \leq [\sigma]$.
22. **R u x s a t e t i l g a n y u z a n i t o p i s h .** Bunda berilgan kuchni (yukni) ko'tara oladigan yuza quyidagi formuladan topiladi:

$$23. [F] \geq \frac{N_{\max}}{[\sigma]} .$$

24. **Konstruksiya qismlarining yuk kutarish**

25. **Qobiliyatini aniqlash:**

26. $[N] \leq [\sigma] \cdot F$.

27. Egilishga qarshilik ko'rsatuvchi sterjenlarni **balkalar** deb ataladi.

28. Balkaga qo'yilgan yuklar uning simmetriya tekisligida yotsa, bunday egilish **tekis egilish** deyiladi.

29. Agar balkaning tayanch reaksiyalari faqat statika tenglamalari yordamida aniqlansa, bunday balkalar **statik aniq balkalar** deyiladi.

30. Agar noma'lum reaksiyalar soni, shu balka uchun tuzilgan statika tenglamalari sonidan ortib ketsa, u holda, balkalar **statik anshmas balkalar** deyiladi.

31. Zo'riqish kuchlaridan birini ifodalovchi juft kuch momenti **eguvchi moment** deyiladi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

“TEXNIKA FANLARI” KAFEDRASI

“Tasdiqlayman”
Nizomiy nomidagi TDPU rektori
_____ F.I.Haydarov
“_____” dekabr 2010 y.

**KASBIY TA'LIM BAKALAVRIAT YO'NALISHI TALABALARINI
MATERIALLAR QARSHILIGII FANIDAN BILIMLARINI BAHOLASH
MEZONLARI**

TOSHKENT- 2010

Ushbu to'plamda "Materiallar qarshiligi" fanidan oraliq va yakuniy nazoratni "YOzma ish" shaklida o'tkazish tartibi, talabalar bilimni baholash mezonlari, savollar va testlar hamda tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati berilgan. To'plam kasb va mehnat ta'limi bakalavriat yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan.

Tuzuvchilar:

Nizomiy nomidagi TDPU «Texnika fanlari» kafedrası
katta o'qituvchisi N.S.Asomutdinov
katta o'qituvchisi M.T.Maxmudova

Taqrizchilar:

Nizomiy nomidagi TDPU Texnika fanlari kafedrasining mudiri
prof.B.Muxammadsaidov.,
TAYIning amaliy mexanika kafedrası dotsenti I.Nurmatov

"Texnika fanlari" kafedrasining 2010 yil 9 dekabrda 8-sonli kafedra yig'ilishida tasdiqlangan.

I. Oraliq va yakuniy nazoratda “YOzma ish” ni o`tkazish tartibi

Mamlakatimizda bozor munosabatlariga o`tishning hozirgi bosqichida, talaba-yoshlarda zamon talablariga javob beradigan kasbiy fazilatlarni tarkib toptirish va tarbiyalashda, ularning ongi va dunyoqarashining shakllanishida umumkasbiy fanlardan bilimlari hozirgi davr talablari darajasida bo`lishi ta`minlanib borilmoqda.

Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi “Oliy ta`lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to`g`risidagi Nizomga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish haqida”gi 333-sonli buyrug`ida talabalar bilimlarini nazorati “YOzma ish” shaklida kafedra qaroriga asosan o`tkazilishi tavsiya etilgan.

“Materiallar qarshiligi” fanidan oraliq va yakuniy nazorat bakalavriat yo`nalishi kasb va mehnat ta`limi talabalarida suyuqliklarni muvozanat va harakat qonunlarini hamda bu qonunlarni halq xo`jaligining turli sohalarida tatbiq etilishi va ularga mos turli masalalarning echimlariga oid bilim va ko`nikmalarini shakllanganlik darajasini aniqlaydi.

Oraliq va yakuniy nazorat “YOzma ish” lari ko`p variantli usulda o`tkaziladi. Har bir variantga uchtdan savol va 10 ta test kiritiladi.

Oraliq nazoratlarga jami 30 ball berilgan (Oraliq nazorat 2 marta o`tkazilishi mo`ljallangan bo`lsa har bir oraliq nazoratga 15 ball ajratiladi) bo`lib har bir oraliq nazoratni o`tkazishga 80 minutdan vaqt ajratiladi.

Yakuniy nazoratga 30 ball ajratilgan va uni o`tkazishga 2 soat vaqt beriladi. Oraliq va yakuniy nazorat quyidagi mavzular doirasida o`tkaziladi:

Fanni o`zlashtirgandan keyin talaba: mashina va inshootlarning konstruktiv elementlarini mustaxkamlik, bikirlik, ustuvorlik to`g`risida *tasavvurga ega bo`lishi*;

Materiallar qarshiligi fanini o`rganish natijasida Konstruktiv elementlar haqida tushuncha, Ko`ndalang deformatsiya, Puasson koeffitsienti materiallarning xossalari va klassifikatsiyasi. Ruxsat etilgan kuchlanish. Siljish deformatsiyasi. Siljishda ruxsat etilgan kuchlanish. Parchin mixli va payvandli birikmalarning hisobi. Buralish deformatsiyasi haqida tushuncha. Tekis kesim yuzalarining geometrik xarakteristikalar haqida *nazariy bilimlarga ega bo`lishi*;

Oddiy kesimlarning inertsia va qarshilik momentlari. Tayanchlarning hillari, eguvchi moment, ko`ndalang kuch epyuralarini qurish. Sof egilish. Egilishdagi normal kuchlanish. Egilashdagi urinma kuchlanish va murakkab kuchlanishlarni hisoblash metodlari to`g`risida *amaliy ko`nikmalarni egallashi*;

Umuman olganda mashina va konstruktiv elementlarni mustahkamlikka, bikaqlikka, ustuvorlikka hisoblash bo`yicha *malakalarni egallashi zarur*;

II. Oraliq va yakuniy nazoratlarda talabalar bilimini “YOzma ish” shaklida baholash

MEZONI

Oraliq va yakuniy nazorat “YOzma ish”lariga ajratilgan ballar quyidagicha taqsimlanadi:

a) 86-100 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berilishi lozim: inshoot va mashinalarning konstruktiv elementlarinin mustaxkamlikka, bikirlikka, ustuvorlikka hisoblash asoslari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi, ichki kuch va deformatsiyalarni aniqlashni amalda qo'llay olishi, texnik masallalarini echishda optimal usullarini tanlashda ijodiy fikiray olish hulosa va qaror qabul qilish kerak.

b) 71-85 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berilishi lozim: inshoot va mashinalarning konstruktiv elementlarinin mustaxkamlikka, bikirlikka, ustuvorlikka hisoblash asoslari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi, ichki kuch va deformatsiyalarni aniqlashni amalda qo'llay olishi kerak.

v) 56-70 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berilishi lozim: inshoot va mashinalarning konstruktiv elementlarinin mustaxkamlikka, bikirlikka, ustuvorlikka hisoblash asoslari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi kerak.

g) quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi 0-55 ball bilan baholash mumkin: aniq tasavvurga ega bo'lmaslik, bilmaslik.

III. Materiallar qarshiligi fanidan savollar

66. Materiallar karshiligi fanining asosiy vazifasi.
67. Konstruktsiya elementlari xdkida tushuncha.
68. Materiallar karshiligida kabul kilingan cheklanishlar (gipotezalar).
69. Tashki kuchlar va ularning klassifikatsiyasi.
70. Ichki kuchlar va ularni aniklash metodi.
71. Kuchlanishlar va ularni aniklash.
72. Deformatsiya va ularning turlari.
73. Mexanik kiymatlarning ulchov birliklari.
74. CHuzilish va sikilish. CHuzuvchi va sikuvchi kuchlar ta'siridan xosil bulgan ichki kuch na kuchlaiishlar.
75. Kundalang kesimdagi kuchlanish.
76. Sterjen ukiga nisbatan kiya tekislikdagi kuchlanish. Normal va urinma kuchlanishlar.
77. Buylama deformatsiya. Guk konuni. Proportsionallik koefitsienti
78. Kundalang va nisbiy deformatsiya. Puasson koefitsient.
79. Materiallarni xossalari va ularning klassifikatsiyam. Plastik va murt materiallar. Plastik materiallarning chuzilish diagrammasi. Murt materiallarning chu^zilish diagrammasi.

80. Plastik materiallarning sikilish diagrammasi. Murt materiallarning sikilish xarakteristikasi va diagrammasi.
81. Materiallarning mustaxkamligini oshirish omillari.
82. Ruxsat etilgan kuchlanish va mustahkamlik koeffitsienta
83. CHuzilishga va sikilishga ishlayotgan sterjenlarning mustaxkamlik sharti. Temperaturani mustaxkamlikka ta`siri.
84. CHuzilishga va sikilishga ishlayotgan sterjsnlarni xisoblash; sterjenlar o`z og`irliklarining ta`siri.
85. CHuzilish va sikilishdagi statik anikmas masalalar.
86. Xalkd kesim yuzasida xosil buladigan kuchlanish.
87. CHuzilish va sikilish deformatsiyasiga oid masalalar echish tartibi.
88. Siljish. Siljish deformatsiyasining xosil bulishi va xarakteristikasi.
89. Sof siljishdagi kuchlanish. Siljish uchun Guk qonuni. Nisbiy siljish.
90. Siljishdagi ruxsat etilgan kuchlanish.
91. Ezilish. Ezilishdagi ruxsat etilgan kuchlanish.
92. Siljish deformatsiyasidagi detallarni xisoblash tartibi.
93. Parchin mixli birikmalarni xisoblash.
94. Parchin mixli birikmalarning xillari. Parchin mixni kesilishga xisobi.
95. Parchin mixchi ezilishga xisoblash.
96. Payvand birikmalarni xisoblash tartibi.
97. Buralish deformatsiyasi xakida tushuncha.
98. Tekis kesim yuzalarining geometrik xarakteristikalapi. Kesim yuzaning statik momenti. Kesim yuzaning inertsia momentlari,
99. Ba`zi oddiy kesimlarning inertsia va karshilik momentlari. Tugri turtburchak shaklidagi kesimning inertsia momenti. Tugri turtburchakli kesim yuzaning markaziy Ukka nisbatan karshilik momenti. Doyra shaklidagi kesim yuzaning kutb inertsia va karshilik momenti. Xdpkasimon kesim yuzaning inertsia va karshilik momenti. Uchburchak shaklidagi kesim yuzaning inertsia momenti.
100. Burovchi moment uning val kuvvati xamda aylanishlar soni bilai boglanishi. Burovchi moment epyuralari.
101. Sterjenlarning buralishidan xosil bulgan kuchlanish va deformatsiya.
102. Prujinada xosil bulgan kuchlanish va deformatsiya.
103. Prujina deformatsiyasini anitslash.
104. Buralishga ishlayotgan sterjenni mustaxkamlikka va bikrlikka hisoblash.
105. Buralish deformatsiyasiga oid masalalar echish tartibi.
106. Ezilish deformatsiyasi. Ezilish deformatsiey xakida umumiy tushuncha.
107. Tayanchlarning xillari va reaksiya kuchlari.
108. Tayanch reaksiyalarini anikdash.

109. Balkalarda xosil buladigan kuchlanishlar. Eguvchi moment va kesib utuvchi kuch.
110. Eng oddiy xol uchun eguvchi moment va kesib utuvchi kuchlarning epyuralarini kurish.
111. Sof egilish.
112. Egilishdagi urinma kuchlanish.
113. Balkalarni mustaxkamligini normal va urinma kuchlanish buyicha tekshirish.
114. Balkaningegilishini xisoblashga doyr masala.
115. Mustaxkamlik shartidan foydalanib kesim tanlash.
116. Bosh kuchlanishlar xakida tushuncha.
117. Mustaxkamlik nazariyasi xakida tushuncha.
118. Murakkab kuchlanish xolatidagi jismlarining mustaxkamligini turli mustaxkamlik nazariyalar asosida tekshirish.
119. Murakkab karshilik. Kuchlanish xolatinipg turlari va xisoblash metod i.
120. Kiishik egilish.
121. CHuzilish va egilish deformatsiyalarining bir vaktida kelishi.
122. Murakkab karshilik deformatsiyasiga doyr masalalar echish.
123. Buylama egilish va ustivorlik . Ustivorlik va kritik kuch.
124. Kritik kuchni anikdash. Eyler formulasi.
125. Sterjen uchlarini tayanchga biriktirish usulining ustivorlikka ta`siri.
126. Kritik kuchlanish va Eyler formulasining ishlatish chegarasi.
127. Sikilgan sterjinni ustivorlikka xisoblash.
128. Nagruzka ta`siridagi elementlarning mustaxkamligini tekshirish.
Dinamik kuch va kuchlanish.
129. Inertiya kuchlari ta`siridagi inshoot va mashina kismlarining xisobi.
130. Materiallarning tolikish xollari va chidamlilik tushunchasi.

IV. Materiallar qarshiligi fanidan test savollari

Mehnat ta'limi yo'nalishining 3-kurs talabalari uchun "Materiallar qarshiligi" fanidan test savollari.

1. Deformatsiya kattaligi qanday omillarga bog'liq?

Kuchning kattaligi va detalning o'lchamlariga

Detalning materialiga, hajmiga, yuklanishiga

*Detalning materialiga, yuklanishiga va ko'ndalang kesim yuzasiga

Detalning materialiga va o'lchamlariga

2. Detalga ta'sir etuvchi yuklanishning kattaligiga qarab, deformatsiyaning qiymati to'g'risida fikr yuritish mumkinmi?

Mumkin

Mumkin emas

*Uzunligi va kesim yuzasiga bog'liq

Ayrim xollarda mumkin

3. Quyidagi holatlarda qaysi biri elastik deformatsiyaga misol bo'lishi mumkin.

Po'lat arqonning yuk og'irligidan cho'zilishi

Namunaning bolg'lash paytida siqilishi

Trubaning egish stanogida egilishi

*Po'lat sim tayyorlashda simning cho'zilishi

4. Quyidagi xolatlarda qaysi biri qoldiq deformatsiyaga misol bo'lishi mumkin.

Relisning poezd og'irligidan egilishi

Rezina amortizatorning zo'zilishi

Po'lat prujinaning siqilishi

*Prujina tayyorlashda simning o'ralishi

5. Parmalash pradtssessida parma qanday deformatsiya ta'sirida bo'ladi

*Buralish

CHO'zilish

Siljish

Egilish

6. Detalning tashqi sirtini yo'nishda o'tish rezitsining turtkichi qanday deformatsiya ta'sirida bo'ladi.

CHO'zilish

*Egilish

Siqilish

Buralish

7. Tirsakli val qanday deformatsiya ta'sirida ishlaydi.

Siqilish, buralish

CHO'zilish, egilish

*Egilish, buralish

siljish, cho'zilish

8. Detalni qisadigan parallel tiskilarning vinti qanday deformatsiya ta'sirida bo'ladi.

CHO'zilish, egilish

Siqilish, egilish

Siljish, buralish

*Buralish, cho'zilish

9. Loyixalash quyidagi formulalarni qaysi biri qo'llaniladi.

$$\sigma = \frac{P}{E}$$

$$* F = \frac{P}{[\sigma]}$$

$$P = \sigma \cdot F$$

$$F = \frac{P}{\sigma}$$

10. Bir xil materialdan ikkita sterjen tayyorlangan: biri dumaloq, ikkinchisi esa kvadrat kesimli. Aylananing diametri kvadrat qirrasining uzunligiga teng. CHO'zuvchi kuch teng bo'lsa, qaysi sterjen mustahkamroq bo'ladi?

Mustahkamligi bir xil

*YUmaloq kesimli sterjen mustahkamroq

Kvadrat kesimli sterjen mustahkamroq

To'g'ri javob yo'q

11. Bir xil materialdan tayyorlangan va kesimlari teng ikkita sterjenga bir xil kuch ta'sir etganda ularning uzayishi turlichabo'lishi mumkinmi?

*Agar sterjenlarning uzunliklari bir xil bo'lmasa ularning absolyut uzayishlari turlicha bo'lishi mumkin.

Kuch teng ta'sir etganidan absolyut uzayish xar-xil bo'lmaydi

Sterjenlarning materiali bir xil, ko'ndalang kesimi bir xil bo'lganidan, absolyut uzayish xam teng bo'ladi

Sterjenlarning ko'ndalang kesimi teng bo'lganida absolyut uzayish xam teng bo'ladi

12. Valning diametrini buralishga xisoblashda nimalarni bilish kerak?

Ta'sir etuvchi kuchni va xaqiqiy kuchlanishlarni

*Burovchi momentni va ruxsat etilgan kuchlanishni

Val uzatadigan quvvatni

Urinma kuchlanishni

13. Valni buralishida paydo bo'ladigan haqiqiy kuchlanishlarin qaysi formula yordamida topish mumkin?

$$[\tau] = \frac{M_{\tau}}{W_p}$$

$$W = 0,2 d^3$$

$$W_p = \frac{M_{\tau}}{[\tau]}$$

$$\tau = \frac{M_{\tau}}{W_p}$$

*

14. P kuch ta'sirida egilgan balkaning qaysi sirtidagitolalari egilish natijasida cho'ziladi?


botiq tamonidagi

netral qatlam tolalari

*qavariq tamonidagi tolalari

botiq netral qatlami tolalari

15. R kuch ta'sir etganda qaysi sterjinning egilishdaga kuchlanishi kata bo'ladi?




Barcha sterjinlar bir xil kuchlangan

Sterjin A

Sterjin B

*Sterjin V

16. Egilishda qaysi kesim ($R=R_1$) eng xavfli bo'ladi?



I kesim

*II kesim

III kesim

Barcha kesimlar bir xilda xavfli

17. To'g'ri to'rtburchak kesmlibalkaning egilishdagi qarshilik momenti qaysi formula yordamida topiladi?

$$0.2 d^3$$

$$0.1 d^3$$

$$* \frac{bh^2}{6}$$

P L

18. Teng o'lchamli 4 sterjin bir xil materialdan tayyorlangan. Uchlari quyudagicha maxkamlangan, qaysi balka bo'ylama egilishda eng kata yuklamaga bardosh bera oladi?

*Ikkala uchi maxkamlangan

Bir uchi maxkamlangan, ikkinchi uchi esa sharnerli biriktirilgan.

Bir uchi maxkamlangan, ikkinchi uchi erkin.

Ikkala uchi sharnerga biriktirilgan.

19. Val kesimining qanday nuqtalarida eng katta burilishdagi kuchlanish sodir bo'ladi?

1-nuqtada

2-nuqtada

*3-nuqtada

Hamma nuqtalarda kuchlanish bir xil sodir bo'ladi.

20. Sof buralishda valning diometri ortsa uning mustahkamligi qanday o'zgaradi?

Ortadi

*Kamayadi

O'zgarmaydi

Ishorasi o'zgaradi

21. Materiallar qarshiligi fani nimani o'rgatadi?

Mashinalarni mustahkam, bikr, ustuvor bo'lishini hisoblashda zarur bo'lgan deformatsiyalarni aniqlash metodlarini.

Mashina va inshoot qismlarining mustahkam va ustivor bo'lishini hisoblashda zarur bo'lgan zo'riqishni aniqlash metodlarini.

*Mashina va inshoot qismlarining mustahkam, bikr va ustivor bo'lishini hisoblashda zarur bo'lgan zo'riqish va deformatsiyalarni aniqlash metodlarini

Mashina va inshoot qismlarining mustahkam, bikr va ustivor bo'lishini hisoblash metodlarini o'rgatadi.

22. Deformatsiya qanday asboblarda yordamida o'lchanadi.

Tenzometr

Strelkali indikator

*Richagli tenzometr

1-2 qatordagi javoblar to'g'ri

23. Qanday birikma ustma- ust birikma deyiladi.

*Listlar bir tekislikka qo'yilib, ustqo'yma orqali biriktirilsa.

Ikki list o'zaro biriktirilsa.

Ikki list bir-birini ustiga qo'yilib biriktirilsa.

Listlar o'zaro biriktirilsa.

24. Qanday epyura burovchi moment epyurasi deyiladi.

*Val uchastkalarining kesimlarida topilgan burovchi momentlar orqali valning butun uzunligi bo'yicha moment o'zgarishini ifodalovchi garfik.

Val uchastkalarining ichki burovchi momentlar orqali valning butun uzunligi bo'yicha o'zgarishini ifodalovchi grafik.

Burovchi momentlar orqali valning uzunligi bo'yicha o'zgarashni ko'rsatuvchi grafik.

Hamma javoblar to'g'ri.

25. Qanday parchin mixli birikma turlarini bilasiz.

*Uchma-uch ulangan, usts-ust ulangan.

Uchma-uch ulangan, payvandlangan.

Ustma-ust ulangan.

Payvandlangan.

26. Doira shaklidagi kesim yuzaning qutb qarshilik momenti nimaga teng?

*Doira shaklidagi kesim yuzaning qutb inertsia momentining eng katta radiusga bo'lgan nisbatiga.

O'qlarga nisbatan olingan inertsia momentlarning yig'indisi qutb inertsia momentini berishiga.

O'qqa nisbatan inertsia momentining maksimal radiusga bo'lgan nisbatiga.

O'qqa nisbatan inertsia momentining minimal radiusga bo'lgan nisbatiga.

27. Statikaning bir tekislikda yotgan kuchlar sistemasi uchun muvozanat tenglamasini toping?

$$*\sum X = 0; \sum Y = 0; \sum M_0 = 0;$$

$$\sum M_A = 0; \sum M_B = 0; \sum X = 0;$$

$$\sum Z = 0; \sum M_Z = 0;$$

$$\sum X = 0; \sum Y = 0;$$

28. Qanday hollarda balka cof egilishga ishlaydi?

*Simmetriya tekisligida yotgan qarama-qarshi yo'nalishdagi momentlar ta'sirida.

Simmetriya tekisligida tik yo'nalishdagi momentlar ta'sirida.

Qarama-qarshi yo'nalishdagi ikki egiluvchi moment ta'sirida.

Qarama-qarshi yo'nalgan kuchlar ta'sirida.

29. Ikkinchi mustahkamlik nazariyasi nechanchi yil kim tomonidan yaratildi?

*1682yil B.Mariott.

1773 yil Kulon.

XVII asr Galiley.

XIX asr D.I.Juravskiy.

30. Balkaning ko'ndalang kesimi to'rtburchakdan iborat bo'lsa, to'g'ri egilishda uning qatlamlarida normal kuchlanish qanday qonuniyat bilan tafsirlanadi?

*To'g'ri chiziq.

Giperola.

Ellips.

Uchburchak.

31. Qanday sterjen ustivor sterjen bo'ladi?

*Agar sterjen (R) kuch tasirida deformatsiyalanib o'zining vertikal holatini saqlasa va gorizontal yo'nalishda tashqi kuch ta'sirida ozgina egilib yana o'zining ilgariga vertikal holatiga qaytsa.

Agar sterjenga gorizontal tekislik bo'ylab tashqi kuch ta'sir etgandan so'ng, u o'z vertikal holatiga qaytmasa yoki (R) kuchning ma'lum qiymatida vertikal holatini buzib egila boshlasa.

Agar sterjenga har qanaqa kuch ta'siridan so'ng deformatsiyalanib, o'zning vertikal holatiga qaytsa.

Agar sterjenga har qanaqa kuch ta'siridan so'ng deformatsiyalanib, o'zning gorizontal holatiga qaytsa.

32. Eyler formulasiga ta'rif bering?

Kritik kuch ikki uchi sharnirli biriktirilgan stkrjnlarning uzunligi kvadratiga to'g'ri prportsional, kesim bikrligiga teskari proportsional.

Ikki uchi sharnirli biriktirilgan sterjenlarning kesim yuzasiga to'g'ri proportsional, uzunligi vadratiga teskari proportsional.

*Kritik kuch ikki uchui sharnirli biriktirilgan sterjenlarning kesim bikrligiga to'g'ri propartsional bo'lib, uzunligi kvadratiga teskari propartsional.

Kritik kuch ikki uchui sharnirli biriktirilgan sterjenlarning kesim bikrligiga to'g'ri propartsional bo'lib, uzunligi teskari propartsional.

33. Toliqish deb nimaga aytiladi?

*Sterjenning kesim yuzasida xosil bo'lgan kuchlanishning ruxsat etilganidan kichik bo'lishiga qaramay sinib ketishiga

Sterjenning qovushoq xolatidan sekin asta mort xolatiga o'tishiga

Sterjenning qovushoq xolatiga o'tishiga

Sterjenning kesim yuzasida xosil bo'lgan kuchlanishning ruxsat etilganiga teng

34. Sterjen materialining sifatini va unga qo'yiladigan tashqi kuchlarning miqdorini o'zgartirish mumkun bo'lmasa, mustahkamlikni oshirish uchun qanday chora ko'rish mumkun?

Sterjen uzunligi orttiriladi

*Qattiqroq materialdan yasalgan sterjin olinadi

Sterjen ko'ndalang kesim yuzasi orttiriladi

Sterjenni bo'ylama uzunligi orttiriladi

35. Cho'zilish va siqilishga ishlayotgan sterjenning to'la uzayishi qaysi formulada keltirilgan*

$$\Delta l_p = \frac{pl}{EF} + \frac{Gl}{EF}$$

$$* \Delta l_p = \frac{pl}{EF} + \frac{Gl}{2EF}$$

$$\Delta l_p = \frac{(pG)l}{2EF}$$

$$\Delta l_p = \frac{pl}{2EF} + \frac{Gl}{2EF}$$

36. Absolyut siljish uchun Guk qonuni formulasini toping?

$$* \Delta l_p = \frac{ph}{GF}$$

$$\Delta l_G = \frac{Gl}{2EF}$$

$$\Delta l_p = \frac{pl}{EF}$$

$$\Delta l_p = \frac{ph}{2GF}$$

37. Mashina qismlarining ezilishga mustahkamligi yumshoq po'lat uchun qaysi formula uchun aniqlanadi?

$$*\sigma_{\text{эз}} = \frac{P}{F} \leq [\sigma]_{\text{эз}}$$

$$\sigma_{\text{эз}} = \frac{P}{F} \geq [\sigma]_{\text{эз}}$$

$$\sigma_{\text{эз}} = \frac{P}{F} = [\sigma]_{\text{эз}}$$

$$\sigma_{\text{эз}} = \frac{P}{2F} \leq [\sigma]_{\text{эз}}$$

38. Sof cho'zilishda sterjen ko'ndalang kesimidagi normal kuchlanish qanday yo'nalgan bo'ladi?

Ko'ndalang kesimga urinma bo'ylab

*Ko'ndalang kesimga tik yo'nalgan

Ko'ndalang kesim Bilan 45⁰ burchak hosil qilgan

Ko'ndalang kesim Bilan 30⁰ burchak hosil qilgan

39. Sterjen materialining bikrligi ortsa uning absolyut uzayishi qanday o'zgaradi?

Ortadi

*Kamayadi

O'zgarmaydi

0 ga teng bo'ladi.

40. Tekis kuchlanish holatida qanday yuzalarda urinma kuchlanishlar eng katta bo'ladi?

Bosh o'qlarga tik yo'nalgan yuzalarda

Bosh o'qlar bilan 60⁰ burchak hosil qilgan yuzalarda

*Bosh o'qlar bilan 45⁰ va 135⁰ burchaklar hosil qiluvchi yuzalarda

Bosh o'qlar bilan 90⁰ burchak hosil qilgan yuzalarda

41. Tashqi kuch nima?

*Konstruktsiya qismiga ta'sir qiluvchi nagruzka kuch yoki juft kuch tarzida yoyilgan yoki bir nuqtaga qo'yilgan

Nagruzka kuch yoki juft kuch tarzida qo'yilgan

Nagruzka kuch yoki yoyilgan kuch tarzida qo'yilgan

To'g'ri javob yo'q

42. Qanday kesim xavfli kesim deyiladi?

*Maksimal kuchlanish to'g'ri kelgan kesim

Minimal kuchlanish to'g'ri kelgan kesim

Kuchlanish nolga teng bo'lgan kesim

Kuchlanish birdan farqli bo'lgan holdagi kesim

43. Tekis kesim yuzalarining geometrik xarakteristikalariga nimalar kiradi?

*Statik moment, inertsia momenti, qarshilik momenti

Tekis kesim yuzaning o'lchamlari

Ko'ndalang kesimdagi kuchlanish vaqiya tekislikdagi kuchlanishlar

Inertsia momenti, qutb qarshilik momenti

44. Doira shaklidagi kesim yuzaning qutb qarshilik momenti nimaga teng?

*Doira shaklidagi kesim yuzaning qutb inertsia momentining eng katta radiusga bo'lgan nisbatiga

O'qlarga nisbatan olingan inertsia momentlarining yig'indisi qutb inertsia momentini berishiga

O'qqa nisbatan inertsia momentining maksimal radiusga bo'lgan nisbatiga

O'qqa nisbatan qutb inertsia momentining maksimal radiusga bo'lgan nisbatiga

45. Qanday epyura buralishdagi kuchlanish epyurasi deyiladi?

Kuchlanishni kesim yuza bo'yicha o'zgarishini ko'rsatuvchi grafik

Ichki kuchni kesim yuza bo'yicha o'zgarishini ko'rsatuvchi grafik

Normal kuchlanishning kesim yuza bo'yicha o'zgarishini ko'rsatuvchi grafik

*Urinma kuchlanishning kesim yuza bo'yicha o'zgarishini ko'rsatuvchi grafik

46. Balkalarda hosil bo'ladigan Q_x kuch nimaga teng?

*Tekshirayotgan kesimning bir tomonidagi kuchlarning algebraik yig'indisiga

Tekshirayotgan kesimning bir tomonidagi kuchlarning ayirmasi

Tekshirayotgan kesimning bir tomonidagi kuchlarning ko'paytmasiga

Tekshirayotgan kesimning bir tomonidagi kuchlarning nisbatiga teng

47. Murakkab qarshilik deformatsiyasi tarkibiga qanday tur deformatsiyalar kiradi?

*Qiyshiq egilish, markaziy bo'lmagan kuch ta'sirida siqilish yoki cho'zilish, egilish va buralishning bir vaqtdagi ta'siri

Siqilish yoki cho'zilish, egilish va buralish

Siqilish yoki cho'zilish, siljish, egilish va buralish

Siqilish yoki cho'zilish, siljish

48. Qiyshiq egilishga ishlayotgan balkaning mustahkamlik sharti aniqlansin.

$$\delta_{max} = - \left(\frac{\mu_y}{\varpi_y} + \frac{\mu_z}{\varpi_z} \right) > [\sigma]$$

$$* \delta_{max} = \pm \left(\frac{\mu_y}{\varpi_y} \pm \frac{\mu_z}{\varpi_z} \right) \leq [\sigma]$$

$$\delta_{max} = \pm \left(\frac{\mu_y}{\varpi_y} - \frac{\mu_z}{\varpi_z} \right) \geq [\sigma]$$

$$\delta_{max} = \left(\frac{\mu_y}{\varpi_y} + \frac{\mu_z}{\varpi_z} \right) \geq [\sigma]$$

49. To'rtinchi nazariya (Energetik nazariya)ga ko'ra buralish va egilishga ishlayotgan sterjenning mustahkamlik shartini aniqlang.

$$\sqrt{\sigma^2 + 4\tau^2} \leq [\sigma]$$

$$* \sqrt{\sigma^2 + 3\tau^2} \leq [\sigma]$$

$$\sigma_1 - \sigma_3 \leq [\sigma]$$

$$\sqrt{\sigma^2 - 4\tau^2} \leq [\sigma]$$

50. Qanday egilish bo'ylama egilish deyiladi?

Sterjenning biror bir kuch ta'sirida to'g'ri chiziqli muvozanat holatini yo'qotishi

*Sterjenning kritik kuch ta'sirida to'g'ri chiziqli muvozanat holatidagi ustivorligini yo'qotishi

Sterjenning biror bir kuch ta'sirida gorizontol holatidagi ustivorligini yo'qotishi

Sterjenning biror bir q kuch ta'sirida to'g'ri chiziqli muvozanat holatini yo'qotishi

51. Eyler formulasini qaysi shart bajarilganda qo'llash mumkin.

$$\lambda = \lambda_r$$

$$*\lambda \geq \lambda_r$$

$$\lambda \leq \lambda_r$$

$$\lambda = -\lambda_r$$

52. Quyidagi shartlardan Eyler formulasini ishlatilishi mumkin bo'lgan chegarasini ko'rsatish formulasini aniqlang.

$$*\lambda_{\text{челара}} \geq \pi \sqrt{\frac{E}{\sigma_n}}$$

$$\sigma_n \geq \pi^2 \sqrt{\frac{E}{\lambda^2}}$$

$$\sigma_{\text{критик}} = \frac{\pi^2 E \ell_{\text{мин}}}{\ell_{\text{кел}}^2 \cdot F}$$

$$\lambda_{\text{челара}} \leq \pi \sqrt{\frac{E}{\sigma_n}}$$

53. Siqilishga ishlayotgan sterjenning ustivorlik sharti qaysi formulada o'z aksini topgan.

$$*\sigma_y = \frac{P}{F_{\text{брутто}}} \leq [\sigma]_y$$

$$\sigma_{\bar{n}} = \frac{P}{F_{\text{íàððî}}} \leq [\sigma]_{\bar{n}}$$

$$\sigma_y = \frac{P}{F_{\text{брутто}}} \geq [\sigma]_y$$

$$\sigma_c = \frac{P}{F_{\text{нетто}}} \geq [\sigma]_c$$

54. Guk qonuniga binoan statik kuch ta'sirida absolyut qisqarish deformatsiyasini hisoblash formulasini yozing.

$$a_{\delta} = \sigma_{cm} \cdot a_{\delta}$$

$$\delta_{\delta} = \delta_{cm} \cdot a_{\delta}$$

$$*\delta = \frac{Gl}{EF}$$

$$\delta = \frac{Gl}{2EF}$$

55. Sterjen uchun kritik kuch formulasini toping.

$$* P_{\kappa p} = \pi^2 \frac{EL_{\min}}{4l^2}$$

$$P_{\kappa p} = \frac{4\pi^2 EL_{\min}}{l^2}$$

$$P_{\kappa p} = \frac{\pi^2 EL_{\min}}{l^2}$$

$$P_{\kappa p} = \pi \frac{EL_{\min}}{2l^2}$$

56. Sof cho'zilish holatidagi sterjenning boshlang'ich uzunligi ortsa, bikrlilik koeffitsienti qanday o'zgaradi?

Ortadi

O'zgarmaydi

Nolga intiladi

*Kamayadi

57. Sterjen materialining bikrligi ortsa, uning absolyut uzayishi qanday o'zgaradi?

Ortadi

*kamayadi

o'zgarmaydi

bikrlikka bog'liq emas

58. Sterjenning ustivorligi nimalarga bog'liq?

O'lchamiga, materialiga

Ta'sir qilayotgan kuchning miqdoriga, yo'nalishiga

*O'lchamiga, materialiga, ta'sir qilayotgan kuchning miqdoriga, yo'nalishiga

Materialiga, yo'nalishiga

59. To'g'ri egilishda balka ko'ndalang kesimining neytral qatlamida normal kuchlanish qanday qiymatga ega bo'ladi?

Musbat

Manfiy

*Nol

Eng kata

60. Sterjenning cho'zilishidagi bikrligi deb nimaga aytiladi?

Cho'zuvchi kuchni ko'ndalang kesim yuzasiga ko'paytmasi $E \cdot F$

Sterjenni 1 metr masofaga siljituvchi kuch.

*To'g'ri javob yo'q.

Cho'zuvchi kuchni kesim yuzaga nisbati.

61. To'g'ri egilayotgan konsol balkaning erkin uchi maxkamlab qo'yilsa, masala necha marta statik aniqmas bo'ladi?

1

*2

3

4

62. Qanday jism brus deyiladi ?

Geometrik o'qi egri bo'lgan jism.

*Ko'ndalang kesim o'lchamlari uzunlik o'lchamlariga nisbatan juda kichik bo'lgan jism.

Ikki tayanchda yotgan, geometrik o'qiga tik ta'sir etganda egilishga ishlatiladigan balka.

Qalinligiga nisbatan qolgan ikki o'lchami katta bo'lgan yassi qattiq jism.

63. To'plangan kuch nima?

*Ta'siri bir nuqtaga qo'yilgan kuch.

Jismning sirtidagi yuzaning yoki chiziqning bir qismiga ta'sir qiluvchi kuchlar.

Jismning o'z ogirlik kuchi.

Jismning barcha ichki nuqtalariga ta'sir qiluvchi kuchlar.

64. Kuchlanish deb nimaga aytiladi?

* Kuchning yuzaga nisbati

Kesim yuzasidagi nuqtaga to'g'ri kelgan tashqi kuch.

Kesim yuzasidagi nuqtaga to'g'ri kelgan ichki va tashqi kuch.

Ichki kuchning ajratilgan elementar yuzacha yuziga nisbati.

65. Kuchlanish birligi qilib xalqaro sistemada qanday kattalik qabul qilingan (xalqaro sistemada)

Kg/sm^2 kg/mm^2 t/m

*N/m^2 n/mm^2 MPA

kg/sm^2 kg/m^2 MPa

kgk/sm^2 kgk/m kgks^2/m

66. Balkaning tashqi R kuch qo'yilgan kesimiga to'g'ri kelgan ichki kesuvchi kuch epyurasida qandan o'zgarish bo'ladi?

O'zgarmidi

Ortadi

Kamayadi

*R kuchning miqdoriga teng miqdorda uzulish paydo bo'ladi.

67. Qanday deformatsiya bo'ylama deformatsiya deyiladi?

*Sterjenning o'q bo'ylab yo'nalgan cho'zuvchi va siquvchi kuchlar ta'sirida cho'zilishi yoki siqilishi.

Sterjenning o'q bo'ylab yo'nalgan cho'zuvchi kuch ta'sirida cho'zilish.

Sterjenning o'q bo'ylab yo'nalgan siquvchi kuch.

Sterjenning uzunlik birligiga to'g'ri kelgan deformatsiya.

68. Sterjenning uzunligi (L) va unga ta'sir qilayotgan (N) kuch katta bo'lsa absolyut bo'ylama deformatsiya ($\Delta \ell$) qanday o'zgaradi?

* Katta

Kichik

O'zgarmas

Teng

69. Materiallarning mexanik xarakteristikasiga qanday xossalari kiradi?

*Mustahkamligi, elastikligi, plastikligi, qattiqligi, qovushqoqligi.

Zichligi, issiqdan kengayuvchanligi, magnit xossalari, rangli, elektr o'tkazuvchanligi.

bog'lanuvchanligi, payvandlanuvchanligi, kesib ishlash darajasi, toblanishi.

Issiqbardoshligi, karroziyabardoshligi.

70. St 3 markali pulat uchun nisbiy buylama deformatsiya qiymati nechaga foizga teng?

$$\delta = (18 \div 28)\%$$

$$\delta = (30 \div 70)\%$$

$$* \delta = (8 \div 28)\%$$

$$\delta = (40 \div 65)\%$$

71. Ruqsat etilgan kuchlanish deb qanday kattalikga aytiladi?

*Konstruktsiya elementlarining kesim yuzasidagi hosil bo'lgan va uning xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun olingan eng katta kuchlanish.

Kesim yuzasida hosil bulgan va uning xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun olingan eng kichik kuchlanish.

Kesim yuzasida hosil bulgan va uning xavfisiz ishlashini ta'minlash uchun olingan o'rtacha kuchlanish.

Tashqi zarbiy kuchlarga qarshilik ko'rsatish xususiyatini kamaytaridi.

72. Ehtiyotlik koeffitsienti materiallarning qanday xossalriga bog'liq?

Ishlov berish aniqligiga, tayyorlash sifatiga.

*Aniq ishlanishiga, vazifasiga, unga ta'sir qiluvchi kuchga, kuchlanishga.

Materialning sifati va bir jinsligiga.

Materialning tarkibiga.

73. Cho'zilish va siqilishga ishlayotgan sterjenning mustahkamlik og'irligini hisob olgan holda aniqlansin?

$$\sigma_x \frac{P + F \lambda L}{F} \leq [\sigma]$$

$$\sigma_x = \frac{P + F \lambda L}{F} \geq [\sigma]$$

$$\sigma_x \frac{P + F \lambda L}{F} = [\sigma]$$

$$* \sigma_x = \frac{P + F \lambda L}{F} \leq \sigma$$

74. Statik aniqmas masalalar qanday echiladi?

Muvozanat tenglamasi yordamida.

Kuch epyurasi yordamida.

*Qo'shimcha tenglama tuzish yordamida.

Kesish metodidan foydalanib.

75. Parchin mixlar qanday qotishmalardan tayyorlanadi?

Po'lat, mis.

*YUmshoq po'lat, mis, alyuminiy.

Alyuminiy, po'latg cho'yan.

CHo'yan, po'lat.

76. Qanday birikma uchma-uch birikma deyiladi?

Agar 2 list bir-birini ustiga qo'yilib biriktirilsa.

*List bir tekislikka qo'yilib, ust qo'yma orqali briktirilsa.

2 list bir-biri bilan to'gridan - to'g'ri biriktirilsa.

2 list bir-biri bilan uchma-uch biriktirilsa.

77. Mustahkamlik shartidan parchin mixning kesilishga hisoblash formulasini toping.

$$* \tau_k = \frac{P}{F} \leq [\tau]_k$$

$$\tau_k = \frac{P}{ndb} \leq [\tau]_k$$

$$\tau_k = \frac{P}{F} \geq [\tau]_k$$

$$\tau_k = \frac{P}{nd^2} \geq [\tau]_k$$

78. Payvand birikmaning avzalliklariga nimalar kiradi?

*Payvandlangan chok foydali yuza hisoblanib, engil choklari zich bo'lgani uchun suv va gazlarni o'tkazmaydi, soda tuzilgan, arzon.

CHoklari zich, konstruksiyasi soda, arzon, engil.

Soda tuzilgan, arzon vazni engil.

Payvandlangan chok foydali yuza hisoblanadi.

79. Kesim yuzaning ixtiyoriy o'qqa nisbatan statik momenti deb nimaga aytiladi?

*Kesim yuzadan ajratilgan elementlar dG yuzachaning yuzacha markazidan o'qqacha bo'lgan masofa ko'paytmasining butun yuza bo'yicha olingan integraliga.

SHu kesimdan ajratilgan elementar yuzachaning o'qqacha bo'lgan masofaning kvadratiga butun kesim yuzi bo'yicha olingan integraliga.

Kesim yuzadan ajratilgan elementar yuzacha markazidan bir-biriga perpendikulyar ikki o'qqacha bo'lgan masofaga ko'paytmasining butun yuza bo'yicha olingan integraliga.

Kesim yuzadan ajratilgan elementlar dG yuzachaning yuzacha markazidan o'qqacha bo'lgan masofasiga.

80. O'zgarmas kesim yuzali valning qaysi uchastkasida xavfli kesim bo'ladi?

Kichik burovchi moment to'g'ri kelgan.

*Maksimal burovchi moment to'g'ri kelgan.

Burovchi moment 0 ga teng bo'lgan uchastkada.

Ichki burovchi moment 0 ga teng bo'lgan uchastkada.

Ichki burovchi moment tax qiymatga etgan uchastkada.

81. Sterjenning buralishga mustahkamlik sharti qaysi formulada keltirilgan.

$$\tau_{\max} = \frac{M \delta}{W_p} \geq [\tau]$$

$$\tau_{\max} = M \delta \cdot W_p$$

$$*\tau_{\max} = \frac{M \delta}{W_p} \leq [\tau]$$

$$\tau_{\max} = \frac{8PD}{\pi D^3} \leq [\tau]$$

82. Prujina diametrining oshishi nimaga olib keladi?

Bikrligini oshirish

*Bikrligini kamaytirish

Hech narsa o'zgarmaydi.

Mustahkamligini oshiradi.

83. Qanday tayanch, sharnirli qo'zg'almas tayanch deyiladi?

*Agar balkaning tiralgan uch kesimi deformatsiya natijasida aylanish imkoniyatiga ega bo'lib, lekin gorizontal va vertikal yo'nalishdagi ko'chishlarga ega bo'lmasa.

Gorizontal va vertikal yo'nalishdagi ko'chishlarga ega bo'lib, aylanish imkoniyatiga ega bo'lmasa.

Balkaning bir uchiga gorizontal yo'nalish bo'yicha ko'chish imkoniyati bo'lib reaksiya kuchi 0 ga teng bo'lsa.

Bir uchi qistirilgan tiralgan bo'lib boshqa uchi erkin bo'lgan balka.

85. Balkaning erkin uchiga juft kuch qo'yilmagan bo'lsa eguvchi moment shu kesimda nechaga teng bo'ladi?

1

-1

*0

2

86. Egilishdagi maksimal normal kuchlanish qaysi formulada o'z aksini topgan?

$$*\sigma_{\max} = \pm \frac{M_{\max}}{W_z} \leq [\sigma]$$

$$\sigma_{\max} = \pm \frac{M_{\max}}{W_z} \leq \sigma$$

$$\sigma_{\max} = \pm \frac{M_{\max}}{L^2}$$

$$\sigma_{\max} \pm \frac{M}{L^2 \sigma_{\max}}$$

87. Qanday nazariya mustahkamlik nazariyasi deyiladi?

*Materiallarda xavfli xolatning boshlanishini gepotezalar asosida turli faktorlarga bog'lab tekshiruvchi nazariya.

Xavfli xolatning boshlanishini gepotezalar asosida tekshiruvchi nazariya.

Xavfli xolatning boshlanishini turli faktorlarga bog'lab tekshiruvchi nazariya.

Murakkab kuchlanishdagi jismning xavfli xolatini gepotezalar asosida tekshiruvchi nazariya.

88. Birinchi mustahkamlik nazariyasining ta'rifi qaysi javobda to'liq keltirilgan?

Murakkab kuchlanish xolatidagi jismda xavfli xolat undagi maksimal tangentsial kuchlanish shu jism materialidan yasalgan na'munaning oddiy chuzilishdagi xavfli xolatiga tegishli tangentsial kuchlanishga erishgan boshlanadi.

*Murakkab kuchlanishdagi jismning xavfli holati unda hosil bo'ladigan eng katta normal kuchlanish shu jism materialidan yasalgan na'munaning oddiy cho'zilish yoki siqilishdagi xavfli holatiga tegishli normal kuchlanishga erishganda boshlanadi.

Murakkab kuchlanish xolatidagi jismda xavfli holat uning eng katta nisbiy chuzilishi shu jism materialidan yasalgan na'munaning oddiy chuzilishidagi xavfli holatiga tegishli nisbiy chuzilishiga erishganda boshlanadi.

Murakkab kuchlanish xolatidagi jismda xavfli holat uning eng kichik nisbiy chuzilishi

89. To'rtinchi nazariyaga ko'ra buralish va egilishdagi keltirilgan moment formulasini aniqlang.

$$* M_{\text{kel}} = \sqrt{M_{\text{g}}^2 + 0,75 M_{\text{b}}^2}$$

$$M_{\text{kel}} = \sqrt{M_{\text{g}}^2 + M_{\text{b}}^2}$$

$$M_{\text{kel}} = \sqrt{M_{\text{g}}^2 + M_{\text{r}}^2 + M_{\text{b}}^2}$$

$$M_{\text{kel}} = \sqrt{M_{\text{y}}^2 + M_{\text{z}}^2}$$

90. Materiallar qarshiligi faniga asos solgan italyan olimi kim?

R.Guk

L.Eyler

*Leonardo Da Vinchi

YA.Bernulli

91. Sterjenning bir uchi qistirilgan, ikkinchi uchiga geometrik o'q bo'ylab yo'nalgan siquvchi kuch ta'sir etsa, qanday deformatsiya sodir bo'ladi?

*Bo'ylama egilish deformatsiyasi

Murakkab deformatsiyasi

Siqilish deformatsiyasi

Cho'zilish deformatsiyasi

92. Bo'ylama kuch epyurasi nimani ko'rsatadi?

*sterjenning uzunligi bo'yicha ichki kuch o'zgarishini ko'rsatadi

sterjenning uzunligi bo'yicha ichki kuchlanishni o'zgarishini ko'rsatadi

sterjenning uzunligi bo'yicha ichki va tashqi o'zgarishi

sterjenning ichki kuch o'zgarishini ko'rsatuvchi grafik

93. Absolyut cho'zilish yoki siqilishning ta'rifi qaysi qatorda to'liq berilgan?

sterjenga ta'sir qilayotgan kuchlanishga va uning uzunligiga to'g'ri proporsional, kesim yuziga teskari proporsional

sterjenning kesim yuzasiga to'g'ri proporsional, kuchlanishga teskari proporsional

*sterjenga ta'sir qilayotgan kuchga va uning uzunligiga to'g'ri proporsional, sterjin materiali bikrligiga teskari proporsional

sterjenning o'z ogirligi va uzunligiga to'g'ri proporsional, kesim yuzasiga teskari proporsional

94. Ko'ndalang deformatsiya deb qanday tur deformatsiyaga aytiladi?

sterjenning bo'ylama kesim o'lchamlarini o'zgarishi

*sterjenning ko'ndalang kesim o'lchamlarini o'zgarishi

sterjenning ko'ndalang va bo'ylama kesim o'lchamlarini o'zgarishi

sterjenning kesim yuzalarini o'zgarishi

95. Materialning mustahkamlik chegarasi formulasini ko'rsating?

$$*\sigma_B = \frac{P_B}{F} H / mm^2$$

$$\sigma_B = \frac{P_{oq}}{F} H / mm^2$$

$$\sigma_{\varnothing} = \frac{P_{\varnothing}}{F}$$

$$\sigma_q = \frac{P_q}{F}$$

96. Mo'rt materiallar uchun siqilishdagi mustahkamlik chegarasi formulasi qaysi javobda to'g'ri ifodalangan?

$$\sigma_q = \frac{P_q}{F}$$

$$*\sigma_B = \frac{P_B}{F} H / mm^2$$

$$\sigma_B = \frac{P_{oq}}{F} H / mm^2$$

$$\sigma_{\varnothing} = \frac{P_{\varnothing}}{F}$$

97. Plastik materiallar uchun ruhsat etilgan kuchlanish qanday aniqlanadi?

$$*[\sigma] = \frac{\sigma_{oK}}{[n]}$$

$$[\sigma]_r = \frac{\sigma_B}{[n]}$$

$$\sigma_e = \frac{\sigma_B}{[n]}$$

$$\sigma_{\varnothing} = \frac{P_{\varnothing}}{F}$$

98. Quyidagi ifodalardan cho'zilish va siqilishga ishlayotgan sterjenning loyiha hisobi formulasi topilsin?

$$\sigma_{\max} \leq [\sigma]$$

$$[N] \leq [\sigma] \cdot F$$

$$*[F] \geq \frac{N_{\max}}{[\sigma]}$$

$$[F] \leq \frac{N_{\max}}{[\sigma]}$$

99. Plastik materiallarm uchun siljishda urinma ruxsat etilgan kuchlanish qanday tanlanadi?

$$[\tau] = (0,8 \div 1) \cdot [\sigma]$$

$$*[\tau] = (0,5 \div 0,6) \cdot [\sigma]$$

$$[\tau] = (0,7 \div 0,9) \cdot [\sigma]$$

$$[\tau] = (0,8 \div 0,9) \cdot [\sigma]$$

100. Val deb nimaga aytiladi?

buralish deformatsiyasiga ishlaydigan sterjen

egilish deformatsiyasiga ishlaydigan sterjen

siqlish deformatsiyasiga ishlaydigan sterjen

*buralish va egilishga ishlaydigan strejen

VI. O'quv uslubiy adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati

Asosiy

1. S.A.YUldoshbekov «Materiallar qarshiligi» T. «O'qituvchi.» 1995 y.
2. A.Nabiev «Materiallar qarshiligi» T. «O'qituvchi.» 2008 y
3. S.A. YUldoshbekov «Materiallar qarshiligi» ma'ruzalar matni 1-2 qism 2003y.
4. S.A. YUldoshbekov M.Maxmudova, N.S.Asomutdinov «Materiallar qarshiligi» metodik qo'llanma T. 2003 y.

Qo'shimcha

5. B.Qoraboev «Materiallar qarshiligi» T 1991 y.
6. Mansurov «Materiallar qarshiligi» T. «O'qituvchi.» 1993 y

Elektron ta'lim resurslari

2. B.K.Muxamedjanov va boshqalar «Materiallar qarshiligi» elektron darslik 2007. DGU 01329

12. Didaktik vositalar. (Didaktik vositalar ro'yxati beriladi).

- jixozlar va uskunalar, moslamalar: brus, sterjen, balka, prujinalarning namunalari, payvandli, parchin mixli brikmalar, laboratoriya mashg'ulotlari o'tkazish uchun kerak bo'ladigan po'lat, cho'yan va yog'och materialidan tayyorlangan namunalar.
- video-audio uskunalar-----
- kompyuter va multimediali vositalar: msateriallarning cho'zilishga, siqilishga, buralish va egilishga sinashning elektron variantlari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. S.A.Yuldoshbekov «Materiallar qarshiligi» T. «O'qituvchi.» 1995 y.
2. A.Nabiev «Materiallar qarshiligi» T. «O'qituvchi.» 2008 y
3. S.A. YUldoshbekov «Materiallar qarshiligi» ma`ruzalar matni 1-2 qism 2003y.
4. S.A. YUldoshbekov M.Maxmudova, N.S.Asomutdinov «Materiallar qarshiligi» metodik qo'llanma T. 2003 y.
5. B.Qoraboev «Materiallar qarshiligi» T 1991 y.
6. Mansurov «Materiallar qarshiligi» T. «O'qituvchi.» 1993 y
7. B.K.Muxamedjanov va boshqalar «Materiallar qarshiligi» elektron darslik 2007. DGU 01329